

Insonni badnom qiladigan har qanday harom-xarish ishlardan o'zini tiya olgan, bu dunyoga pok kelib, pok ketgan, nurdek tiniq hayot kechirgan, Alloh dargohiga farishta bo'lib yo'l olgan do'stim, ukam, jigarim, qadrdomim, xotirasi hech qachon yodimdan chiqmaydigan sevikli yozuvchim O'lmas Umarbekovga bag'ishladim ushbu qissani. Muallif

Birinchi bo'lim

Mashinada vodiy tomonga ketyapmiz. Yosh yozuvchi ukalarim bilan ba'zan shunaqa sayohatga chiqadigan odatimiz bor.

O'zim ruCHb boshqarib kelyapman. Yonimda nihoyatda chaqqon, ziyrak, hech narsani nazaridan qochirmaydigan, goho kuldiraman deb gapning orqa-o'ngiga qaramay aytvoradigan Anvar Eshonov. Orqa o'rindiqda shu vodiyda tug'ilgan, birinchi hikoyalarini shu yerda yozib e'lon qilgan Xudoyberdi To'xtaboyev bilan ikki hikoyalar kitobini, "Sevgim - sevgilim" qissasini nashr qilgan, g'oyatda odobli, yosh bo'lishiga qaramay ko'pchilikning tavajjuhini o'ziga qaratgan O'lmas Umarbekov o'tiripti. Boya yo'lga chiqayotganimizda u, tog'dan ketmaymizmi, deb so'ragan edi. Unga hozircha tog'da vodiyga xos hech narsa yo'q, hammayoq temir-tersak, texnika, ekskavatoru buldozerlar tosh surib yo'l ochyapti. Men sizlarni ota-bobolarimiz qatnagan yo'ldan olib kelyapman, degan edim.

- Otabek yurgan yo'ldanmi? - deb takror so'radi O'lmas.

Ko'pchilikni Otabek yurgan yo'l qiziqtiradi. O'sha yo'lni ko'rgilari keladi.

- Otabek yurgan yo'l manavi tog'lar orasida, - deyman ularga. - U yo'ldan yo' otda, yo eshak minib o'tish mumkin. Biz Kumushbibi ota-onalari bilan aravada Toshkentga borgan yo'lni yoqalab kelyapmiz.

Kayroqqum "dengizi" bo'ylab borib, "Qista ko'z" bekatida to'xtadik. Choy ichib, picha dam olmoqchi edik. Samovarchi bola qorachoy yo'q, deb bahona qildi. O'zimizda bor, desak ham ko'nmadi. Qorachoy damlasam dadam uradi, deb ichkariga kirib ketdi-yu, qaytib chiqmadi.

Kula-kula yana yo'lga tushdik.

Havo toza, osmon tiniq. Dengizni mavjlantirib biz tomon esayotgan ajib bir namxush epkin ko'ngillarimizni yayratadi.

Somonshuvoq tomlarda lolaqizg'aldoq gulxani lov-lov yonadi. Yigitlar chakkasida chuchmo'ma, qizlar sochida tolbergakdan sochpopuk...

Uzun novdolari yerga tegay-tegay deb asta yelpinayotgan majnuntol tagidagi so'rida yetmishlarning nari-berisidagi, chap qulog'iga o'n besh tiyinlik tanga qistirgan bir qariya tizzasini quchoqlab, o'y o'ylab o'tiripti. U bizni ko'rib, kelinglar, mehmonlar, deb ilkis o'rnidan turdi. Shosha-pisha paloslarni qoqib, boshqatdan to'shadi. Tol kuchalasi tushgan joylarni bir sidra supurib chikdi.

- Ozroq hordiq olib turinglar, men hozir...

U shunday dedi-yu, shoshib ichkariga kirib ketdi. Ichkarida andak hayallab qoldi.

Yelkasida dasturxon, bilagida sochiq. Bir qo'lida qorachoy damlangan "Kuznesov" choynagi, yana bir qo'lida shundaqa to'rtta piyola bilan chiqdi. Anvar chaqqonlik bilan yelkasidan dasturxonni olib o'rtaqa yozdi. Samovarchi choynak-piyolalarni dasturxon chetiga qo'yib Anvarga, ukaginam, choyni uch marta qaytarib manavi sochiqqa o'rab qo'ying, deb iltimos qildi. Choyxona ichidan isiriqning xushbo'y hidi dimoqlarimizga urildi.

U isiriq tutuni buralib-buralib chiqayotgan xokandozni ko'targancha mashina tomon ketdi. Mashina eshigini ochib isiriq tutata boshladi. Ishqilib o'rindiqqa cho'g' tushmasin-da, deb jonim halak. Xokandozni yerga qo'yib, qog'ozga o'rog'li isiriq urug'larini mashina ishkopchasiga sochib yubordi. Keyin hammamizga bir-bir isiriq tutatib chiqdi. Ko'z tegmasin, xushro'y yigit ekansiz, deb O'lmasning boshidan xokandozni uch aylantirdi.

- Yomon ko'zdan asrasin, bunaqa husnni xudoyim har kimga ham beravermaydi, suygan bandasiga beradi. Bu zaifona chiroy emas, mardona chiroy. Ulamolarning gaplariga qaraganda, Xizir buvam ham xuddi shunaqa chiroyli odam bo'lgan ekanlar. Xo'jandda daryodan o'tishingiz bilan "Chorux darron" degan toshloq adirga ro'baro' kelasiz. Cho'ponlarning chorig'i toshlokda yirtilaverganidan o'z ismi o'zi bilan bo'lsin, deb toshloqni "Chorux darron", ya'ni "Choriq yirtar" deb atashgan. Shu adirning isirig'i ming dardga davo. Toshkent tomonlarda tumov xuruj qilganda mashinalarini to'ldirib ispand-isiriq olib ketishadi. O'sha yerdan men ham anchagina ispand opkeltirganman.

Samovarchi ichkariga kirib, marg'ilonnusxa do'ppi, oppoq yaktak kiyib, ikkita patnis ko'tarib chiqdi. Bittasida qand-qurs, sedonali oltita non. Nonni ushatib choynak ustidagi sochiqni oldi, piyolaga bir ho'plamgina choy quydi-da, lablarini cho'chchaytirib ichdi. Piyolaning lab tekkan joyini oppoq yaktagining ko'ksiga yengilgina surtib, boshqatdan choy quydi. Uni menga uzatar ekan, "indiyskiy", deb qo'ydi.

Uning hamma harakatlarini diqqat bilan kuzatib turgan O'lmas qoyil qolganini yashirolmay, qalin qoshlarini kerib jilmayib turardi. O'lmasning nimadir degisi keldi.

- Eski zamonning buyumlaridan hali ham bor ekan-da?

Samovarchi javobni nimadan boshlashini bilmay, andak o'ylanib turdi.

- E, ukam-e, bu hammasi o'zidan ketish, haddan oshish, sendan qolsam qulog'imni kesganim bo'lsin, degan nodonlikdan chiqqan narsa. Bundan o'ttiz yil oldin desam to'g'ri bo'larmikan, bir esi yo'q samovarchi o'rtog'imiz choyxo'rlarni o'ziga og'dirish uchun faqat shunaqa choynak-piyola ishlatadigan bo'ldi. Sopol piyolada choy ichib yurgan choyxo'rlar o'ris poshshoning piyolasida choy ichaylik, deb samovarga aridek yopirildi. Agar shu cho'tirdan qolsam kallamni olib tashlayman, deb yana bittasi kuniga uch marta sog'iladigan sigirini buzog'i bilan sotib, xuddi o'shanaqa choynak-piyola oldirib keldi. Yana bitta samovarchi, ochig'ini aytсам, o'zinning tog'am, o'g'il uylayman, deb qachonlardan beri tishida tishlab yiqqan puliga "Kuznesov" xarid qilib keldi. Qo'qonlik arman savdogarlar qarasaki, "Kuznesov"ning xaridori kundan-kun ko'payyapti. Mana bo'lmasam, dedi-yu narxni qopda pul olib keladigan boyvachchalarning ham bo'yi yetmaydigan balandga ko'tarib qo'ydi. Otam rahmatli endi "Kuznesov" olish mening navbatim, deb turganda savdogar uning qo'lini kalta qilib qo'ydi. Otam rahmatlining ko'pkarida uloqni birovga oldirmaydigan, dumiga do'la-na taqilgan epchil oti bo'lardi. Chinnipurushlar shu otni bersang "Kuznesov" seniki, deb oyog'ini tirab oldi. Otam rahmatli, bolam o'ksimasin, deb shu otni bag'ridan yulib olgandek ikki yashik choynak-piyolaga ayirbosh qildi. Undan esdalik bo'lsin, deb dumiga boylangan do'lanani olib qoldi. Shu do'lanani haligacha asrayman. O'sha choynak-piyolalardan bittasi chegalangan, uchta choynak bilan to'qqizta piyola bor. Nozik-nozik mehmonlarga ishlataman. Qopqog'ini choynakka urib shiqirlatib, choy chaqiradiganlarni jinimdan ham yomon ko'raan. Shiqirlataverib qopqog'ini arra qilib yuborishadi. Kar bo'lmasam, ko'r bo'lmasam, ovoz chiqazib, bitta choy, desang bo'ldi-da, oftobni soyaga yetkazmay oldingga oborib qo'yaman. Biz taraflarda erkak mehmonlarni uyda kutmaydilar. Ayniqsa xotin-xalaj ko'p xonadonlarga begona erkakning qadam izi tushmaydi. Har qancha mehmon bo'lsa samovarda kutib yuboradi. Men o'zi andarxonlikman. Onam tojik, otam o'zbek, Ro'zg'orda tojikcha, o'zbekcha aralash qilib gaplashaveramiz. Samovarchilik otamga otasidan qolgan. Besh yasharligimda otam meni yoniga olgan.

Mana, bir kam yetmish yildan beri samovar qo'yaman. Ko'p ajoyib insonlarning xizmatini qildim. Suhbatini, duosini oldim. Kam bo'lmadim.

Ikkita qovun qovg'asining bandini bir-biriga bog'lab, yelkasiga xurjundek tashlab olgan sakkiz-to'qqiz yoshlardagi bola qo'lida portfel bilan bizga salom berib, choyxona ichiga kirib ketdi.

- Nevaram bu. Darsdan chiqib oldimga keladi. Bugun maktabda qandaydir tadbir bo'lar ekan. Direktor oshning masallig'ini tashlab ketgan edi. Oshni damlab qo'yganimda kelib qozoni bilan zambarda olib ketishdi.

Ertalab soat sakkizdan beri gaichilar kamqatnov asfalt yo'limizda shofyorlardan imtihon olishdi. Shuning uchun ham choyxo'r ko'p bo'ldi. Charchab qoldim. Sizlar kelganingizda tizza quchoqlab uxlab qopman, yomonam xijolat bo'ldim.

Qovunlarimizni adirdagi qumga ko'mib qo'yamiz. Adir tomondan qovun isi keldimi, bilingki, adirda qum ko'chib qovunlar ochilib qolgan. Oftob tegib hid chiqazyapti.

Tongga yaqin qattiq shamol bo'lgandi. Adirga qovun olib kelish uchun brichka arava ketgan edi. Bola bobomga qovun oboraman deb kutib qolgan ekan.

Shu nevaramni G'afur G'ulomning xizmatiga bermoqchiman. Eti sizniki, suvagi meniki, deb uyiga tashlab kelaman. U kishi anchadan beri bu tomonlardan o'tmay qo'yadilar. Tinchmikinlar? U kishi hali ham ministerstvodamilar?

Anvarning shaytoni g'alaba qilib, uni kalaka qiladigan biron gapga og'iz juftlab turganini sezib qolib jahl bilan unga yomon qarab qo'ydim. Uning og'zidagi gapi bo'g'zida qoldi.

Xayr-xo'shlashib endi mashinaga chiqamiz, deb turganimizda choyxonachi peshonasiga shapillatib bir urdi. Hah kalam qursin, qovun qolib ketibdi-ku, dedi-da, shoshib choyxona tomon pildirab ketdi. Bir zumdan keyin patnisda chiroyli qilib karjlangan qovun, bir qo'lida obdastada iliq suv olib chiqdi.

- Qovunni kim so'ydi? - deb so'radim undan.

- Nevaram. Qovunni juda chiroylik so'yadi. Qarang, gul qivoripti, bolasi tushmagur. Andarxonimizga kelib bir yoshga kirgan qovun yemay ketish yaxshi emas. O'zi ham asal bo'lib ketgandir. Biron o'n besh kunlardan keyin bunaqa qovunni topolmaysiz. Hammasining urug'ini olib ekib qo'yamiz. Andarxonning qovunini qovun desa bo'ladi.

Samovarchi Andarxon qovunining ta'rifini sal oshirib yuboryapti, deb o'ylagan edim, yo'q, maqtaganicha bor ekan. G'afur G'ulom aytgandek, tilimi tilni yoraman deydi.

U qo'limizga suv quyib, engashib yelkasidagi sochiqni tutdi. Xudoyberdi uning yaktak cho'ntagiga ellik so'mlik pulni solib qo'ydi. Bu ishimizdan u astoydil ranjidi.

Qozoqlarga pichoq sovg'a qilsangiz albatta tig' haqi, deb tanga-chaqa aralash pul beradilar. Bizlarda ham isiriq tutatgan kishiga pul berish bir udum bo'lib qolgan.

- Oqsoqol, - dedim, - isiriq haqi bermasdan ketish sha'nimizga to'g'ri kelmaydi. Oling, olmasangiz xafa bo'lamiz.

Bu gapimdan keyin qo'lini ko'ksiga qo'yib, davlatinglar ziyoda bo'lsin, ukalarim, dedi mamnun.

Qo'qon tomon ketyapmiz. Hozirgina bizni kuzatib qolgan bu ajoyib inson to'g'risida o'ylayapmiz. Uni birinchi marta ko'rishimiz. Faqat bir soatgina u bilan hamsuhbat bo'ldik. Lekin eski qadrdonlardek ukdan ajralish qiyin bo'ldi. Bu yoqimtoy, dilbar inson mehrini, muhabbatini, odamiyiligi o'zimiz bilan olib ketyapmiz.

Isiriq hamda qovun isi o'rnanib qolgan mashinamiz qayiqdek yengil suzib boradi.

Samovarchi, oshga hozir guruch solaman, bir cho'qimgina yeb ketinglar, deb shuncha tavallo qildi, ko'nmadik. Soat ikkida Qo'qonning G'ishtko'prigida Adham Hamdam bilan Anvar Muqimov, Yo'ldosh Sulaymon hamda hofiz Qobiljon Yusupovlar bizni kutadi, shunga ulgurib bormasak bo'lmaydi, dedim.

G'ishtko'prikda odam ko'p. Ko'cha oshi ichaman, deb navbat kutib turganlar son-sanoqsiz. Adham Hamdam butun vodiya mashhur odam. Uni hamma taniydi, hurmat qiladi. U biz uchun oshxona orqasiga alohida joy qildirib qo'yibdi.

G'ishtko'prikning ko'cha oshi vodiya ovoza bo'lib ketgan. Yangi so'yilgan qo'y go'shti, jindakkina tuz yegan peshnob, po'stdumba solingan, ustiga mayda kertilgan ko'm-ko'k xushbo'y kashnich sepilgan, yog'i olinmagan ikki qoshiqqina qatiq solingan, betida ko'k qalampir suzib yurgan bu taom chimxo'r, ovqatga injiq har qanday lanj odamning ham ishtahasini ochib yuborar edi. Bu noyob taomni huzur qilib ichar ekanmiz, qo'li gul oshpazlarga rahmatlar aytardik.

Uncha-muncha ovqatni ko'ngli tortib yeyavermaydigan O'lmas kosani hammadan oddin bo'shatib, uyalib-netib o'tirmay, yana ikki cho'michgina so'rasam ayb qilmaysizlarmi, dedi.

Boshiga biron mushkul ish tushgan xonadon oq jo'xorini tuyib ko'cha oshi qiladi. Uni paqiri bilan ko'chaga opchilib qo'yadi. Paqir yoniga besh-oltita sopol kosa, ko'zachada qatiq, taqsimchada kertilgan kashnich qo'yadi. O'tgan-ketgan to'xtab, ko'cha oshini o'zi suzib ichadi. Xonadon egalarini mushkulingiz oson bo'lsin, deb duo qilib, o'tib ketadi.

Ko'cha oshi kambag'allar ovqati, ocharchilik zamonlarining ovqati, deb uni ta'qiqlab qo'ygan edilar. Bu to'kin, farovon, dorilomon zamonamizda bunaqa ovqat qilib xalqqa tarqatish siyosiy xato deb qishloq faollari ko'cha oshini ariqqa yo axlatga to'kib tashlar edilar.

Shu yerning o'zida maslahatni bir joyga qo'yib, to'ppa-to'g'ri Buvaydaga boradigan bo'ldik. Anvar Muqimov o'sha yerda maktab direktori. Adabiyot o'qituvchilariga kelishimizni aytib qo'ygan. Ular maktab bog'iga dasturxon tuzab kutib o'tirishibdi.

Adabiyot muallimlari bilan suhbat qursang huzur qilasin.

Ular darsliklarda, programmada aytilgan gaplarni har yili takrorlayverib zerikkan muallimlardir. Bu-gungi adabiy hayot ularni qiziqtiradi. Adabiy ijod sohasida qandoq jarayonlar kechayotganini bilgilar keladi. Kutubxonadagi darsliklar ularga allaqachon yod bo'lib ketgan.

Ana shunaqa o'qituvchilar bilan suhbat qursam yayrab ketaman. Yezuvchining shaxsiga, qanaqa asarlar yozayotganiga, qanday yozishiga, hatto kechasi yo kunduzi yozishigacha - hamma-hammasiga qiziqadilar. Birpasda savollarga ko'mib tashlaydilar.

Maktab direktori, kitoblari chiqqan yozuvchi Anvar Muqimov ular uchun mahalliy klassik bo'lib qolgan.

Boshqa soha odami suhbatga aralashib qolsa, albatta, bitta kitobga qancha pul olasizlar, deb so'raydi.

Kitobingizning orqa muqovasidagi narxi bir so'm degan yozuvga ko'zi tushadi. So'nggi yeahifani ochib, oltmish ming nusxa bosildi, degan yozuvni o'qib, ko'zi tinib ketadi. Bir so'mni oltmish mingta zarb qiladi. Eh-he, bunga o'nta "Volga" olish mumkin.

Hukumatning puli yozuvchilarning cho'ntagiga tushib ketibdi-ku, deb o'ylab qoladi. Bunaqada itining tuvagi tilladan bo'lib ketmaydimi?

Unga tushuntirishning foydasi yo'q.

Unga qog'oz haqi, harf teruvchi haqi, bo'yoq haqi, rassom haqi, korrektor haqi, muqovalovchi haqi, kitobni rotatsiyada bosgan

usta haqi, elektr quvvati haqi... Bularni unga gapirib o'tirishning foydasi yo'q. Bari bir u yozuvchilar boy, itining tuvagi... vassalom, deyaveradilar.

Muallimlar bilan bo'ladigan muloqot butunlay boshqacha. Ularni yozuvchining iqtisodiy hayoti emas, ma'naviy hayoti qiziqtiradi. Muallimlar topgan-tutganlarini dasturxoniga to'kib solganlar. O'z qo'llari bilan osh damlaganlar.

Bir suhbat bo'ldi-bir suhbat bo'ldi, aytilmagan gap, so'ralmagan masala qolmadi. Savollarni qalashtirib tashlashdi. Boshlarimiz aylanib ketdi. "O'tkan kunlar" qolmadi, "Qutlug'qon" qolmadi. "Sarob"ni titkilab ko'rdik. "Ko'kan batrak"ni kavlashtirdik. Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari", Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" asarlaridagi yosh yozuvchi uchun ibrat bo'ladigan tomonlarini, maxorat sirlarini ezib-ezib gapirdik. "Shum bola"ning go'zal tili, unda tasvirlangan Toshkent manzaralari, favqulodda o'xshatishlar, undagi boshqa biron asarda uchramagan kiyofalar to'g'risida rosa gapirishdi. Ayniqsa "Qo'shchinor chiroqlari" to'g'risida bahs qizib ketdi. Yo'q, bahs emas, shu topda romanda tasvirlangan joyda turganimiz uchun ham ularni o'z ko'zimiz bilan ko'rib turgandek bo'laveramiz. Asarning nihoyatda rostgo'ylik bilan, san'atkorona yozilganiga qoyil qolganimizni yashirolmasdik. "Asror bobo" urush davrida yozilgan hikoyalar orasida eng yaxshisi, deb tan olingan. Bu hikoya va uning qahramoni Asror bobo ham biz uchun nihoyatda qadri. Chunki u bizning yon qishlog'imizda yashagan. U tug'ilib o'sgan Qo'shtegirmon, Ultarma qishloqlari shundoqqina biqinimizda. Hozir sizlar bilan gaplashib o'tirgan joyimiz Olchin qishlog'imizda tomga chiqib qarasaq Asror bobo yurgan ko'chalar, guzarlar ko'rinish turadi. Bu xikoyani ko'p mamlakatlarning yozuvchilari, adabiyotshunoslari mumtoz hikoyalar ro'yxatiga kiritganlar.

Umuman, Abdulla Qahhor boshqa yozuvchilarga o'xshamagan, o'ziga xos uslubga ega bo'lgan san'atkor sifatida qadrlanadi. Yozuvchining otasi Usta Abduqahhor shu joylarda ustaxonaga ochgan. Yosh Abdulla otasi bilan yonma-yon kattalardek ishlaydi. Tirikchilik kori bilan ustaxonaga kelgan dehqonlarning suhbatlari qulog'iga o'mashib qolgan. Xilma-xil tashvish bilan kelgan odamlarnig qiyofalari ko'ziga suvratdek o'mashgan. Shuning uchun ham Asror bobo obrazi nihoyatda rost, ishonarli, san'atkorona yaratilgan. "Asror bobo" mumtoz hikoyalar safidan joy olishga haqli, deb tan olingan. Yozuvchi uchun ham, kitobxon uchun ham xuddi shu 6ugundagidek jonli muloqot nihoyatda foydali xamda maroqli ekaniga yana bir marta iqrar bo'ldim.

Adhamni bunaqa suhbatlar qiziqtirmaydi. Davraga o'zi bosh bo'lsa, latifalar aytib hammani o'ziga qaratsa, gurra-gurra kuldirsa. Suhbatimizdan zerikkan Adham soatiga qarab, endi bas, ketdik, dedi. Zarkonida bir uy odam bizni kutyapti. Usha yerda tongotar maishat qilamiz, zo'r askiyachilar o'sha yerda. Qobiljonni bulbul qilib sayratamiz, ayda, ketdik...

O'lmas bilan ikkovimiz borolmasligimizni aytib uzr so'radik. Bu yerga maishat uchun emas, boshqa ish bilan kelganmiz, mezbonga uzrimizni aytib qo'y, deb iltimos qildik.

Ziyofatga boradiganlarni Adham olib ketdi. Anvarjon, endi mehmonlar dam olishsin, deb mezbon muallimlarga javob berib yubordi. O'zi pioner lageri uchun oldirib qo'ygan yig'ma karavotlarni supa yoniga qo'yib, joy qilish bilan band.

O'lmas bir qissaning xomaki syujeti boshida aylanayotganini aytdi. Bo'lg'usi qissaning ikki ishtirokchisi bir qishloqda yashaydi. Ikkovi xam arxitektura institutining oxirgi kursida o'qiydi. Diplom yoqlash harakatida.

- Voqea Yangiqo'rg'onning aylanma guzari bilan Furqat stansiyasi oralig'idagi yo'llarda o'tishi kerak. Hozircha o'ylaganim shu, xolos. Agar sizga malol kelmasa, mashinangizda shu yo'lning tungi manzaralarini bir ko'rsam degandim. O'z ko'zim bilan ko'rsam, fikrim tiniqlasharmikan, deb o'ylayapman.

Anvarjon uning gaplariga qiziqib quloq solyapti.

Anvar Muqimovni yosh yozuvchilar seminarida tanigandim. Uning yaxshigina bir hikoyasini o'qib katta gazetalardan birida "Ok yo'l" tilaganman.

Abdulla Qahhorning maslahati bilan uni "Mushtum"da ishlash uchun Toshkentga chaqiradigan bo'ldik. Lekin uning bunga xohishi bo'lmayaptimi yoki kelishga biron to'siq bormi, bilib bo'lmaydigan lanj ahvolda edi. Taklifimizga na ha, dedi, na yo'q.

U Olchin qishlog'idagi o'rta maktabda direktor. Malakali o'qituvchilar kam bo'lganidan har ikki smenada ham adabiyot darsini o'zi olib boradi. Otalig'idagi ikkita yetti yillik maktabda ham kunora dars beradi.

Rayon xalq maorifi bo'limida o'tkaziladigan turli seminarlar, konferensiyalar, veteran o'qituvchilar bilan uchrashuvlar usiz o'tmaydi. Bunaqa tadbirlar uchun maorif pul ayamaydi. Uzoq qishloqlardan kelgan o'qituvchilar gazetalarda doimo hikoyalari bosiladigan tirik yozuvchi bilan hayajonli uchrashuvda xuddi Oybekni yoki G'afur G'ulomni ko'rayotgandek ko'zlari yashnab o'tirardilar.

Anvar Muqimov bu uchrashuvlardan kuruk qaytmasdi.

Otasini nevara-evaralari "Katta" deb atashardi. U, xuddi soliq inspektorlariga o'xshab, qayerdan o'g'lining qancha pul olganini aniq bilib yuradi. Pulni o'g'lining qo'lidan qoqib olmaguncha ko'ngli tinchimaydi.

- Anvarjon ukam, - dedim unga. - Siz o'sishingiz kerak. Toshkentda ustozlardan saboq olasiz, poytaxtdagi adabiy muhit, o'z tengi yosh yozuvchilar bilan bo'ladigan muloqotlar fikr doirangizni kengaytiradi. "Mushtum" esa sizni elga tanitadi. Kelsangiz yomon bo'lmaydi...

- Qani, eshikdagilar bilan bir maslahatlashib kelaychi, - deb Olchinga jo'nab ketdi.

"Katta"dan ruxsat tegdi, shekilli, ko'rpa-to'shagini orqalab Toshkentga keldi.

Anvarjonga Toshkentda yashash oson bo'lmadi. "Katta" xar oyda qishloqda topadigan mikdorda pul yuborib turishni bo'yniga qo'yib jo'natgan edi. Vazirlar oladigan maoshdan bir yarim barobar ko'p pul topishning aslo iloji yo'q edi.

"Mushtum"dan oladigan maoshi, qalam haqi otasi talab qilayotgan pulga urvoq ham bo'lmasdi. Yeyish-ichish, kvartira haqi, tramvay haqi olgan maoshini yamlab qo'yardi.

Unga adabiyot jamg'armasidan ikki marta yordam puli, "yaxshi ishlayapti" deb redaksiyadan mukofot puli ham olib berdik.

Ko'cha ovqatiga pul yetkazib bo'ladimi? Uy egasi, beradigan puling chiroq xaqiga xam yetmaydi, deb soat o'n bo'lishi bilan elektrni o'chirib ko'yadi.

Anvarjon ozib-to'zib, rang-ro'yi bir holatda bo'lib qoldi. U ertalab nonushta qilmay Ko'kchadan piyoda och-nahor ishga keladi. Shu ahvolda u otasi belgilab qo'ygan pulni yuborishga majbur edi.

Oxiri, bo'lmadi. Bu ahvolda biron dardga chalinib qolmasin, deb qishloqqa qaytib ketishiga rozi bo'ldik.

U qadrdon ko'rpa-to'shagini orqalab, tug'ilgan Olchin qishlog'iga qaytib ketdi.

O'lmas biron asar yozadigan bo'lsa "odamovi" bo'lib qolardi. Boshqa ishlarni unutar, faqat yozayotgan asarini o'yarladi. Shu paytlarda u mehmonga ham bormas, mehmon ham chaqirmasdi. Uning bu odatini bilmay tasodifan kelib qolgan tanishlarini qachon ketarkin, deb bezovta bo'laverardi.

Uning fe'lini bilganimiz uchun bezovta qilmasdik. Ishi bitgandan keyin o'zi telefon qilib, kelaveringlar, "tug'ib" bo'ldim, deb kulardi.

"Sevgim-sevgilim" qissasini boshlaganiga hali yigirma kun ham bo'lmagandi. O'zi telefon qilib qoldi.

- Biznikiga kelsangiz. Osh damlayapman. Nozik mehmon kelgan. Sigaretni ko'proq ola keling. Mehmonimiz kashanda chiqib koldi.

Aytgan vaqtida bir blok "Rodopi" sigareti bilan yetib bordim. Dasturxon atrofida nomdor haykaltarosh Yakov Shapiro, "O'zbekfilCHm" rejissori Muxtor Og'amirzayev bilan... aytsam ishonmaysiz, rosmona kosmonavt o'tiripti. Uncha-muncha kosmonavt emas, besh marta fazo kemasida uchgan, ikki marta "Oltin yulduz" olgan Jonibekov o'tiripti. U avval qo'limdagi sigaretga, keyin o'zimga qaradi. Bitta chektiring, birodar, dedi yalingandek.

Bir blok "Rodopi"ni qo'lga berdim. Shoshib blokning zar qog'ozlarini birpasda shilib oldi. Bitta pachkani ochib, ichidan sigaret chiqazdi-yu, zanjigalkada o't oldirdi. Huzur qilib so'rdi. Og'zidan pag'a-pag'a tutun chiqarar ekan, menga minnatdor bir qarash qildi. Shu bilan tanishligimiz boshlandi. Suhbat orasida, fazo kemasida chekish mumkin bo'lmasa kerak, unda qandoq qilib chidaysiz, deb so'radim.

- Bilasizmi, chekish mutlaqo esimga ham kelmaydi. Fazoga uchadigan kunim ham ertalab bosib-bosib chekkanman, Kosmodromga kelishim bilan umrida chekmagan, hatto sigaretni ushlab ko'rmagan odamga aylanaman. Har gal shunaqa bo'ladi. Murakkab apparatlar, vaznsizlik holati, bajarilishi lozim g'oyatda aniq bo'lgan yumushlar, misqol-misqoligacha o'lchangan buyumlar, illyuminator orqali fazo kengligini sinchkovlik bilan kuzatishlar, erga aniq ma'lumot yuborishlar butun vujudimni egallab oladi.

Yerga qo'nishim, oyog'im yerga tegishi bilan hushim o'zimga keladi. Birinchi uchragan odamdan sigaret so'rayman.

O'lmas ham shunaqa. Asar yozishga o'tirdimi, tamom. Boshqa narsalarni unutadi, yozayotgan asari tugagandan keyingina hushi o'ziga keladi...

...O'lmas bilan endi yo'lga tushmoqchi bo'lib turgan edik, kaftlarini bir-biriga ishqab Anvar kelib qoldi.

- Bormasangiz bo'lmas ekan, kutib o'tirishipti.

- Anvarjon bilan ikkovlaring aylanib kela qolinglar, bormasam bo'lmaydiganga o'xshaydi, - dedim unga mashina kalitini uzatar ekanman.

Borganimda ziyofatdan fayz ketib bo'lgan, rayon gazetasining muharriri Mirzaabdulla kayf ustida odamgarchilik, mehr-oqibat to'g'risida ko'p "dono" gaplarni aytayotgan edi. U meni ko'rib ko'zlari yashnab ketdi. Gandiraklab kelib bag'riga bosdi.

- Bu mening qadrdomim. Uyimda yotib qolganda qoq yarim kechasi mashinka chiqillatib hikoya yozgan. Oti nima edi? Ha, topdim. Hikoyaning oti "Yalpiz hidi" edi. Zo'r hikoya chiqqan, ammo-lekin. O'zining mashinasida uni Naymanga oborganman, Eshonto'piga oborganman.

Mirzaabdulla xonadon sohibini ko'p balolardan asrab yurishini bilardim. Bu xonadon o'ziniki bo'lib qolganidan xam xabarim bor edi.

Bachqirlik havaskor xonanda "Onam derman"ni boshladi. Mirzaabdulla ashulani to'xtatib uni turg'izdi. Sudrab tashqariga opchiqib ketdi:

- Shu yerda turib aytasan. Hamma eshitadigan qilib qattiq-qattiq ayt!

- Bu ta'sirli qo'shiqni ko'zingni yumib eshitsang maza qilasan, - dedi kayfi nihoyatda oshib qolgan yi-git. U ko'zini yumdi-yu, uxladi-qoldi.

Hofiz bola "Onam derman"ni nihoyatda berilib aytardi. Qo'shik avjiga chiqqanda xotinlar birdan uvvos solib yig'i boshladilar. Yig'i orasida "Jannatmakonim onam" degan so'zlar quloqqa elas-elas chalinib qolardi. Go'yo xotinlar bo'g'zida kuch bilan ushlab turgan faryod, alam-sitam birdan tashqariga otilib chiqayotgan edi.

Pishiqib ketgan Anvar shoshib tashqariga chiqib ketdi.

Xonadon egasi xofizni etagidan tortib ichkariga olib kirdi. Uchib qolganlar alahsirab har zamonda bir "do'-o'st" deb yuborishardi. Uyqum kelib mudrayapman. Bir kecha-kunduz ko'z yummay mashina haydab kelishning o'zi bo'ladimi! Adxamga, ketmasam bo'lmaydi, jon do'stim, menga javob olib ber, deb yolvordim.

Adham ichida gap yotmaydigan odam. Unga bir gap aytsang, ertasiga boshqa shaharda eshitasan.

- Men bunga Yozyovonda tegirmonda tuyilgan ikki kilo achchiq kalampirni qatiqqa qo'shib ichirganman. O'lib qolishiga bir baxya qolgan. Mayli, charchagan ekan, ketsa keta qolsin, - dedi.

Ana shu gapdan keyin Adxamning shofyori meni mak-tab bog'iga tashlab qo'ydi. Yo'lda u "Domla, ketib juda to'g'ri qildingiz. Bu yerda juda xunuk ish bo'lgan. Nima bo'lganini ertaga bilasiz", degan edi.

Bog' jimjit. O'lmas maza qilib uxlayapti. Men mudrab sudralgandek borib joyimni topdim-u, yotib uxladim-qoldim.

Shovqin-surondan uyg'onib ketdim. Ko'zimni ochib qarasam, kecha ziyofatga borgan yigitlarimizning hammasi shu yerda.

Yo'ldosh Sulaymon o'zini qo'yarga joy topolmay u yoqdan-bu yoqqa yurar, qo'lini havoda silkitib, voy abla-h-e, voy svoloch-e, deb tinmay so'kinardi.

Kecha rubob chalib "bulbul" bo'lib sayragan Qobiljon tamoman o'zini yo'qotgan, biron nima deyishga tili aylanmasdi. Adham hamon o'sha-o'sha Adxamligicha. Go'yo hech gap bo'lmagandek yuripti.

- Mirzaabdulla akaning gaplari hammadan ham oshib tushdi... - der edi Xudoyberdi. - U xonadon egasining yelkasiga qoqib, yigit kishi ana shunaqa o'g'il bola bo'lishi kerak, deb uni cho'pillatib o'piganiga o'laymi. Ustoz, siz avliyo odam ekansiz. Xudo ko'nglingizga solganmidi, bilmayman. Vaqtida ketib, bu malomatlardan, bu qarag'ishlardan qutulib qoldingiz.

- Durustroq tushuntirib aytsanglar-chi. O'zi nima gap, tinchlikmi? - dedi hayron bo'lib O'lmas.

Xudoyberdi boshini ko'tardi.

- Sharmanda bo'ldik, ustoz. Biron tamiz shu paytgacha el oldida bunaqa mulzam bo'lmaganmiz. Biz maishat qilib mast-alast bo'lib, qiyqirib o'tirganimizda mezbonning

onasi olamdan o'tgan ekan. Bu voqeani bizga bildirmagan. Marhumaning qizlari, kelinlari, singillari ko'zda yosh bilan qozon boshida xizmat qilayotgan ekanlar. Hovlining bir burchida qiyqirik, kulgi, qo'shiq, bir burchida ko'zyoshi, faryod, iztirob. Tong otib ketdi. Mezbonga bu quvnoq, 6u shodon bazm uchun rahmatlar aytib chiqib ketyapmiz. Shu payt mezbon orqamizdan kelib, "validamizni berib qo'ydik, qaytib kirib fotiha o'qib ketsangizlar", deb qoldi. Yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadik.

Mehmonlarning hammasi mast. Oyokda turolmaydi. Janozada mast bo'lib gandaraklab yurish juda xunuk bo'lar ekan. Ba'zilar o'zini eplolmay qolgan.

Xudoyberdi yer chizib o'tirgan Qobiljonga qaradi.

- Qobiljon bechora nima qilishini bilmaydi. Butun qishloq ahli janozaga kirib kelyapti. Qobiljon qo'lidagi rubobini qayoqqa yashirishini bilmaydi. Orqaga qaytib "bazzm" bo'lgan mehmonxonaga qo'yib chiqay, desa u yer yig'ishtirilib, fotihachilarga joy qilib qo'yilgan. Eng odobsiz otarchi hofiz ham janozaga rubob ko'tarib kelmaydi. Qayergadir tashlab keladi. Qobiljon rubobini qayerga yashiradi? Shuncha yil qadrdon bo'lgan, uni elga manzur hofiz qilgan rubob hozir qo'llarini chayon bo'lib chaqardi.

Mirzaabdulla aka mezbenni bag'riga bosib:

- O'g'il bolaning ishini qildingiz, do'stim. "Ota-onang o'lsa o'lsin, yori do'sting o'lmasin" degan dono gapga yuz foiz amal qildingiz, qoyil. - U shunday deb mezbenni cho'pillatib o'pa boshladi.

Shu paytgacha kaftlarini bir-biriga ishqab jimgina turgan Anvar Eshonov gapga aralashdi:

- O'tiraverib pishiqib ketdim. Tashqariga chiqib daraxt panasiga o'tdim. Mendan besh-olti metr narida, elektr nuri arang yoritib turgan joyda mezbonimiz bir xotin bilan qattiq gaplashyapti.

- O'zing o'ylasang-chi, apa, qandoq qilib aytaman, qaysi yuz bilan aytaman?

Senda ham yuz bormi, noinsof. Kirib shundoq-shundoq bo'ldi, de. Tamom. Yo shu gapni ham aytolmaysanmi? Axir, ularni ham ona tuqqan-ku!

- Xotin kishiligingga borasan-da, apa.

- Agar sen aytmasang, hozir o'zim kirib aytaman. Onaginamni tirigida xor qilganing kammidi, endi...

Xotin bir siltanib mehmonxona tomon intildi. Mezbonimiz uning yo'lini to'sdi.

- Shunaqami, bo'пти. Mehmonlaring bilan qo'shmozor bo'l. Pochchangni moshinasi bilan onaginamni "Tagob"ga olib ketaman.

"Tagob"lilar nega mayitni baqqa olib kelding, desa, urug'imizdan bittasi hez chiqib qoldi. Zarkonida bosh ko'tarolmay qoldim, deyman. Janozani ham, boshqa marosimlarini ham shu yerda o'tqazaman, deyman.

- Og'zingga qarab gapir, apa! Urub jag'ingni ayirib tashlayman.

- Qo'lingdan keladigan ishdan gapir, bu ishni erkak odam qiladi.

Xotinlar kelib "Apa"ni sudragandek qilib olib ketishdi...

Qaytib ichkariga kirdim. Bazzm avjida. Orqama-orqa kirgan mezbon qo'lini ko'ksiga qo'yib, "Xush ko'rdik, aziz mehmonlar", deb iljaydi.

(Bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqeadan el oldida xijolat chekmasinlar, deb qishloq hamda uy egasining nomini picha o'zgartirib ko'ydim.)

Muallimlar ham birin-ketin kirib kela boshlashdi.

- Yaxshi yotib turdinglarmi, ammo biz rosa maza qildik. Tavakkaljonning qo'shiqlaridan sel bo'lib okdik.

Uxlayotganimda shamol kayerdandir Tavakkalning ovozi elas-elas olib kelayotgan edi.

O'sha to'yga borgan muallim tassurotlarini oqizmay-tomizmay gapira boshladi:

- Esinglarda bormi, "Yangi matcho" tepasida samolyot toqqa urilib qulagandi. O'shanda "Naymanbo'ston"lik bir otaxonning qizi bilan kuyovi ham halok bo'lgandi. Ularning tog' orasida muzlab qolgan jasadini lo'm bilan ko'chirib, vertoletda olib kelishgandi. Ulardan uch yashar o'g'il bola yetim qolgan ekan. Bolaning bo'yi cho'zilib, ovozi do'rillab qopti hamki, cholning qo'li qisqalik qilib, haligacha sunnat kildirolmagan ekan. Ijroqo'm boboning o'zi bosh bo'lib to'y boshlab yuboribdi. Tavakkal Qodirovni to'yga chaqirtiripti.

Bir to'y bo'ldi, bunaqa to'yni hali ko'rmagan edim. Bozorqo'mlar, benzinchilar, bosh oshpazlar, qassoblar, kabobpazlar - bir tomonda kolxoz kassirlari, sovxoz buxgalterlari, omborchilari - bir tomonda. Ana pul qistirishu mana pul qistirish. Hofizning oldiga nonsavat qo'yidilar. Ketma-ket savatga pul tashlab turishibdi.

Tavakkal o'n beshta ashulani ketma-ket to'xtamay aytib, rubobini mikrofonchi sherigiga berdi-da, savatdagi pullarni to'y egasining etagiga to'kdi.

- Mana shu pullar sizga mening to'yanam, otaxon. Rozi bo'lsangiz, bitta o'n so'mlikni niyat qilib olaman. Men ham sizning yoshingizga yetay...

Chol yig'lab yubordi. Ko'zi to'la yosh bilan: "Bola-chaqangning rohatini ko'r, martabang bundan ham ulug' bo'lsin", deb duo kildi.

Tavakkalning 6u odatini men ham bilardim. Bechorahol odamlarning amal-taqal qilib o'tkazayotgan to'ylarida xizmat qilib, tushgan pullarni olib ketmay to'y egasiga tashlab ketishidan xabarim bor edi.

Atigi yigirma to'rt soat, ya'ni bir kecha-kunduzda o'zi ham, takdiri ham, qiyofasi ham bir-biriga o'xshamagan, "Dunyoyi 6o umid" deb chumolidek mehnat qilsa ham kosasi oqarmagan - omadi kelmay takdirga tan berib yashayotgan bechoralarni, ikkinchi tomonda ishi yurishib o'zini yo'qotgan, dunyoni pul ushlab turipti deb jindek amali bor odam oldida emaklab yurishga tayyor pastkashlarni ham ko'rdik.

Shu bir kecha-kunduzda, ya'ni yigirma to'rt soat mobaynida biri shodlikka to'la, biri g'am-anduhga botgan voqealarning shoxidi bo'ldik.

Qani edi uyda o'tirib, qalamni so'rib, voqealarni ham, odamlarni ham to'qib chiqazadigan yozuvchilarimiz yurt kezsa, xilma-xil taqdirli kishilarga ro'baro' kelsa, dehqonning dalada hazon yoqib qaynatgan tutun isi keladigan qumg'on choyidan ho'plab suhbat qursa, balki o'zi ham yengil tortarmidi, yozganlari ishonarli chiqarmidi, deb o'ylayman.

Bir kecha-kunduz. Atigi yigirma to'rt soat.

Sof, har qanday sun'iylikni bag'riga sig'dirmagan umrimning unutilmas yaxlit bir parchasi, bir kecha-kunduz, senga ta'zimlar qilaman!

Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra, deydilar.

Anvar Eshonov "Kolxozlar tarixi instituti"dan Quva kolxozining raisi Sherbo'tayevga xat olib kelgan ekan. Rais bilan uchrashish uchun "Bekat"ga ketar ekan, "Bugun kelolmasam xavotir olmanglar, ertalab yetib kelaman", dedi.

Musajon Sherbo'tayev respublikada taniqli odam. Uning kolxozi ilg'or xo'jaliklar katori qurultoylar-da, plenumlarda tilga olinardi. O'zi ham juda dilbar, suhbatlari shirin inson.

Ertasiga ertalab yetib kelgan Anvar qilgan ishlarini, rais bilan qurgan suhbatlarini oqizmay-tomizmay ayta boshladi.

U ikki soatdan ortiq Sherbo'tayev bilan gaplashib, uch soat o'tirib yozganlarini raisning mashinasida Farg'onaga - viloyat gazetasiga olib borgan, redaksiya mashinistkasiga ikki soatdan ortiq diktovka qilib yozdirgan.

- Mashinistka opa juda tezkor ekan. Men aytib turibman, u yozib tashlayapti. Chumoli iziga o'xshagan qo'lyozmamni eplab

o'qigunimcha, ha qani, buyog'ini ayting, deb kutib qoladi. Ikki soatga qoldirmay yigirma bet materialni shatirlatib bosib tashladi.

Kuni bilan xatga tikilgan ko'zlarim jimirlab ketyapti. Endi qandoq qilib Quvaga boraman, raisga telefon qilish qiyin. Shaharlararo telefon stansiya orqaligina Quva bilan gaplashish mumkin, deb o'ylab turganimda, sizni telefonga chaqirishyapti, deb qolishdi. Borib trubkani olsam, rais. Mashina qachon borsin, deb so'rayapti. Unga mashinistka xaqini xam berib yuborsangiz yaxshi bo'lardi, deb aytdim.

Ko'chirilgan sahifalarni redaksiya kotibi peshma-pesh o'qib, yaxshi, tiniq chiqmagan harflarni tuzatib borayotgan edi. O'zim ham sinchiklab o'qib, qaytariq so'zlarni tuzatdim.

Birinchi sahifaning eng tepasida shunday so'zlar bor:

"Kolxozlar tarixi instituti" yo'llanmasi bilan.

"Nurga intilganlar"

Muxarrir xam diqqat bilan o'qib chiqdi. "Bugungi songa tushirilsin", deb imzo chekdi. Mas'ul kotib jindek g'ashlik qilgandek bo'ldi.

- Gazeta deyarli bosishga tayyor bo'lib qolgan edi-ku.

- Shu songa berasan. Uchinchi sahifaga. "Afandi latifalari"ni olib tashla. "Loflar"ga balo bormi? Bu bachkana miniatyuralarni qaysi ahmoq yozgan?

Shunday qilib, maqolaning yarmi bugun "Davomi kelgusi sonda" deb bosiladigan bo'ldi. Bosmaxonada linotipchilar allaqachon terishni boshlab yuborgan edilar.

Muharrir, ertaga Yo'ldoshali gazeta bilan ikkala sahifa uchun qalam haqini sizga oborib beradi, deb menga rahmatlar aytib kuzatdi. "Bekat"ga kelib yozganlarimni raisga o'qib berdim. Juda ma'kul bo'ldi.

- Toshkentda raislarning ikki oylik malaka oshirish kursida o'qiganimizda Otaboy Eshonov degan akade-mik bizga "Konstitutsiya va fuqarolik huquqlari" degan mavzuda uch-to'rt marta ma'ruza qilgan edi. Siz shu odamning o'g'illari emasmisiz, o'xshab ketyapsiz, - deb so'radi.

- Qattiq charchagan edim, nima deb javob berganimni bilmayman. Shoshib ovqat yedimu yotib uxlab qoldim. Uyg'onsam, tong otib, oftob charaqlab turibdi. Rais yo'q. Qayoqqadir ketibdi. Ish tig'iz payt, dala aylangani ketgan bo'lishi kerak. Ko'chaga chiqib ertalabki havoda aylanib yurgan edim, rais qo'lida bir dasta bugungi gazeta bilan mashinadan tushdi. U xursand. Gazetaning butun bir sahifasini egallagan. "Nurga intilganlar"ni ko'rsatib, tagiga "davomi kelgusi sonda" deb yozib qo'yipti. Qoyil, chapdast yozuvchi ekansiz, deb yelkamga qoqib qo'ydi.

Devona fe'l Anvar o'zini go'llikka solib, birga kelgan do'stlarini "kuydirish" uchun gazetaning maqola bosilgan sahifasini ochib, ustiga yigirmata o'n so'mlikni terib chiqdi. Oxiriga, "Davomi Yo'ldoshalining cho'ntagida" deb yozilgan qog'ozni ham qistirib qo'ydi.

* * *

Xorunboy Ermatov rayon kotibi. O'tgan yili Qahra-monlik unvoniga sazovor bo'lib, "Oltin yulduz" taqqan farg'onaliklarning biri. O'zi juda shinavanda odam. San'at-adabiyot ahllarini boshiga ko'taradi. Kelganimizni eshitib Adhamga, mehnatkashlarimiz bilan bir uchrashuv qilsak, qandoq bo'larkin, degan ekan. Ertaga o'sha yoqqa boradigan bo'ldik.

O'lmas bilan ikkovimiz Anvarjon yetovida katta yo'l yoqasidagi hovlilardan bir-ikkitasini ko'rgani yo'lga chiqdik. O'lmas yozmoqchi bo'lgan qissa ishtirokchilaridan ikkitasiga hovli ko'rishimiz kerak. Biz tanlaydigan hovlilar o'ta zamonaviy ham, juda eskicha ham bo'lmasligi kerak. Xuddi shu kunlarning odamlari yashaydigan oddiy, lekin bir qaraganda hovli egasining kimligini "aytib" turadigan pokiza, fayzli, ro'zg'or buyumlari ham ortiqcha ziynatli bo'lmasin. To'g'ri, bunaqasini darrov topolmaysan. Kam ko'stlari ham bo'ladi. Xalqda "Qozonchida ixtiyor - qaydin quloq chiqarsa" degan naql bor, qolgan-qutganini yozuvchining o'zi qo'shib-chatib oladi.

Birinchi kirgan hovlimiz juda ivirsiq, har yer-har yerda go'ng uyulib yotibdi. O'n beshtacha tovuq ularni tinmay titkilab, hammayoqqa sochib tashlagan.

Ikkinchi hovli avvalgisidan ham battar. Ikki azamat yigit hamma narsani unutib shaxmat surishyapti. Shundoq yonginalarida kir yuvayotgan xotin ariqqa mag'zava to'kar ekan:

- Kamissiyamisizlar? - deb so'radi. - Gaz yo'q, raislarnikida bor, biznikida yo'q.

U lippa urilgan etagini ham tushirmay, "Shuni daftarga yozib qo'yinglar", dedi.

Chiqib ketdik. Xotin orqamizdan javragancha qoldi.

- Boshqalari ham shunaqamikan? - dedi O'lmas Anvarjonga qarab.

- Yo'g'e, - dedi u, - juda pokiza, fayzli hovlilar ham ko'p. Qani, ko'raveraylik-chi.

Ketma-ket sakkizta hovli ko'rdik, gazchilar plan qilgani kelishgan deb o'ylab, xotin-xalaj orqamizdan ergashib yuribdi.

Ko'rganlarimizdan ikkitasi xuddi biz qidirgan hovli

edi. U saranjom-sarishta, fayzligina, ozoda edi. Uzum novdalari baland valishga chiroyli qilib taralgan. G'o'ra tugib qolgan "poshshoyi" o'rigi shoxida ikkita bedana qovoq ilib qo'yilgan. Ustiga to'q yashil mato yopilgan qafas titrayotgandek qimirlab turipti. Undan har zamonada bedana cho'qib tashlagan tariq to'kiladi. Shifer tomda qo'lbola antenna. Shiftiga hafsala bilan naqsh chekilgan ayvonda, ustiga baxmal yopib qo'yilgan, qo'lda ham, oyoqda ham, elektr quvvatida ham ishlatsa bo'ladigan tikuv mashinasi. Hovli o'rtasidagi so'rida oftobda ko'pchisin, deb ohorli atlas ko'rpaning astar tomoni yoyib qo'yilgan.

- Gulchehraning hovlisi, - dedi O'lmas o'zidan-o'zi.

Gulchehra kim, deb hech kim so'ramadi. Shu topda O'lmas o'zi xayolan yaratayotgan qissa ishtirokchisini tasavvur qilayotganini sezib turardik.

O'lmasning chehrasi yorishdi. "Poshshoyi" shoxiga ilib qo'yilgan to'rqovoq tagiga qo'lini tutdi. Kaftiga bir-ikki tomchi suv tushdi. Ikkita hovlidan keyin yana bitta shunaqa fayzli, ozoda, saranjom-sarishta hovliga kirdik. Oshxona devorida quyonna quvlab ketayotgan bo'ri suvratiga ko'zimiz tushdi. Suvrat tagiga "Nu, pogodi!" deb yozib qo'yilgan, hovli etagida pushtasiga sarimsoq piyoz qadalgan kulupnay arig'iga galife shim kiygan o'rta yashar bir kishi suv ochyapti.

Chilonjyda tagida do'ng peshonasidan osilib tushgan quyuy, uzun tolalar ko'zlarini butunlay to'sib qo'ygan oppoq bir kuchuk bola yoniga yaqin kelgan musichaga g'ashlik qilib akillayapti. Kichikroq olxo'ri krqisidek qop-qora tumshug'i bo'lmasa uni bir hovuch paxta deb o'ylash mumkin edi.

U old oyoqlari bilan kattakon yelim xaltani bosib qo'riqlayapti. Xaltada qo'l nasosi, to'rt beshta yong'oq, yurmay qolgan eski yonsoat, velosiped qo'ng'irog'i, multiqdan chiqazib tashlangan gilzalar, shokolad zar qog'ozlari, ichiga no'xat solingan tunuka

hushtak hamda bir siniq ko'zoynak bor.

U yonidan kim o'tsa qo'riqlayotgan "xazina"sini qizg'a-nib irillaydi. Bizni ko'rib jon-jahdi bilan akilladi. O'z ovoizidan o'zi cho'chib yelim xaltani tishlab sudragancha uy orqasiga o'tib ketdi. Go'yo bir hovuch oppoq junni shamol uchirib ketgandek bo'ldi.

Qulupnayga suv ochgan kishi loy bo'lib ketgan kalishini yechib ariqda oyog'ini yuvar ekan, hovli o'rtasida to'ntarilib yotgan bir poy shippagiga qaradi.

- Ha, yaramas, - dedi u hadiksirab turgan kuchukchaga. - Shundan boshqa ermaging yo'qmi? Hali karab tur...

- Bu Abdullaning tog'asi, - dedi Ulmas pichirlab. Oftobro' tomondagi keng ayvon shiftida xuddi boyagi ayvon shiftiga chekilgan naqsh. Ikkovini ham bitta naqqosh chekkan bo'lsa kerak, deb o'yladik. Ayvon o'rtasidagi kattakon stol ustida orqa qopqog'i ochilgan "Rekord" televizori. Aftidan, usta kerakli lampochka topib kelish uchun hozirgina chiqib ketganga o'xshardi.

Abdullaning "tog'a"si yuvilgan oyog'ining bittasida shippak bilan sakrab-sakrab, to'ntarilib yotgan bir poy shippak tepasiga keldi. Engashib, qiynalib oyog'iga ilar ekan, muyulishda unga gunohkorona qarab turgan kuchukchaga "sen" yaramasni lo'lining laychasiga uylab qo'yganim bo'lsin, ana o'shanda "kelin"ning orqasida xurjunini tishingda ko'tarib, lo'killab yurganingni tomosha qilaman deya kuldi.

Kuchukcha asabiy bir alpozda yugurib borib bir oyog'ini ko'targancha tizillatib devor tagini ho'llab, xotirjam qaytib keldi.

Hovlidan chiqib ketarkanmiz, kuchukcha orqamizdan ostonagacha akillab keldi. Anvarjon unga tahdid qilib, ikki marta depsinib yer tepingan edi, vangillab qochib qoldi.

- Bo'ldi, - dedi O'lmas, - mening ishim bitdi. Qolgani "qozonchining qo'lida".

Ertalabdan beri o'zimni lohas sezyapman. Butun vujudim qaqshab og'riyapti.

- O'lmas, - dedim zorlanib. - Mashinani minolmaydiganga o'xshayman. Endi to Toshkentga yetgunimizcha mashina seniki.

Yotoq joyimizga kelganimizda Anvarjon medpunkt navbatchisi, felCHdsher cholni boshlab keldi. U yoq-bu yog'imni tekshirib, yuragim urishini eshitib, haroratimni o'lchab ko'rdi.

- Isitmangiz ancha baland, tinchroq joyda yotib, ukol olib, bir kungina davolansangiz o'tdek bo'lib ketasiz, вЂ” dedi keksa felCHdsher, u aytgan "tinchroq joy" atlas kombinatining sihatgohi edi.

O'sha yerda yotibman. Isitmam tushgan. Lekin ko'zimni uyqu bosib, o'rimdan tursam gandraklab ketyapman.

- Charchabsiz, qattiq charchabsiz, oqsoqol. To'yib bir uxlasangiz, dard ko'rmagandek bo'lib ketasiz, - dedi davolovchi shifokor.

Qancha uxlaganimni bilmayman. Ko'zimni ochsam, tepamda Umarali turipti.

- Bunaqa kilig'ingiz yo'q edi-ku, - dedi Umarali yupatuvchi qandaydir bir ohangda.

Ochiq ko'ngil, birovga tirnoqcha ham ozor bermaydigan, og'zidan biron nojo'ya so'z chiqmagan, o'ta odobli, madaniyatli bu olim yigitni qattiq hurmat qilardim. Yozganlarimning birinchi o'quvchisi, birinchi baholovchisi ham shu edi. Agar biron asarim kitobxon og'ziga tushsa, iliq-issiq gaplar bo'lsa mendan oldin u sevinib ketardi.

Uni ko'rib chehram yorishgandek bo'ldi. "Odam taftini odam oladi" deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Vodiy safarlarimizda u albatta birga bo'lardi. Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov xizmat taqozosi bilan bu galgi safarga chiqolmadilar. Umarali esa universitetning sirtqi talabalaridan imtihon olyapti.

- Sizlar ketdingizlaru men bechora yetim boladek mung'ayib qolaverdim. Sirtqi talabalarimga, hordiq kuni ham imtihon olmoqchiman deganimda sevinib ketishdi. Toshkentda bir kun bekor yurishdan qutuldilar. Vodillik talabamning "Jiguli"sig'a o'tirib baqqa kelaverdim.

Umaralining qiziq odatlari bo'lardi. Yuvuqsiz, irkit odam bilan ko'rishib qolsa, mehmonxonaga yugurib borib cho'milib kelardi.

O'pishib ko'rishadiganlardan qochib yurardi. Tirnog'i o'sib ketgan odam choy uzatsa olmasdi. Peshonasi-bo'yni terlab, hadeb dastro'molini shilta qilib o'tiradigan odam yonidan turib hovliga chiqib ketar, qaytishda boshqa odam yoniga kelib o'tirardi.

- Sizni menga xudo yetqazdi. Ertaga Quva markazida O'lmasning "Sevgim - sevgilim" qissasi muhokamasi bo'ladi. Men bu ahvoldaman. Muhokamani o'zingiz o'tqazib berasiz, - dedim unga yalingandek. Indinga Xorunboy aka yozuvchi mehmonlarni bedana oviga olib chiqmoqchi. Toza havoda maza qilib, bir aylanib kelasiz.

Bilaman. Umarali bedana oviga bormaydi. O'q yeb tipirchilab jon berayotgan bedanalarni ko'rishga yuragi dosh berolmaydi.

U bolalik paytlarida uyda qo'y so'ymoqchi bo'lsalar, uni qarindoshlarinikiga jo'natib yuborardilar. Ko'rsa mutlaqo go'sht yemay qo'yadi, deb shunday qilardilar. To u kelguncha terisiyu kalla-pochasigacha ko'z tushmaydigan joyga yashirib qo'yardilar.

Shunaqa injik odamlarning xotiniga oson tutib bo'lmaydi. Kuniga necha martalab dastro'molu kiyim-bosh almashtiradiganlarning xotini kir yuvishdan bo'shamaydi. Uning xotinidan, kelin, tirikchilik qalay, deb so'rayman.

- Dorilfununga qo'shniligimiz ham boshimizga balo bo'ldi. Likka-likka kirib kelaveradilar. Bitta befahm men bilan quchoqlashib ko'rishdi, deb cho'milib kiyim almashtirib chiqib ketadilar, sal vaqt o'tmay, qo'li terlaydigan bittasi ko'rishib kaftimni jiqqa shilta qilib yubordi, deb yana yuvingani keladilar. Dorilfunundan oladigan maoshlari faqat sovunga yetadi. Gazeta-jurnallardan, radiodan, televizorlardan oladigan qalam haqlarini non puli qilib o'tiribman.

Kelin tagdor gapni tushunadigan beshariqliklardan edi.

Umarali bilan ancha gaplashib o'tirdik. Ruhim yengil tortgandek bo'ldi. U ertaga albatta "Sevgim - sevgilim" uchrashuvini o'zi o'tqazishga so'z berib chiqib ketdi.

Bosh shifokor ham gapni topib-topib gapiradigan serhazil kishi ekan.

- Juda erka kasal chiqib qoldingiz. Serqalampir achchiq sho'rva ichib, o'ralib yotsa tuzalib ketadigan narsaku, bu. Bugun yotib bir uxlang, ertaga haydalisiz. Ko'ryapsizmi, sizdan boshqa bitta ham "bemor" yo'q. Bir o'zingizga qozon-cho'mich, idish-tovoq qilib shuncha odamni ovora qilib o'tiribmiz.

Darhaqiqat, bu shifoxonada mendan boshqa bitta ham davolanuvchi yo'q edi. Bilishimcha, hamshiralar, felCHdsherlar, shifokorlar yordamchi xo'jalikka u-bu ekish, ekilganlarining tagini chopish, sug'orish uchun borishlari kerak. Meni tashlab ketisholmayapti.

Insof ham kerak, dedim o'zimga o'zim.

Ertalab soat o'n birlarda bosh shifokorning o'zi meni "tez yordam" mashinasida uchrashuv bo'layotgan joyga olib bordi.

Mashinaga javob berib yubordi-da, o'zi qoldi.

- Mana, erka kasallaringni olib keldim. Otning beliga musht ursa umurtqasini sindiradigan odam o'zini kasalga solib o'tiripti-ya? Uchrashuv endi boshlanaman deb turgan ekan.

Ajab, uchrashuv qatnashchilari asosan xotin-qizlar edi. Onda-sonda o'g'il bolalar ham ko'rinib qolardi. Uchrashuvda negadir erkak muallimlar kam edi. Adabiyot muallimlarining hammasi shu yerda.

Umarali mehmon yozuvchilarni bir-bir tanishtirib, uchrashuvni boshladi. Maslahat bilan uchrashuv savol-javob yo'sinida o'tadigan

bo'ldi.

Ko'rinishidan shaddodligi bilinib turgan bir qiz o'rnidan turdi. U og'zidagi qoplama tilla tishni yaqinda qo'ydirgan bo'lsa kerak, bo'lar-bo'lmasga og'zini katta ochib kulardi. Kulib bo'lgandan keyin ham og'zi ochiqligicha qolardi. Uning oftob urib qoraygan yuzi, shamolda yorilib, qalinlashib ketgan lablari orasida tilla tishi chaqnayotganga o'xshardi.

- Hurmatli O'lmas akamiz bitta savolimga javob bersalar... - U qo'lidagi "Sevgim - sevgilim" kitobini baland ko'tarib ko'rsatdi. - Bu kitobni eshikdagi ayachamiz o'qiganlarmi?

O'lmas, ha, o'qigan, deb javob qildi.

- Hech narsa demadilarmi?

- Kitob menga yokdi, tabriklayman, dedi. Savol bergan qiz yoqasini ushladi.

- Yo tavba! Indamadilarmi, a?

- Bir nima deyishi kerakmidi? - dedi hayron bo'lib O'lmas.

- Toshkent ayollarining hammasi shunaqami yo bitta sizniki shunaqa chiqib qolganmi?

- Gaplaringizga tushunmayapman, singlim. Tushunadigan qilib gapiring.

- "Yakkachinor"ga kelib Oypopuk degan qizga oshiqi-beqaror bo'lganini, shu qizni deb "Yakkachinor"da bir umr qolib ketishga axd qilganini kitob qilib yozib, o'z xotiniga o'qib bersa, yangachamiz uni o'pib tabriklasa, iya, bu qanaqasi bo'ldi. Yo toshkentlik ayollarda rashk yo'qmi? Tushunmadim, sira tushunmadim.

Bu shaddod qizning ismi G'apura, dugonalari G'upra deb atashar ekan...

O'lmas nima deb javob qilishni o'ylab ancha jim turib qoldi. Bu holatni qizlar o'zlaricha tushunib yozuvchini javob topolmaganga yo'ydilar.

Shundoq katta, shundoq mashhur yozuvchini "mot" qilgan G'upra tantana qilardi.

Qizlar yelpinib o'tirgan "Sevgim - sevgilim" kitobini qo'ltiqqa qisib qarsak chala boshladilar. O'lmas ularga qarab bir chiroyli jilmayib turibdi. Qizlar qo'ltiqqa qisilgan kitobni olib yana yelpina boshladilar. Hammayoqni issiqqina "qiz hidi" tutib ketdi. Kitob saxifalaridan esayotgan Oypopukning isi shu xidlarga omuxta bo'lgandek edi.

"Oqsoqol" qo'lini ko'tarib g'ovurni bosdi. U kolxoz raisining madaniy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, shaddodligi uchun uni "oqsoqol" derdilar. Hamon og'zini ochib turgan qizga qaradi.

- Kitobni durustroq o'qimabsan, kallavaram. Boshlanishidayoq ko'rga hassa qilib yozib qo'ygan-ku! Qarib qolgan otasi bolaligidayoq onadan yetim qolgan yolg'iz o'g'lini qiyinchilik ko'rsin, mustaqil yashashga o'rgansin, o'ziga foyda bo'ladi, deb institutni bitirishi bilan o'q "Yakkachinor"ga jo'natib yuborgan. Bildingmi? Shundan ma'lumki, u hali uylanmagan, ro'zg'or qilmagan. Sen bo'lsang xotiningga o'qib berdingmi, u nima dedi, toshkentliklar rashk qilishni biladilarmi, deb valdirayapsan. Bilib qo'ylaring, Umarbekov aka biravga yem bo'ladigan yozuvchilardan emas, Abdulla Qahhor aka aytganlaridek, Umarbekov ertaga qichishadigan joyini bugun qash-lab qo'yadiganlardan. Mamadanalik qilib har baloni gapiraverasanmi? Esi yo'q.

- "Oqsoqol" men sizga nima yomonlik qildim? Nega muncha g'azablayverasiz?

- Bo'ldi, o'tir joyingga! - dedi "oqsoqol" buyruq ohangida.

- Hali aytadigan gaplarim ko'p, - qizning og'zi yana ochiq qoldi.

- Obbo, hech gaping tamom bo'lmas ekan-da. Iching savolga to'lib ketgan ekan. Qani, vaqtni olmay, tez-tez gapir.

- Yozuvchilar nima uchun shafqatsiz, rahmsiz, qahri qattiq bo'ladilar? - dedi jiddiy turib...

Bu gapdan keyin o'tirganlar birdan unga qiziqib qaradilar.

- Kitoblarni oxirigacha o'qimay qo'ya qolsam, deyman. Agar o'qisam, azaga borgandek ezilib ketaman. Qaysi kitobni o'qisam mehrim tushgan, qarddon bo'lib qolgan "qahramon" o'lib qoladi. "O'tkan kunlar"dagi Kumushbibi nima bo'ldi? Uni kim o'ldirdi?

Albatta, yozuvchi o'ldirgan. Kechasi "O'tkan kunlar"ni o'qib yotib oxiriga kelib qolgan edim. O'lgan joyiga kelganda chidamay dod deb hovliga chiqib ketibman. Uyg'onib ketgan buvim, bolam kitob o'qiyversa telba bo'lib qoladi, deb uni topib bo'lmaydigan joyga berkitib tashladi. Baribir kitob yod bo'lib ketgan... "Boy ila xizmatchi"dagi Jamilani, "Qutlug' qon"dagi Yo'lchini rohat ko'rmay o'lib ketganiga sira chidamayman. Iig'layverib, qovoqlarim yong'oq po'chog'idek bo'lib shishib ketdi. Mana shu "Sevgim - sevgilim"dagi Oypopukni ham yozuvchi o'ldirdi. "Ufq"dagi Jannat xola yolg'iz o'g'lining g'amida to'qayda, qamishlar orasida, botqoqda faryod urib olamdan ko'z yumadi. "Kecha va kunduz"da o'rischa bilmaydigan Zebixon sud qilinib Sibirga haydab ketiladi. Telba bo'lib qolgan onasini zanjirga solib Eshonning uyida kaltaklaydilar. Uning she'r to'qib aytgan faryodiga odam bolasi chidayolmaydi.

Zebi, Zebi Zebona,

Men ko'yingda devona,

Zahar qilib oshingni,

Pirim yedi boshingni.

Zebi, Zebi Zebarim,

Qayda qolding, dilbarim...

- "Kecha va kunduz"ni qayerdan topib o'qiding? - dedi oqsoqol.

- Toptim-da, Yozyovonimizda to'qqizta odamda bu kitobning qo'lda ko'chirilgan nusxasi bor. Shulardan bittasini o'qidim-da!

- Yozuvchi kitobni boshlamasdan oldinoq kim o'ladi, kim qoladi, belgilab oladi. "Oltin devor" bilan "Kelinlar qo'zg'oloni"ni o'qing. Ularda bitta ham odam o'lmaydi. Ularda hamma "Arshin mol olon"dagilarga o'xshab murod-maqsadlariga yetadilar.

Shunday qilsa bo'lar ekan-ku!

Umarali uning bu gaplariga quloq solib o'tirar ekan, kitoblar to'g'risida bolalarcha chiqqan xulosalarini o'ylardi. Qizgina ishlab turib kechki maktabni "oltin medal" bilan tugatibdi. Adabiyotning qonun-qoidalarini mutlaqo bilmaydi. Buni unga tushuntiradigan odamning o'zi yo'q. O'zicha to'g'ri-noto'g'ri xulosalar chiqarib yuripti. U jon-jaxdi bilan kitobga yopishib olgan. Quva taraflarda unchalik ko'p o'qiydigan kitob "jinnisi" yo'q, desa bo'ladi. Qani endi unga bir rahnamo topilsa, Toshkentga o'qishga yuborsa. U dorilfununda ustozlardan saboq olsa, yaxshigina o'z so'zli adabiyotshunos chiqarmidi.

Hozirgina "Oqsoqol"dan eshitadiganini eshitib dili vayron bo'lgan G'upra qovoq-dumog'ini osiltirib o'tirardi. Umarali yonida o'tirgan Quvaning kotibi Ermatovga shu fikrini aytgan edi, u o'ylanib qoldi. Yuzlarini oftob qoraytirib sopolga o'xshatib qo'ygan,

qir shamoli lablarini po'rsildoq qilib tashlagan bu qishloq qizining bir kun kelib katta olim bo'lib ketishini sira ko'z oldiga keltirolmasdi.

- Avval menga ayting, shu qishloq qizidan olim chiqadimi?

- Chiqqanda qandoq. Katta olimlarning ko'pchiligi qishloqdan chiqqan. Bu qiz "O'n yillikda" olgan sabog'i bilan o'zini bilag'on sanab, xar balolarni valdirab yuripti. Toshkentga borsa esi kirib qoladi.

- Agar shundoq bo'lsa har qancha xarajat bo'lsa Quvaning bo'ynida.

- Hech qanaqa xarajat bo'lmaydi. Dorilfununga kiruvchi qishloq bolalariga imtiyoz beriladi. Undan tashqari bu qiz kechki o'n yillikni "Oltin medal" bilan bitirgan. Bitta imtihon bilan o'tib ketadi. Qolaversa O'lmasbek bilan ikkavimiz qarab turmasmiz. G'upra "Oqsokol"ga nima, arpagizni xom o'rib qo'yippanmi! deb xurpayib o'tirardi. Ermatov uni imlab yoniga chaqirdi. "Obbo, endi raykom bo'vadan ham gap eshitaman shekilli", deb hadiksirab oldiga bordi.

- O'tir, - dedi Ermatov xuddi o'z qiziga aytayotgandek. - Toshkentga o'qishga yuborsak borasanmi?

- Boraman, - dedi G'upra hech ikkilanmay. G'upralar oilasi Qashqadaryoning Nishon rayonidan ko'chib kelgan. Otasi traktor ketida paxtaga dori sepib yurib o'pkasini xasta qilib qo'ygan ekan. Bu oila vodiya toza havo istab kelib qolgan edi. O'sha kezlarda Markaziy Farg'ona cho'llarini o'zlashtirish jadal ketayotgan edi. Shu bahona bo'lib ular Yozyovon fuqarosi bo'lib qolgan edilar. Ota bolalarini yetim qoldirib olamdan o'tib ketdi.

- Ro'zg'orga qarashadigan sendan boshqa yana kim bor?

- Ikkita akam bor. Birtasi Qo'qonga qatnaydigan avtobusda haydovchi. Birtasi maishiy xizmat kombinatida raykomlarga, ispolkomlarga zo'r kostyumlar tikadi...

- Iya, Aliqul "portnoy"ning singlisimisan? U juda ko'p pul topadigan boyvochcha yigit. Senga yordam qilib kunduzgi maktabga o'tqizmagani ekan-da.

- Ko'ying, minnatli ish qursin. Dadam o'lgandan keyin bundan buyoq o'z kunimni o'zim ko'raman, deb ahd qilib qo'yganman.

- Unday dema, jigar axir, men aytaman, senga Toshkentda kiyib yurishing uchun bosh-oyoq kiyim tikib beradi.

- Bu gapni unga aytishning foydasi yo'q. Medalimni buvim dadam rahmatlining orden-medallari bilan sandikda saqlardi. Noinsof akam buvimni aldab, medalimni olib, xotiniga tish yasatib beripti. Qildim to'polonni, qildim to'polonni. Bu medal qiynalib ishlab, qiynalib o'qigan paytlarimdan xotira bo'lib tursin, degandim. Siz, akang senga Toshkentda kiyishingga bosh-oyoq kiyim tikib beradi, deyaapsiz. Agar akam birovga tekinga birta tugma qadab bersa, o'sha kuni joni chiqib ketadi. Buvim kelin bo'lib tushganda, katta acham "yuz ochdi" kuni "ko'rmana"ga tilla to'g'nog'ich bergan ekan. Shuni sandikdan olib menga berdi.

- Xafa bo'lma, bolam, bu sapsem tilla. Yangachangning qoplamasiga jez aralashgan, - deb meni yupatmoq-chi bo'ldi.

To'g'nog'ichni bir pas tomosha qilib, keyin uni buvim-ga qaytib berdim. Bu to'g'nog'ich buvimga qaynonasidan esdalik. Qandoq qilib uni sira unutilmas baxtiyor kunini eslatadigan, ellik besh yillik xotirasidan mahrum qilaman.

Bu ishimdan buvim bechora andak ko'z yoshi qilib oldi. Marg'ilonda zo'r tish texnigi bor, deb eshitgan edim. O'shanga uch kun qatnab rosmona tillodan qoplama qo'ydirib keldim.

Uning hikoyasini berilib eshitgan "Raykom bova":

- Medal bo'lmasa hamma imtihonlardan o'tishi kerak bo'ladi-ku, - dedi afsuslanib.

- Medalni oborish shart emas. Hujjati bo'lsa bas. Medal esdalik uchun uyda saqlashga berilgan, - deb tushuntirdi Umarali.

- Besh yildan beri topgan pullarimning yarmidan ko'pini kassaga qo'yardim. Pul ustiga pul tug'ib yotibdi. Birta apacham sartaroshga shogird tushib yurgan tojik bala bilan Dushanbega qochib ketkan. Birta yangacham bolalar boqchasida murabbiy. Yana birta yangacham yaqinda "Jijilagan". Ya'niy bo'shangan. Hozir eshikda jiji boqib o'tiripti. Buvim parranda fermasida ishlab oylik o'rniga tuxum bilan pati yulingan tovuq oladi. Lozimadalarini shunaqa qilib eplab yuripti. Raykom bova, agar buvim o'qish qochib ketmaydi, avval uni erga beraman, desa, aytib qo'ying, apamga o'xshab qochaman-ketaman.

Ermatov: "Bu qiz "6alo"ga o'xshaydi. Tegirmonga tushsa butun chiqadiganlardan ekan. Bolaligidanoq mustaqil yashashga, biravga qaram bo'lmaslikka o'rgangan. Bunaqalar intilgan niyatiga yetmaguncha tinchimaydi, deb", qat'iy ishonadi.

G'upra bir dunyo kuvonch bilan joyiga borib o'tirdi. Ammo "Oqsoqol" yana eski gapni boshladi.

- Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, deb shuni aytadilar-da. Oybegu G'afur G'ulomlarning bittasi Ab-dulla Qahhor aka o'zimizga hamqishloq. U kishining hamma kitoblarini mazza qilib o'qiganman. G'upra qizning gapida picha jon bor. Hamqishlog'imizning kitoblarini o'qigan odamning yashagisi kelaveradi. Bir kuni kelib men ham o'laman-ku, degan o'y kallasiga kelmaydi.

"Mingbirjon" degan asarini o'qiganmisiz? O'qimagan bo'lsanglar albatta topib o'qinglar.

Ana o'ladi, mana o'ladi deb kutishayotgan bemor eshikdan olib kirilgan o'z tobutini derazadan ko'rgan, ayvonda uning joni uzilishini kutayotgan g'assolning ovozi ham eshitgan. U o'limga tik boqib u bilan olishib yotibdi. Yozuvchi uni tiriltirib yuboradi. Hikoya oxirida o'limni yenggan Mastura Aliyevani ot ustida qarsillatib olma tishlayotgan paytini tasvirlaydi.

"Sevgim sevgilim"ning ham har bir so'zini sinchiklab o'qish kerak. Yozuvchi so'z tagiga so'z yashiradi. O'sha so'zni topib o'qish kerak. Oypopuk nega o'zini nobud qildi? U boshiga qora kun tushib, o'zini qo'yarga joy topolmay, eng yaqinlarining madadga muhtoj bo'lgan bir paytda, yagona yaqin kishisidan eshitgan bir og'iz hissiz, beparvo so'z uni o'ldirdi. Ey og'zi ochiq tilla tishli G'upra qiz, kitob boshidagi so'zlarni o'qimasang, yuragim dosh berolmaydi deb oxirini o'qimasang. Shuning uchun ham hech baloga tushunmagan ekansan-da. O'tir, o'tire!

G'upra past kelmasa bo'lmaydigan. "Oqsoqol" uni buydalab tashlaydigan. Olishsam sharmandamni chikazadi, deb joyiga o'tirdi. Og'zi xam yumildi. Tilla tishi ham ko'rinmay ketdi.

Ayol kishi bilan olishib ham bo'lmaydi, bas kelib ham bo'lmaydi. Hatto parrandalarning ham urg'ochisi jonini tikib "krnli jangga" kiradi.

"Oqsoqol" ham ana shunaqa shaddod, gapni bilib-bilib aytadigan, g'ururini yerga urmaydiganlardan edi.

O'lmasdan ko'z uzolmay uning qoshlariga mahliyo bo'lib o'tirgan qiz o'rnidan turdi.

"Gapga suqulmagan bitta sen qoluvding, suzilmay o'lgir" degan ovoz chikdi.

Qizlar karsillab kulib yuborishdi.

- Bu kitobni kechalari bolishimning tagiga qo'yib yotaman. Har uyg'onganimda olib silab-silab joyiga qo'yaman. Shuni yozgan yigitni bir ko'rmikanman, deb nolalar qilganman. Mana, nolishim xudoga yetib, u bilan ro'baro' qilib qo'ydi.

Bir baqaloq qiz o'rnidan turdi.

- Endi uni qo'ldan chiqazma. Mahkam ushla! To'yananing kattasi mendan. Bitta qo'y sendan aylansin.

Suzuk ko'z qiz nozlanib O'lmasni "eritmoqchi" bo'ldi. O'lmas Toshkentda ne-ne tam-tam qizlarning "tuzog'i"dan omon chiqqan, bu

masalada katta malaka orttirgan yigitlardan edi. Bu qizning noz-karashmalaridan ichida kulibgina o'tirardi. Qiz uning oldiga kitob bilan ruchka qo'ydi.

- Shunga dastxat yozib bering. Iltimos, singlim demang...

Qo'y to'yana qilmoqchi bo'lgan qiz gap qotdi: "Sevgim-sevgilim, ko'zlarimning oqu qorasi" deb yozsinmi?

Yana kulgi, yana chapak bo'ldi.

- Ko'p yozing, - dedi u, - yaxshilab yozing, menga qarab turib yozing.

- Otingiz nima edi, singlim? - dedi qo'lga ruchka olib dastxat yozishga chog'lanar ekan O'lmas.

- Otimmi? Otim Rono. Hayron bo'lmang, hali tilla tishimni qo'ydirganim yo'q. Shuning uchun og'zimdi katta ochmayappan.

- Oilada bitta qizmisiz, erkagina ekansiz.

- Yo'-yo', uchta apacham bor. Hammasi tilla tish qo'ydi-rib olgan. Endi ochirt menga kelgan. Xudo xohlarsa tilla tish qo'ydirganimdan keyin Toshkentga boraman, ko'rishib qolarmiz.

- Toshkentlik bechoralar umrida tilla tish ko'rmagan. Qo'lingdan sudrab telestudiyaga opkirib ketadi. O'shakda diktora bo'lib qolib ketishing ham mumkin, - qizlarning kalaka qilib aytgan so'zlarini ham "Ro'no" yaxshilikka yo'ydi.

- Bo'lishi mumkin. Hayotda nimalar bo'lmaydi. B" deb javob qildi ularga.

Dastxat yozilgan kitobni olarkan biron eshitmaydigan qilib sekingina:

- Ikkalamiz birga suvratga tushaylik, - dedi har qanday erkakni eritib, "uyg'otib" yuboradigan g'alati g'amza bilan.

- Ko'pchilik - gruppovoy bo'lib suvratga tushamiz,- dedi O'lmas.

- "Gruppovoyda" yoningizda o'tirsam maylimi?

O'lmas ensasi qotganidan indamadi.

"Ro'no" bir qo'li bilan ikki yoqasining uchini birlashtirib, nomahram ko'zi tushmasin, degandek "ibo" bilan kelinchaklarning salomiga o'xshatib engashdi, suzilib dastxat yozilgan kitobni oldi.

U joyiga ketarkan dastxatga nimalar deb yozilganini bilishga qiziqqan besabr qizlar uning qo'lidan kitobni yulqib olib qo'ydilar.

- Vuy qizlar. Yaqindan ko'rmadinglar-da. Qoshi quuup-quyuq. Qoop-qora ekan. Soqol olganda betiga zo'r odekolon separkan.

Shundoq gupillab hidi kelib turipti...

* * *

Umarali "bedana ovi"ga bormaydi. Uni yolg'iz qoldirib ketolmay o'tiribman. Shuncha odamni o'zim boshlab kelib, o'zim bormasam qandoq bo'larkin. Umaralini ham borishga ko'ndirishim kerak.

- Menga qarang, bedanaga o'q uzganda teskari qarab o'tiraqolarsiz, xo'p, deng, domla.

U biz o'ylagancha ta'sirchan emasligini bildirish uchun, xo'p, mayli, borsam boraqolay, dedi noiloj.

Ertalab Yo'ldoshali Anvarga gazetadan "qalam haqi" olib kelganda Toshkentdan Erkin redaksiyaga telefon qilib, kechga yaqin Yaypanga boraman, sheriklarimizni xabardor qilib qo'yinglar deb tayinlaganini aytgan edi. Demak kechqurun Erkin Vohidov ham yetib keladi.

Rayonga aziz mehmonlar keladigan bo'lsa Xorunboy Ermatov albatta ovga olib chiqadi. Bir kun oldin bedana ko'p bo'ladigan joyga tariq septiradi. Ular tayyor donni tashlab boshqayoqqa uchib ketmaydilar. Rizqlarini shu yerdan terib yuraveradilar.

Raypo bitta chog'roq bino qurib qo'yan. Unda taxtadan yasalgan "qo'lbola" yig'ma stollar, skameykalar, idish-tovoqlar, katta-kichik bir nechta qozon, temir o'choqlar saqlanadi. Kelgindi ovchilar oyoqosti qilmasin, deb qo'riqlashga multiqli maxsus qorovul qo'yilgan.

Noyabr boshlanishi bilan bu joy huvillab qoladi.

Bedanalar qayoqqadir qishlovga uchib ketadilar. Faqat ko'ksi qizil sa'valar qor titib, qolgan-qutgan xo'raklarni terib, sayrab yuradilar.

Badiiy havaskorlar ko'rigida magnitofon sovrin olgan bolani odam yuborib oldirib keladilar. U hayvonlar, parrandalar ovozigga taqlid qiladi. Bulbul bo'lib, bedana bo'lib sayraydi. Xo'roz bo'lib, o'rdak bo'lib qich-kiradi.

Jamoat jam bo'ldi. Endi ovni boshlasa ham bo'ladi. Taqlidchi "bedana bola" chap tarafdagi butalar orasiga yashirib "sayrash"ga shay bo'lib turipti.

Ov boshlandi. "Bedana bola" pit-piliq, pit-piliq, deb "sayray" boshladi. Uning orqa tomonidan bir gala bedana patirlab havoga ko'tarilib u tomon uchib kela-boshladi. Chap tomon mergani qo'shog'iz multiqning bitta tepkisini bosdi. Oltita bedana o'q yeb, tap-tap qilib yerga tushdi. "Bedana bola" endi o'ng tomonga emaklab o'tib xashaklar orasiga yashirindi. Xashak orasidan yana "pit-piliq" tovushi keldi. Sodda, laqma, bo'sh-bayov bedanalar o'sha tomonga gurra ko'tarildilar. O'q uzilganda ularning beshtasi havoda pitirlab jon berib, yerga to'kildi. Bu begunoh, yuvosh jonvorlarning osmonda jon taslim qilishi har qanday bag'ritosh odamning ham yuragini ezardi. Teskari qarab o'tirgan Umarali varanglab o'q uzilganda "Odam bolasi naqadar shafqatsiz" deb qo'ydi.

Endi bir tomondagi mergan o'rnini O'lmas egalladi. Bola "sayrashi" bilan xavoga ko'tarilgan bedanalar O'lmasning tepasidan parillab o'ta boshladilar. O'lmas shoshib qolib qo'ndoqni yelkasiga tiramay ikkala tepkini barobar bosib yubordi. Ikki o'qning nihoyatda kuchli zarbasi qo'ndoqni favqulodda bir kuch bilan siltab yubordi. Ulmas orqasiga ag'darildi. Hammamiz barobar o'sha tomonga yugurdik. Xayriyat, uni shunchaki qo'ndoq tepkan ekan. Ikki o'qi barobar otilgan multiq qo'ndog'ining zarbiga unchamuncha polvon mergan ham dosh berolmaydi.

O'lmas o'ng yelkasini silab ingrar edi.

Adham bir shisha araq olib keldi. Uning galstugini, yoqalarini yechib yelkasidagi tepki urgan joyni ochib kaftiga quygan araq bilan bor kuchini ishga solib ezib-ezib, bosib-bosib ishqalay boshladi. U shishadagi araq yarimlaguncha kaftiga quyib uqalayverdi.

Adham qo'li tolguncha ishqaladi. Uqalayverdi. Bu xil uqalash to'rt-besh marta qaytarilgandan keyin O'lmas ingramay qo'ydi.

Undan ovoz chiqmagach, kimdir Adhamga "Yuragiga quloq tuting" deb yubordi hayajon bilan. Adham O'lmasning ochib qo'yilgan chap ko'ksiga qulog'ini qo'ydi. U qulog'ini ko'krakdan uzmay o'ng qo'lining bosh barmog'ini ko'rsatdi. Hammamiz yengil nafas oldik. Ikki-uch daqiqadan keyin O'lmas ko'zini ochdi.

Uning rangi paxtadek oqarib ketgan, "Hech narsa bo'lgani yo'q, o'tib ketadi" degandek xijolatlik bilan qiynalib jilmaymoqchi bo'lardi.

Adham shu paytda ham hazilini qo'ymasdi.

- Meni ko'p ichasan, deb ko'z ochirmasdinglar. Mana, araqning ham foydasi bor ekan-ku! Sizlar ham tez-tez ichib turinglar, -

deyardi.
O'lmasni ko'tarib kelib to'shakka yotqizdik. Uning ahvolini ko'rgan Umaraliga bedanalarning pitirlab jon berishi hech gap bo'lmay qoldi.
- Gap shu yerda qolsin, - dedim. - Gapni chuvalatib yurmanglar. Hech gap bo'lmadi deb o'ylanglar. Xorunboy akaning bu ishdan hali xabari yo'q. Qishloq xo'jaligi vaziri Urkinboyev kelgan ekan, Quvadan odam kelib Ermatovni mashinada olib ketdi. Bu voqeani u kishiga ham bildirmay qo'ya qolaylik. Xijolat bo'lib yurmasin. Agar O'lmasning xotini eshitsa bormi, qoq yarim kechasi bo'lsa ham yetib keladi. Uni zing'illatib Toshkentga olib ketadi.
- "TIR"da o'q o'rniga piston solingan "Vozdushka"ni otib, merganman, deb yurgan ekansiz-da, Bek aka, - dedim hazil qilib. - Ilgari shunaqa katta miltikdan sira otmagan edingmi?
- "Vozdushka"da ko'p otkanman. Ularni yelkaga tiramasdan otsa bo'laverardi. Yelkaga qattiq tirab turish kerakligini men qayoqdan bilay, - dedi O'lmas qilib qo'ygan ishidan hali ham o'ziga kelolmay.
- Sening dadil borib miltiqni olishing, xuddi merganlardek miltiqning uyoq-buyoqlarini ko'rishingdan, tajribali ovchiga o'xshaydi, deb o'ylashgan bo'lsalar kerak.
- Miltiqni oldimu ko'zimni chirt yumib boshim ustidan o'tayotgan bedanalarga qarata qo'sh tepkini bosib yubordim. Qo'ndiq yelkamdanda bir qarichmi, yarim qarichmi uzoqliqda edi, hozir esimda yo'q, bilmayman. Ikkala tepkini barobar bosganimni bilaman.
- Seni xudo asradi, - dedim. - Qo'ndiq iyagingga tegsa nima qilarding. Jag'ingni dabdala qilib og'zingdan uchirib chiqarib yuborardi. Umr bo'yi yamalgan jag' bilan yasharding.
O'lmas qilmishining oqibati bu darajaga yetishini o'ylamayotgan edi. U radioda to'rt yil birga ishlagan, frontda jag'ini oskolka maydalab tashlagan do'stini esladi. U nihoyatda xunuk bo'lib ketgan, og'zidan hamma vaqt badbo'y hid kelib turardi. O'lmas uni eslab seskanib ketdi.
Ov to'xtadi. O'lja bedanalarni yig'ib kelib paqirda vaqirlab qaynab turgan suvga botirib patlarini yula boshladilar. Vodi yigitlari didi baland pazanda bo'lardilar. Ular yalang'och bedanalarni bir pasda tozalab, peshnob bilan ilikdek po'st dumba qiymasiga ko'k kashnich, ariq bo'ylaridan terib kelingan yalpiz, zira, zirk, jambil qo'sha boshladilar. Ular bu masalliqni ertalaboq uyda tayyorlab tog'orada olib kelgan edilar. Shularni bedanalar ichiga joylab, qorinlarini ip bilan chatib dog'langan yog'da qizartirib oldilar. Keyin boshqa qozonga bosib ustiga ko'pgina sersuv pomidorni katta-katta bo'lak qilib terib chikdilar. Qizil sabzi, sarimsoq piyoz, qizil lavlagi, juda ham yupqa parraklangan ancha-gina oq piyozni chiroyli qilib terib qo'ydilar. Ana shundan keyin damtovoq zichlab yopib qo'yildi.
Falokati arigan O'lmas tamoman o'ziga keldi. Ayniqsa Adham "bir piyolagina" ichirib qo'ygandan keyin chordona qurib, gapga tushib ketdi.
- Oriyat qilib chidab turdim. Yelkada jon qolmagan. Qo'l tegizsam o'liqning badaniga o'xshab muzdek-karaxt. Xayolimga nimalar kelmadi, deysiz. Gangrenaga - qora-songa aylanib ketsa nima bo'ladi? Albatta qo'limni yel-kam aralash kesadilar. Endi qo'lsiz yurishimni o'ylab xafa bo'lib ketdim. Adham aka araq bilan ishqab, kuchlarining boricha qattiq-qattiq uqalaganlaridan keyin qoni qochgan puchak tomirlarimga jim-jim qilib yana qon qaytib kelayotganiyi, o'lay agar, aniq sezib turdim. Sizga ming rahmat, Adham aka! Endi sizdan umrbod minnatdor bo'lib yashayman.
- Bu gapni qo'y, - dedi Adham. - Arag'imni to'laysan. Tishimning kavagida asrab yurgan arag'im edi. To'laysan-a?
- Bo'пти, besh barobar qilib to'laganim bo'lsin, - dedi kulib O'lmas.
Uning kulgisi endi o'ziga yarashdi.
Bu kulgi tani darddan forig' bo'lgan odamning kulgisi edi.
Pazanda yigit yig'ma stolga dasturxon yozib bir likopchada anchagina "ko'ksomsa" ko'yar ekan, bedana do'lma pishguncha ermak qilib turinglar, "ko'k somsa" ishtahani ochadi, - dedi.
- Ko'p yeb qo'ymanglar, bedanaga ham joy qolsin b'В"deb ogohlantirdi.
Avvalgi kuni Beshariqqa kiraverishdagi choyxonada samovarchi O'lmasga isiriq tutatganida:
- Ko'z tegmasin, xushro'y yigit ekansiz, - deb xokandozni boshidan uch marta aylantirgan, "Yomon ko'zdan asrasin, bunaqa husnini xudoyim har kimga ham beravermaydi, suygan bandasiga beradi. Bu zaifona chiroy emas, mardona chiroy", degan edi.
Bugun "hasadgo'y" takdir shu mardona chiroyni kemtik qilmoqchi bo'ldi. Ammo eplolmadi.

* * *

"Katta" Anvarjondan boshqa yana to'rt farzand ko'rgan. O'rtancha o'g'li Muxtorali yuvosh, qo'li gul duradgor bo'ldi. Poytesha chopkanda to'sinning betini oyna qilib yuboradi. Atrof qishloqlardagi imorat qurdiradiganlar albatta Muxtoralini tanlaydilar. U imoratning poydevoridan tomigacha hamma yog'och ishlarini o'zi bajaradi. "Katta" choyxonalarda jo'ralariga hasrat qilib qoladi. Muxtoralini uylaganimga mana to'rt yil bo'lay deyapti, endi uchta bolali bo'ldi. Bolasi ko'paymaganiga diqqat bo'lyapman... Jo'ralar kulishadi.
- Muncha besabsiz, mulla Muqim. Odam bolasi quyon emas-ku! Yiliga o'n-o'n beshtadan tug'sa. Musulmonchilik ham asta-astada. Hali qarab turing, eshingiz bolaga to'lib ketadi. Hazrat Muqimiyning tupuklari kuchini ko'rsatadi.
"Katta"ning yuzi burishib seskandi.
- O'sha voqeani o'ylasam ichimda mikrobg'imirlayotganga o'xshayveradi. Befarzand odamning tupugi... E, qo'yingge! Chillali bola guldanda nozik bo'ladi deb o'ylashmaganini qarang. Bola ko'paytirish bunaqa bo'lmaydi-da. Mana, to'ng'ichim Anvarjonni olaylik. Tupuk aralashmasdan yetti bolaga ota bo'ldi. Bunaqa ketishda ha-hu, deguncha bolani o'ntaga yetkazib qo'yadi. Kenjam Hamroali erkarog, subutsizroq chikdi. O'qishga ham, ishga ham bo'yin bermadi.
"Katta" fe'lda, qilar ishda otasi Nishon boboga tortdi. Bir ish qiladigan bo'lsa yetti o'lchab bir kesardi. Foydasi qanchayu ziyoni qancha, aql toroziga solib ko'rardi. Foyda bermaydigan ishni ish demasdi. "Katta" uzoq yillar maktab direktori, kolxoz buxgalteri, iqtisodchisi, kolxoz raisi bo'ldi. U mana shu lavozimda ishlagan paytlarda kolxozga yulg'ichlarni yo'latmadi. Jamoat "noni"ni o'zi ham yemadi, birovga ham yedirmadi. Uyiga kolxozdan aqalli bitta piyoz ko'tarib kelmadi. Bumayram eriga hasratini to'kib soldi:
- Otangiz qandoq ovqat chiqarsalar shuni yeyishga majburmiz. O'zingiz bilasiz, o'g'il bola kuchli ovqat yeyishi kerak. Bo'lmasa katta bo'lganda mijg'ov, nimjon bo'lib qoladi. Har kuni bir xil ovqat chiqarishadi. Bolalar bunaqa bemaza ovqatni yemaymiz, deb kun botmay och-naxor yotib qolishadi. Ularga qarab ichim achishib ketyapti. Ana, chiqargan ovqatlarini bir ko'ring.
Anvarjon ustiga lagan bostirilgan tog'orani ochib qaradi. To'rttagina jazi bor, non bilan kartoshka qorishtirib dimlangan "non-palov".

- Bolalar unga qayrilib qarashmadi ham. Teskari qarab yotib olishdi. O'zimni aytmay qo'yaqolay. Xotin kishining birovga aytib bo'lmaydigan xarjlari bo'ladi. To'rt tiyinlik narsa. Shuni ham aptekadan nasiyaga olaman. Sobesdan bolalar uchun beriladigan nafaqani pochta "Katta"ning qo'llariga berib ketadi. O'zim tiyinga zor bo'lib qolaveraman. Turaqoling, dadasi, guzarga chiqib nasiyaga bo'lsa ham go'sht topib keling. Yo'lakay ovsinim To'xtanisani aytib yuboring, harqalay xotin kishi, yonimda bo'lsin. Anvarjonning yo'l puli xarjlanmay yonida qolgandi. Oltiariqli tanishi mashinasida olib kelgan, uni Yaypanga tashlab o'zi Bag'dod tomonga o'tib ketgan edi. Anvarjon xalta ko'tarib guzarga chiqib ketayotganda oftob hali ham o'chmagan, endigina teraklar orqasiga o'tib qizarib-bo'zarib botmoqchi bo'lib turardi. Ko'cha to'la bola. Ular kechki ovqatni to'yib yeb, "hazmi taom"ga bir-birlarini quvlab, shovqin-suron bilan ko'chani boshlariga ko'tarib yugurishardi.

"Katta"ning nevara-evaralari esa ko'zlarini ocholmay bemajol yotishibdi.

Cholni vahm bosdi. U tong saharda o'n-o'nbeshta issiq nonni qiyiqqa tugib, Muxtoralining xotini To'xtaxonni ergashtirib kirdi. Kechasi bilan to'lg'anib chiqqan "Katta" necha marta uyg'onib, necha marta yotdi. Xudoyo shu sabablarga o'zing shifo ber, deb iltijolar qildi. U tagida o't lovullab yonayotgan qozonni o'rab turgan bolalarni ko'rib, "xayriyat-e, xayriyat-e", deb ularga yaqin bordi.

Sahar payti Anvarjon tomorqadan tanlab, tanlab jo'xori qayirib chiqqan edi. Bolalar qozonda so'tasi bilan vaqirlab qaynayotgan jo'xorilarga qarab qachon pishadi deb turishardi. "Katta" biri ishtonli, biri ishtonsiz bolalarning bittasini qo'ltig'idan olib ko'tardi. Osmonga irg'itib, ha, cho'chog'ingdan, ha, dingiringdan, deb zavq bilan qiyqirib kuldi.

Bola pardek yengil edi.

- Bumayram, - dedi u hamon quvnoq kayfidan tushmay. - Buning muncha yengil, - dedi inqillab o'tirgan keliniga.

- Og'irligi sizning cho'ntagingizda-ku, - dedi joni og'rib turgan Bumayram.

Hech qachon gapni javobsiz qoldirmaydigan so'zamol cholning tili tanglayiga yopishib lom-mim deyolmay qoldi.

U kecha kechqurun bolalardan xabar olgani kirgan edi. Ular ayvonda "to'ybola"lardek shiftga tikilib qator yotishipti. Belini shol ro'mol bilan sirib olgan kelini ayvon dahanida inqillab o'tiripti.

Bolalar "Katta"ning ko'ziga ozib qolgandek, yuzlari so'lg'in bir alpozda ko'rindi. Uni vahm bosdi. Bolalar ilgari ham shunaqamidi? Shu paytgacha e'tibor bermaganini uchun o'zini o'zi koyidi.

- Nima ovqat yedirgan eding? Aynigan ovqat yedirib qo'ymaganmiding?

- Hech narsa yeyishgani yo'q. Och-nahor yotishibdi. Siz chiqqan ovqatni ko'rib "Bunaqa bemaza ovqatni yemaymiz" deb yotib olishgan. O'g'lingizni nasiyaga bo'lsa ham go'sht topib keling, deb guzarga chiqarib yubordim.

"Katta"ning jahli chiqib ketdi.

- Narigi eshikda go'sht borligini bilarding-ku, nega menga bir og'iz aytmading?

Bu gapdan Bumayramning ensasi qotdi.

- Aytmay qo'yaqoldim. Aytganim bilan bari bir bermasdingiz.

Chol iya, iya, eri kelib, tili chiqib qopti-ku, dedi ichida. Keyin o'ziga kelib, "jonidan o'tkandan keyin tili chiqadi-da", deb yubordi.

"Katta"ning bu gapni aytishga undagan ichida bo'g'ilib yotgan odillik deb atalgan qaysar bir kuchning qalqib yuzaga chiqqanidan, sado berganidan edi.

U nevaralarining ancha so'lib qolganini ham endi ko'ryapti. Shu paytgacha ko'zing qayokda edi, deb o'zini so'roqqa tutolmadi.

Hozir u o'zini o'zi juda ham yomon ko'rib ketdi.

Norasta bolalar xisobiga "tejamkorlik" qilganini, shularning sog'lig'ini yemiradigan "iqtisodiy siyosat" yurgizganini qanchalik achchiq, qanchalik alamli bo'lmasin tan olishga majbur edi.

"Voh!" dedi peshonasiga shapillatib urarkan. Shuncha nevara-evaralarimning qo'lida aqalli bitta qo'g'irchoq, bitta o'yinchoq ko'rmabman-a! Boshqalarning hovlisi o'yinchoqlarga to'lib ketgan. Qaysi eshikka kirsang katta-kichik velosipedlar, samokatlar, tepkili mashinalar, yotqizsang inga-inga qiladigan, yonboshlatsang ko'zini yumadigan qo'g'irchoqlar, burab-burab qo'yib yuborsang, hovlining odog'igacha guvillab boradigan jajji avtomobillar, har yer, har yerda sochilib yotkan shaxmat, shashka, domino toshlari...

- Pul sarf bo'ladi, deb bolalarimni shu quvonchdan ham benasib qilibman-a!

"Katta" keyingi kunlarda ancha kuchdan qolgan, har ikki qadamda to'xtab nafasini rostlab olar edi. Mana, hozir u inqillab og'irgina to'rva ko'tarib kirdi. Bolalarning o'rnini yig'ib, ular ivirsitgan polosni supurayotgan qizaloqqa, bo'ldingmi, bolam, tez-tez qimirla. Narigi eshikka bor, bu yerda qiz bola qiladigan ish qolmadi, dedi.

Shu payt qushdek yengil bir kampirni yetaklab olib kirishdi. U "Katta"ning xotini Oynisa bibi edi. Uni kagtayi kichik Ena deb atardi.

Ena ham ayvonga chiqib o'tirdi. Rang-ro'yi o'chkan, tinmay inqillayotkan keliniga qaradi. Uning ahvolini ko'rib achinib ketdi.

Bumayramning ahvoli og'ir edi. Erkak odam xotin kishining dardini bilarmidi. Unga atala qilib ichirish kerak. "Menga gapinglar bo'lmasa atalaga urinaqolay", dedi Ena.

U shunday deb ichkaridan bir paket un olib chiqib tapillatib supraga elay boshladi.

Ena un elayturib keliniga tez-tez qarab qo'yar, sho'rginang qursin, Bumayram, kelin bo'lib biron kun ro'shnolik ko'rmading-a. Shu axvolda o'lib netib ketsang shuncha bola chirqillab qolishini o'yladingmi? Yangi bo'shangan xotinning loaqal uch-to'rt kun yotmay ishga urinib ketishi, och-naxor qolishi o'lim bilan barobarligini naxot bilmasding? Bunaqada bepusht bo'lib qolishingni ham bilmasmiding, deb ich-ichidan unga achinardi.

"Katta"ning shu payt yangi bo'shangan chillali xotinni boshiga odam to'plashga balo bormi? O'zi bu cholga nima bo'lgan? Uch-to'rt kundani beri xushi o'zida emas. Saharlab turib olib ayvon dahanida haq, deb o'y-o'ylab o'tirib oladi. Qayoqqadir chiqib ketadi.

Kechgacha sanqib, charchab kaytib keladi. Ichkari uyga kirib chiroq yoqib pul sanaydi. Yana chiqib ketadi. Ro'zg'orxonaning kalitini tashlab ketmaganidan qozon osolmay kutib o'tiramiz.

Oxirat ko'ziga ko'rinyaptimikin?

- Bumayram, To'xtaniso, sen ham menga yaqinroq o'tir. Hoy, Ena, sen ham kel.

Ena o'tirgan joyida: - Aytavering gapingizni, qulog'im kar emas, xammasini eshitib o'tiribman, - dedi.

Keyingi kunlarda "Katta"ning Ena oldida obro'si qolmagandek edi. U eriga shart-shart gapirar, ba'zan uning og'iz ochishiga ham qo'ymay, siltab tashlardi.

Bunga sabab, eshikda to'y qozonida xar kuni "non palov" damlanishi-yu, kattayu kichik shu "ovqat"ni yeyishga majbur bo'lishi edi. Ena yetmishning nariyog'iga o'tgan, tamsiz, jirsiz taomdan sillasi qurib, o'z tili bilan aytganda, "o'lar xolatga" yetgan, kuch-

quvvatdan qolgan xotin edi.

- Baqqa kel. O'tir, sen ham eshit, - dedi "Katta" zarda bilan.

Ena "maylis" ham o'lsin shu paytda bo'lmay, raislik otidan tushganingizga necha yil bo'ldi? Hali xam egarda qo'nqayib o'tiribsiz, deb qo'ydi g'udirsini. U javray-javray Bumayramning yoniga kelib o'tirdi.

- Ko'p ta'na qilaverma, xotin. Endi egardan butunlay tushdim.

U har xil, katta-kichik tugunlarga to'lgan to'rvani titkilab, kichikroq bir tugunchani oldi.

- Manavu sening pensiya pullaring. Pochtachi qandoq olib kelgan bo'lsa, o'shandoq turipti: Tiyniga xam tegmaganman.

U tugunchani Ena oldiga zarda bilan tashladi. Unga boshqa gap aytmadi.

"Katta" titkilab ikkita katta tugunni to'rvadan chiqazdi.

- Bu Muxtorali bolaginamning xappayi-halol puli. Baraka topkur, yotib yesa tamom bo'lmaydigan pul topgan. Hunar, hunardan unar, deydilar. Hozir ham bolaginam "Bibi Ubayda"da, zagotzernoning pajarnigi Luqmonbekning eshigida yotib ishlayapti. Olib qo'y, To'xtaniso!

U xaltadan olgan xom g'ishtdek og'ir, to'rt burchak tugunni Bumayram tomon surib qo'ydi. Keyin yana to'rvani titib, kichikroq tugunchak oldi.

- Anavu katta, og'ir tugun Anvarjonning o'n besh yilda topgan pullari. Kichigi bolalaring uchun sobes yuborgan nafaqa pullar...

"Katta" manavu senga, manavu unga, deb oxiri xaltani bo'shatdi.

- Shu paytgacha sizlarni o'z pensiya pulimga boqdim. Kuchdan qolgan cholning topgani "non palov"ga zo'rg'a yetardi. Endi bundan buyoq qozon-tovog'ingizni bo'lak qildim. Meni yiqqan-tergan pulim yo'q. Ko'zim yumilganda o'rab-chirmab, makonimga oborib qo'ysanglar, bas. Faqat bitta iltimosim bor. Shu iltimosim bajo bo'lmasa, go'rimda tinch yotolmayman. Tentakkinam Hamroalini topib kelib, issiq-sovug'idan xabar olib turinglar. Tashlab qo'ymanglar...

Anvarjon go'sht olgani chiqqanda qassob bir gap aytgandi:

- Otangga nima bo'lgan, kim ko'rinsa sendan qarzimiz yo'qmi, qiyomat qarz bo'ynimda ketmasin, deb rozi-rizolik tilab yuripti?

Anvarjon yerdan bosh ko'tarib ota yuziga qaradi. U bola bo'lib umrida birinchi marta ota yuziga qarashi edi. Ota ko'zida yosh ko'rib, g'alati bo'lib ketdi. O'rnidan turib uning bo'yniga osilgisi keldi.

- Bolam, - dedi "Katta", - gaplarimga yaxshilab quloq sol. Biz bir xonadon uch xil odam bo'lib yashadik. Otam rahmatli Nishon bobo irim-sirimlarga mukkasidan ketgan omi odam edi. Men shafqatsiz, zolim ota bo'ldim. Sen itoatkor, jur'atsiz, zabun bola bo'lding. Sening shunaqa bo'lishingga men, mening shunaqa bo'lishimga otam Mulla Nishon sababchi bo'lgan.

U o'g'liga ta'nali qarash qildi.

- Gapirsangchi, zaboning bormi, gapir! Ichingda armonlaring bordir, axir? Ayt, dardingni, to'kib sol!

- Men Toshkentga juda katta niyatlar bilan borgan edim. Ustozlar, sendan katta yozuvchi chiqadi, deb bag'irlariga olgan edilar.

Siz, har oyda palon so'mdan yuborib tursang Toshkentga borasan, yo'q desang, Olchinda yozuvchilik qilib yuraverasan, deb shart qo'ygan edingiz. Siz talab qilgan pulni Toshkentdek shahri azimda bir musofir bolaning topishi mumkin emasdi. Shunga qaramay, ishdan bo'sh vaqtlarda vokzalga chiqib hammollik qildim. Mardikor bozoriga ham bir-ikki marta chiqdim. Mardikor yollovchilar rangimni, jussamni ko'rib yonimdan indamay o'tib ketardilar. Idorada hushdan ketib qolgan paytlarim ham bo'lgan. Shunday mehribon, buyuk istiqbol va'da qilgan ustozlarning yuziga oyoq qo'yib, Olchinga qaytib keldim. Sizning pulga o'chlingingiz, pulga to'ymasligingiz mening kelajagimga zavor bo'ldi. Siz uchun "Olchin" bir mamlakat edi.

Men hatto mahalliy ham emas, faqat mahalla yozuvchisi bo'lib qolayotganimdan ezilib ketaman. Birga ishlagan, ustozlardan birga saboq olgan o'rtoqlarim hozir nomdor yozuvchi bo'lib ketishdi. Bir-ikkitasi "Xalq yozuvchisi" degan katta unvon egasi bo'ldi. Siz meni mana shu baxtdan benasib qilgan otamsiz...

Endi "Katta"ning boshi egildi. Yelkalari qattiq-qattiq silkindi. Yerga ikki tomchi ko'zyoshi tushdi.

- Men ahmoq, rizqingizni qiyib pul yig'ibman. Shunday qilsam o'lib ketganimda bolalarim kuniga yaratadi, deb o'ylabman.

Bumayram, sen dono xotinsan, kecha aytgan gaping o'la-o'lgunimcha qulog'imdan ketmaydi.

Bumayram, nima degan ekanman, deb unga savol nazari bilan qaradi.

- Go'dakligida to'yib ovqat yemagan o'g'il bolalar katta bo'lganda nimjon, qiltiriq, lanj, og'ir ishga yaramaydigan bo'lib qoladi, deganding.

U shunday deyaturib Anvarjonga bir qarab qo'ydi.

Bu qarashning ma'nosini Enasi ham, Bumayram ham, hatto Anvarjonning o'zi ham tushundi. Noqulay vaziyatdan qutulish uchun peshonasini siladi.

- Endi pul yig'ishning hojati yo'q. Bolalar katta bo'lib qolishdi. Birin-ketin o'z yo'llarini o'zlari topib ketishyapti. Katta eshigimizdagi tomorqaning kunbotar tomonga ikki yuzta terak qalamchasini qadagan edim. Yetti yilda yo'g'onligi filning sonidek bo'ldi. Xudo xohlasa, bu teraklar sizlarni kamida yigirma yil boqadi. Har kesganda tagidan yana chiqaveradi. O'shalarni parvarish qilinsa, yonidan chiqqan bachki shoxlarini kertib turilsa, bas. Bumayram, sen uyim-joyim deydigan yaxshi kelin chikding. Shu bo'sh-bayov bolamni senga ishonib tashlab ketaman. Sendan roziman, bolam.

Bugun hamma nevara-evaralarimni Qo'qonga oborib, kabobga to'ydiraman. Uyinchoqlar, qo'g'irchoqlar, muzqaymoqlar, ust-boshlar, har xil lentalar, burab qo'yib yuborsa gurillab yugurib ketadigan avtomobillar, velosipedlar, shaxmat-shashkalar, dominolar, portfellar, qiziq-qiziq kitoblar, bo'yoq qalamlar olib beraman. Bu men zolimning shu paytgacha to'yib-to'yib, to'kib-sochib ovqat yemagan norastalardan kechirim so'raganim bo'ladi. Yo'q, bunaqa gunohni kechirim so'rash bilan yuvib bo'lmaydi. Mabodo shulardan bironnisi nogiron bo'lib qolsa, go'rimga o't qo'yib yuboringlar. Shunda ko'ngillaring zora taskin topsa.

U o'rnidan turib, bo'shab qolgan to'rvani ehtiyot-shart bir silqib ko'rdi. Keyin uni oyog'i tagiga tashladi.

- Yelkamdan bosib yotgan yuk, xayriyat, yerga tushdi. Endi qushdek yengil bo'ldim.

"Katta" ko'cha eshigi tomon ketayotganda bosgan qadami mo'ljalga tushmay mast odamdek chayqala boshladi. U orqasiga qaramay dedi:

- Soat ikkilarda katta eshikka avtobus keladi. Bolalarni kiyintirib tayyor qilib qo'yinglar.

* * *

Erkin Vohidov Oltiariq markazidagi mahallada tug'ilgan. Qarindoshlari bilan yuz ko'rishsin, deb Adham urug'lariga xabar qilib qo'ygan ekan. Bir pasda uni urug'-aymoqlari o'rab olishdi.

Erkin ilgari ham Oltiariqqa bir-ikki marta kelgan, chet el shoirlari delegatsiyasini boshlab kelganidan fursat topolmay urug'lari

bilan ko'risholmagan edi.

Boshiga nimchami, ro'molmi, lachakmi yelvagay tashlab olgan xotinlar qator eshiklardan yugurib chiqib, uning yelkasiga ikkala panjalarini tegizib omonliq, deb yuzlariga surta boshladilar.

Xotinlar biri olib-biri qo'yib gapga tushib ketishdi.

- Domla Vohidovning xuddi o'zlari bo'пти-qo'yiпти. Bola degan otaga shunchalik o'xshaydimi-ya!

Xotinlarning biri xuddi tog'amning o'zlarini ko'rgandek bo'ldim, desa, yana biri akaginamni ko'rgandek bo'ldim, deyardi.

Rais Fayzimatovning imosi bilan beshta skameyka, uchta stol olib kelishdi. Xotinlar topgan-tutgan pishiriqlarini dasturxoniga to'kib soldilar. Xotinlarning g'ala-g'ovuridan kim nima deyatog'ganini bilib bo'lmasdi.

- byog'ining tagiga manavu jonliqni so'yinglar, в Ё” dedi Oltiariqning pichog'i keskir vallomat fuqarosi Mamatoji Ibrohimov.

U bir qora qo'chqorni dumbasidan itarib davraga kiritib yubordi.

Qo'chqorni sudrab Erkinning oyog'i tagiga olib kelishdi. Qassob, qani, shoir tog'a, bir nima devoring, dedi.

Xijolat bo'lib turgan Erkin menga qaradi.

- Domlamiz shatta turganlarida men gapirsam odobsizlik bo'lmasmikin, - dedi 6u izzat-ikromlardan hayajonga tushgan Erkin.

Bu nima deyarkin, deb hamma og'zimga qarab turipti.

- Ey, qo'chqorvoy, - dedim nasihatga o'xshatib. в Ё” Shuncha xalq o'rtasida buyuk bir shoirning oyog'i tagida jon berayotganingdan suyunmaysanmi? Raismi, revizormi, ferma mudirimi ko'zdan panada so'yib kabob qilib yeb yuborsa xursand bo'larmiding?

Baxting bor ekan, ko'chqorvoy, sendan tarqagan avlodning, otamiz o'zbek adabiyotining rivojiga jonini tikkan fidoyi qo'chqor edi, shoir Erkin Vohidovning oyog'i tagida jon bergan, deb maqtanib yurishadi...

Bu gapimdan keyin odamlar qarsillab kulib yuborishdi. Faqat bo'yni yog' bitib, qavat-qavat bo'lib ketgan kishi, hazil ham evi bilan-da, deb to'ng'illab davradan chiqib ketdi. Kimdir, "Ferma mudirini yasab tashladingiz! Ammo yapishtirdingiz, aka!" deb yubordi. Anchagacha kulgi bosilmay turdi.

Adham yelib-yugurib xizmat qilyapti. U turgan-bitgani faqat burundan iborat bo'lgan bir kishini dasturxonning to'riga o'tkazib qo'ydi. Yo alhazar, bunaqa burunni umrim bino bo'lib ko'rmagan edim. Ko'ylak yoqasidan yuqorisining hammasi burun edi. U har aksa urganda zalvorli burni silkinib og'zini surib qoq miyasiga chiqarib yuborar ekan. Odamlarning aytishlariga qaraganda og'zi qimirlashini ko'rish uchun tomga chiqib qarash kerak emish.

U ko'p askiyalarga nishon bo'laverib, hazil-huzullarga ko'nikib ketgan bir beozor odam ekan. Shunday davralarda unga hazil qilmasalar ko'ngli o'ksib, nima bo'ldi, nazardan qolyapmanmi, deb xafa bo'larkan.

Shu odam Oltiariq imomiga meni ham hajga boradiganlar ro'yxatiga qo'shib qo'ying, deb iltimos qilganda, u: "Siz ovora bo'lib borib yurmang, shaytonga tosh otayotganlarida dimog'ingizga tegib shikastlab qo'yigan mumkin, yaxshisi sizni "Hoji badal" qilaylik, deпти. Imom gapida turib haj safaridan qaytishda "Hoji badal" bo'ldingiz, degan xushxabar bilan birga hujjatini ham olib kelgan ekan.

Oltiariqliklar burun so'zini og'zilariga ham olmasdilar. Ular burunni "Dimog'", "O'g'il sumak", "Damskiy kabluk", "Pasport" deb atardilar.

Mamatoji Ibrohimovning o'g'li Qodirjon askiyaga chechan yigit edi. Shu topda tili qichib-shumligi tutdi.

- Erkin aka, o'zimizning Oltiariqdan chiqqan bolasiz. Muncha dimog'firoq qilasz. Dimog'ingizdan eshak qurti tushadi-ya! - deb yubordi.

Men darrov javob qildim.

- Qodirjon, eshak qurti tushsa nima bo'пти. Aytishga arzimaydigan gap bu. Ana, ustoz Hoji otaga qarang, dimog'laridan egaak qurti emas, tayyor tirik egaakning o'zi hangrab tugaib kelyapti, - dedim.

Qiyqiriq kulgi qarsaklarga ulanib ketdi.

Oltiariqliklar "puchuq" deb nazarga ilmagan, O'lmas Umarbekov, Umarali Normatov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Eshonovlar qatorida o'tirgan O'tkir Hoshimovga g'apga kelgan mezbondan biri, hoy, bu beodob kimning bolasi, deb uni poygakda turgan bolalar qatoriga oborib qo'ygan edi. O'tkir yana joyiga kelib o'tirdi. Jahli chiqib ketgan mezbon kelib uning qo'lidan tortmoqchi bo'lib turganda to'xtatdim.

- Bilasizmi, bu kim? Bu O'tkir Hoshimov degan zo'r yozuvchimiz-ku, tanimadingizmi?

Mezbon gapimga ishonib-ishonmay dovdirab qoldi.

Bir xotin xokandozda tutuni buralib-buralib chiqayotgan isiriq olib keldi. Hammamizga bir-bir tutatib, O'lmasga kelganda xokandozni uning boshidan uch marta aylantirdi.

- Xushro'ygina yigit ekansiz. Oltiariq ayollarining ko'ziga duo ketgan, tikilganini yiqitadi. Uni faqat isiriq-ispand tutatib daf qilish mumkin, - dedi kulib.

Qator tizilib turgan bolalar orasida burnini ko'rgazmaga qo'yib ko'z-ko'z qilsa arziydigan, xunuk desa xunuklar ranjiydigan bir bola katta yozuvchilarga havas bilan qarab turardi.

Men uni tanirdim. U Toshkentga borganda menga hajviy she'rilarini, hikoyalarini o'qib bergan edi. Ushundayoq bo'ladigan bola ekanini sezgandim. Agar yo'ldan toymasa, juda zo'r shoir hamda didli-farosatli nosir bo'lib ketishi bilinib turgan edi. Faqat, faqat husn masalasi porloq kelajagiga soya tashlab turardi. Bunday talantlar xunuk bo'lib tug'iladilar va chiroyli bo'lib tarixda qoladilar, dedim.

Xotinlar Erkinni tug'ilgan, ona bag'rida birinchi marta ko'z ochib olamni ko'rgan xonaga opkirib ketishdi. Ancha hayallab ketgan Erkin ko'zlari qizarib xomush qaytib chikdi.

Maslahat bilan uchrashuvni temiryo'l naryog'idagi tinchgina bog'da o'tkazadigan bo'ldik.

Hozir pilla qurti dahaga kirgan, qancha barg bersang ko'rdim demaydi. Oltiariq butun O'zbekistondagi nomdor tumanlardan biri.

Hamma vaqt oldinda yurishga odatlangan. Qishloq xo'jaligi vaziri Urkinboyev ot minib tutzorlarni oralaydi. Qurt boqayotgan xonadonlarga kirib, uni undoq qil, buni bundoq qil, deb ko'rsatma beradi.

Bodringlar naychalab qolgan. O'z ishiga omil uzumchilar valishlarga "ingichka bel" novdalarini ko'taryaptilar. Old g'o'zalar yaganaga kirgan, ola joylarga maxsus kog'oz stakanda tayyorlagan ko'chatlarni qo'yib chiqishyapti.

Xullas, tumanda inqillab qolgan kampirlaru hali yo'lga kirmagan go'daklargina "bekorchi" edilar.

Shundoq ish qizigan paytda tuman markazida odam yig'ib uchrashuv qilish ta'nayi malomatlarga sabab bo'lishi mumkin edi.

Temir yo'lning u tomonida bitta dala shiyponidan boshqa bironta odam yashaydigan uy yo'q. Biz jimjit deb tanlagan joyda o'tirgan odamning qulog'i shovqindan tom bitadi.

Qari tollar qurshovidagi xovuzda biri-biriga mingashgan son-sanoqsiz baqalar butun dalani boshlariga ko'tarib "sayrardilar". Hovuz xuddi qaynayotgan qozonga o'xshardi. Bu chidab bo'lmas shovqindan faqat qochibgina qutulish mumkin edi. Mototsikl minib kelgan muxbir yigit, menda baliq tutadigan to'r bor, baqalarni tutib uzoqroq joyga oborib tashlaymi, deb qoldi. Shu payt Adham hasipga tozalangan ikki karichdan mo'lroq puflab shishirilgan ichak olib keldi. Uni chayqalib turgan suvga tashlab kafti bilan suvni surib o'rtaga hayday boshladi. Baqalar birdan jimib kolishdi. Kimdir tinimsiz shang'illab turgan radioni o'chirib qo'ygandek bo'ldi.

Hammayoq suv quygandek jimjit bo'ldi-qoldi.

- Tamom, - dedi Adham. - To ichakni olib tashlamagunimcha miq etmay o'tiraverishadi, bu muttahamlar.

Yetmish kishiga mo'ljalab joy qilingan. Adabiyot o'qituvchilari, o'ninchi, o'n birinchi sinflarda o'qiydigan adabiyotga qiziqqan o'g'il-qizlar, tuman gazetasida she'rlari, hikoyachalari bosilib turadigan yosh yozuvchilar chaqirilgan ekan.

Uzoq brigadalarga odam olib boradigan usti yarim yopiq mashina yigirma chog'li qizni xuddi konservadek qapishtirib olib keldi. Egarqosh qilib o'sma qo'ygan, mayda o'rilgan uzun sochini burab-burab qilgan turmaklarini zar ro'mol bilan tang'ib olgan qizlar mashinadan tap-tap qilib yerga sakrab tusha boshladilar.

Ularning pardozi uchun oyna oldida anchagina ovora bo'lganlari bilinib turardi. Mashinada qapishib kelganlaridan ba'zilarining turmaklari to'zg'ib, pardozlari chaplashib ketgan. Mashina ketishi bilan ular tolzor orqasiga o'tib, boshqatdan pardozi qila boshladilar. Yechilib, to'zg'ib ketgan o'rim sochlar yana turmak bo'lib boshga qo'ndi.

Birov mashinada, birov velosipedda, birov piyoda kelyapti.

Tuflisini qo'lga olib yalangoyoq tuproq kechib kelgan bir qiz odamlarga orqa o'girib cho'nqaygancha ariqda oyog'ini yuvyapti. U tuflisini kiyib biz tomonga o'girildi. O'lmas uni ko'rib "obbo!" deb yubordi.

Bu Quvadagi uchrashuvda, birga suvratga tushaylik, deb O'lmasni jon-holiga qo'ymagan Ra'no-Ro'no' edi. Uni ko'rib hammamiz barobar kulib yubordik. Bizga qo'shilib "Ro'no'"ning o'zi ham kulardi.

Uchrashuvdan xabar topgan adabiyot ixlosmandlari Namangan, Andijon taraflardan "Jiguli"da, "Moskvich"da yetib kelgan edilar.

Bir ashaddiy kitobxon Norindan shu bugun ertalab tutgan oltmish kilo keladigan laqqani ikkita ho'l qanorga o'rab, "Moskvich" yukxonasida olib kelgan ekan. U yo'l-yo'lakay qanor-qopga suv sepib kelgan bo'lsa kerak, yukxonadan hali ham chakillab suv tomyapti. Laqqani uch kishi zo'rg'a ko'tarib hovuzga tashlashdi. Holdan toygan lakka suv betida to'ntarilib o'likdek yotardi. U sal fursatdan keyin qimiray boshladi. Keyin o'nglanib dumini likillatganicha hovuz o'rtasiga suzib ketdi.

Uchrashuv qatnashchilarining soni to'qsondan oshdi. Yanaoltita skameyka qo'yib ularni ham o'tqazdik.

Yig'ilishni viloyat vakili sifatida Adham Hamdam boshqaradigan bo'ldi. Men esa kelgan mehmonlarni bir-bir tanishtira boshladim:

- Mening yonimda o'tirgan O'tkir...

Shunday deyishimni bilaman, qizlar chuvillashib, vuy, vuy, O'tkir Hoshimov, deb o'rnilaridan turib ketishdi.

- "Baxor qaytmaydi"ni yozgan. Zo'r yozuvchi. Alimardonna boplagan... O'zi kichkinagina ekan. Vuy, hali uylanmagan bo'lsa kerak, juda yosh ekan. Bularga Navoiy bobodan meros, soqoli ko'ksiga tushguncha ham xotin olmaydi.

- Bilasizlarmi, qizlar, "Urushning so'nggi qurboni" asarini o'qib yig'layverib, bo'ladiganim bo'ldi. Juda og'ir, yuragi yomon odam o'qisa infarkt bo'lishi xech gap emas. O'qimagan bo'lsanglar, topib o'qinglar. O'tkir Hoshimov nihoyatda ayanchli voqeani qandoq chidab yozganiga aqlim yetmaydi. Bu yozuvchini "Atomniy yozuvchi" deb atash kerak. O'zi kichkina bo'lsa ham portlashi nihoyatda kuchli. Rahmat, O'tkir aka! Kechirasiz, aka deymi, uka deymi?

Qiz uni ta'riflashga so'z topolmay qiynalardi. Juda ko'p gaplarni aytgisi kelyapti-yu, hayajonda aytolmayapti.

Ko'yib bersa bu kitobxon qiz gapdan to'xtamaydigan ko'rinardi.

- Chap tomonimda o'tirgan Xudoyberdi To'xtaboyev, vB"dedim qizning gapini bo'lib.

Xudoyberdi ham bu tomonlarda juda mashhur ekan.

Qizlar, o'g'il bolalar "Sehrli qalpoqcha", "Besh bolali yigitcha", "Nomoz botir" deb biri olib, biri qo'yib, gapga tushib ketishdi.

- Kani endi, menda Hoshimjonning qalpo'gi bo'lsa, voy-bo', ko'p g'alati ishlarni qilib yuborardim.

Orqamga o'girilib, Anvarga qaradim.

- Bu Anvar Eshonov degan yozuvchi. Taniysizlarmi, tanimasanglar bir boshdan tanishtirib chiqay.

Bir qiz o'rnidan turdi.

- Men "Naymanbo'ston"dagi o'rta maktabda adabiyotdan dars beraman. Uch kundan beri viloyat gazetasida shu akamizning bir bet-bir betdan hikoyalari "Boshi o'tgan sonda, davomi kelgusi sonda" deb bosilyapti. Ikki sonda quvalik mashhur kolxoz raisi Musajon Sherbo'tayev, uning ilg'or xo'jaligi to'g'risida juda qiziq, juda o'qishli hikoyalari bosilgan edi. Endi o'zimizning qahramon raisimiz, hammamizning mehribon otaxonimiz Bozorboy Otaqulov to'g'risidagi hikoyalari davomli bo'lib bosila boshladi.

O'quvchilarimiz u yoqda qolib qishloqliklar gazeta so'rab kelaverishadi, kelaverishadi. Shuncha odamga qayokdan gazeta topib beraman. Odatda adabiy asar hayotda bo'lishi mumkin voqealarni hikoya qilardi. Ism-familiyasi aniq, ish joyi aniq, qishlog'i aniq odamlar to'g'risida birinchi marta hikoya o'qiyotganimiz uchun ham Anvar akamizning bu asarlariga qiziqqanlar ko'payib ketdi.

Direktorimiz Farg'onaga mashina yuborib, yigirmata gazeta toptirib keldi. Rahmat, Anvar aka. Shunaqa hikoyalarni ko'p-ko'p yozing. Sizga bu xayrli ishingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Qizning ichi to'lib turgan ekan, yayrab-yayrab gapirib oldi.

Navbat Umarali Normatovga keldi. Uni o'tirganlarga juda boloxonador kilib ta'riflay boshladim.

- O'rta Osiyo Davlat universitetining professori, filologiya fanlari doktori... Umarali Normatov, vB"dedim.

Umrida tirik professorni yaqindan ko'rmagan uchrashuv ahli xuddi hozirgina fazodan tushib, yerga qo'ngan kosmonavtga ro'para kelib qolgandek hayronu lol qarab turardilar.

Sochlari oqarib ketgan, ko'rinishidan ko'p savdolar boshiga tushgani bilinib turgan keksa o'qituvchi Risqiyev o'rnidan turdi. U elliginchi yillarning boshlarida "O'tkan kunlar" romani hamda Abdulla Qodiriy to'g'risida bolalarga gapirib bergani uchun yetti yilga kesilib, to'rt yilda qutulib kelgan edi. Uni bilimli, tajribali o'qituvchi sifatida tan olishardi.

Biroq, bayramlarda, o'qituvchilar kunida, G'alaba bay-ramida hamma o'qituvchilarga chiroyli konvertlarda zar bilan bitilgan tabriknomalar topshirishardi. Uni esa og'zaki tabriklab ko'ya qolishardi.

Maorif vazirining o'rinbosari Turobov Oltiariqqa kelganda vaqt topib Risqiyevga uchrashardi. Ikkovi uzoq suhbatlashar edilar. Turobov bu kelishida ham Risqiyevni surishtirdi.

- Yuripti, oyligiga yarasha ishlab, - deya javob qildi direktor.

- Hozir toptirib kelolmaysizmi? Kelishimni 6ilardingiz-ku, nega unga bir og'iz aytib qo'ymadingiz?

- O'zi shu yerda. Sport zalida daftar tekshirib o'tiripti. Hozir chaqiraman.

Turobov u bilan eski qadrdonlardek quchoq ochib ko'rishdi. Direktor ichida: "Bu Turobov xo'p yurak yutgan odam-da, tarjimai holiga siyosiy dog' tushgan odam bilan ko'pchilik o'rtasida hech kimdan hayiqmay gaplashishini qarang!" deb o'ylardi.

- Do'stim, - dedi u. - Endi boshingizni ko'tarib yuring. Sizni chin dildan tabriklayman. Bugungi "Xalq so'zi"da professor Umarali Normatovning Abdulla Qodiriy hamda uning asarlari to'g'risida juda chiroyli maqolasi bosilgan.

U papkasidan gazeta chiqarib unga uzatdi. Xalqimizning g'ururi bo'lgan Qodiriy va uning asarlari doimo kamsitilardi. Aslida esa ular o'zbek adabiyoti xazinasini boyitib turgan mumtoz asarlar ekanini yozadi professor.

Maqola oxirida tahririyat bundan keyin ham Qodiriy ijodi va uning o'lmas merosi to'g'risida turkum maqolalar rejalashtirganini yozgan.

- Qodiriyning to'la oqlanishi, bu sizning ham oqlanishingiz, ta'na-malomatlardan qutulishingiz, deb tushunaman. Sizni tabriklagani atayin kelganman. Viloyatda meni kutishayapti, - deb, tik turgancha bir piyola choyni shoshib ichdi-yu, xayrlashib iziga qaytdi.

Hozir Risqiyevning uchrashuvda puxta o'ylab, lekin hayajondan entikib-entikib aytayotgan gaplari umrida tuhmatga uchramagan, kamsitilish nimaligini bilmagan odamga unchalik ta'sir qilmasligi mumkin. Lekin, adabiyot bulog'idan bir qultum bo'lsa ham suv ichgan shoiru yozuvchilar uchun bu holat g'oyat ta'sirli edi.

- Qodiriy hamda "O'tkan kunlar" romani to'g'risidagi haqqoniy maqolalarigizda buyuk adibning shaxsi va ijodi tamoman oqlangan. Bu mening ham oqlanishim edi. Ana shundan keyin menga munosabat butunlay o'zgarib ketdi.

U hayajonlanganidan gaplari og'zidan bir tekis chiqmas, jumalari ham qovushmayotganini sezmasdi. Buni uchrashuv ahli sezib turardi.

- Tumanda, maorifda, kishloqda, maktabda bosh ko'tarib yurishimga yo'l ochib berganingiz uchun qulluq, professor! Men birovga sovg'a beradigan darajadagi odamlardan emasman. Qizim o'z qo'li bilan tikkan marg'ilonnusxa shu do'ppini aql to'la boshingiz omon bo'lsin, deb kiydirmoqchiman.

Umarali javdirab menga qaradi.

- Domla, - dedim d'ppi ushlab turgan Risqiyevga qarab. - Professorimiz umrida biron odamdan sovg'a olmagan. Lekin shu do'ppini oladi. U kishining uylariga turup, o'rikoqi, anor orqalab bola ergashtirib kelishadi. "Eti sizniki, suyagi bizniki, hozircha uyingizda xizmatigizni qilib yursin", deb bolani tashlab ketmoqchi bo'lishadi. Professor ularning bolamni o'qishga o'zing kiritib qo'y, demoqchiligini darrov tushunadi. Qoplarni o'zlariga orqalatib, ko'chaga chiqarib qo'yadi. Qaytib kirmasin, deb eshikni ichidan zanjirlab qo'yadi. Eshik qo'ng'irog'i to'kechgacha jiringlab, oxiri qorong'i tushganda tinchiydi.

Keksa o'qituvchi ixlos bilan uning boshiga do'ppi kiy-dirar ekan, entikib-entikib shu gaplarni aytdi:

- Rahmat, rahmat, el oldida yuzimni yorug' qilganingiz uchun rahmat.

O' ko'z milklarini dastro'mol bilan artib, joyiga borib o'tirdi.

O'rta yoshlardagi ko'zoynakli bir ayol qo'l ko'tarib so'z so'radi.

- Kasbim kutubxonachilik. Hozir biz bilan suhbat o'tkazgani kelgan yozuvchilarning kitoblari qanday o'qilayotganini aniq raqamlar bilan aytib berishim mumkin. Oybeku, G'afur G'ulomu, Abdulla Qahhorlar gurkiragan Toshkentdek shahri azimda bu yosh talantli ukalarimizning borligi uncha sezilmayotgan, ular soyasida qolib ketayotgan bo'lishlari mumkin. Ammo biz adabiyotimizga to'lqin urib, po'rtanadek hayqirib yangi talantlar kirib kelayotganini o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz.

O'lmas Umarbekovning kitoblarini bolalar qo'lga berdimmi, tamom. Qaytib ololmayman. Ota-onalari, qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilar bilan o'qib, oxiri izini yo'qotadilar. Shu bilan kitobdan umidimizni uzib qo'ya qolamiz. Kutubxonamizda Umarbekovning uchta kitobi bor edi. Hozir bittasi ham yo'q. Navbatda turgan sakson bir odam bekorga kutib o'tiripti. O'tkir Hoshimovning "Baxor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" kitoblari qo'limizdan bir chiqib ketgancha qaytib kelmadi. Yo'qolib ketdi.

Kitobni olgan bolaning ota-onalariga jarima ham soldik. To'ladi, baribir kitob qaytib kelmadi. Salkam sakson bola bekorga navbat kutib o'tiripti. Xudoyberdi To'xtaboyevning yo'rig'i boshqa. Nashriyotlar uning bozorgir kitoblarini peshma-pesh ko'p nusxada bosib chiqaradilar. Birgina "Sehrli qalpoqcha" kitobi o'zbek va rus tillarida yigirma marta bosilib chiqdi. "Nomoz botir", "Besh bolali yigitcha" kitoblari keti uzilmay do'konga kelib turadi. Qani edi, nashriyotlar Umarbekovning ham asarlarini shunaqa tez-tez, ko'p nusxada chiqarib tursalar. Kutubxonamiz limit bo'yicha atigi bir nusxadan kitob oladi. O'zimiz sotib olaylik desak, mablag' yo'q. To'g'ri, rayjroqo'm himmat qilib Ibn Sinoning uch tomligi bilan "Dekameron" degan kitobni olib bergan. "Dekameron"ni bolalar tarbiyasiga to'g'ri kelmaydi, deb o'ziga qaytib berganman. Keyin eshitsam, shunaqa kitoblarni o'qib yuribsanmi, tarbiyasiz, deb xotini "Dekameron"ni shoferiga beribdi. Iltimos, limitni ko'paytirishga yordam qilsangiz. O'lmas Umarbekov javob qildi:

- Biz hozir maslahatlashib, kutubxonangizni otaliqqa olishga qaror qildik. Bundan buyon yangi kitoblardan imkon boricha yuborib turamiz. Bundan tashqari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasiga iyuldan boshlab yilning qolgan yarmiga obuna tashkil qilamiz. Buni redaksiya o'z zimmasiga oladi.

Kutubxonachi opa ko'zoynagini sumkasiga solib gapini davom etdirdi:

- Hamyurtimiz Erkin akadan gina qilishga haqqimiz bor. "Yoshlik devoni" kitoblari hammaning qo'lida. Uni do'konda peshtaxta tagidan xufya sotishdi. Biz hatto uni ushlab ko'rganimiz ham yo'q. Bolalar o'qisin deb biron nusxasini bizga bermadilar. "Buyuk hayot tongi" dostonlarini uyimdan opkelib vitrinaga qo'yanman.

Erkin Vohidov noqulay ahvolga tushdi.

- Opajon, shu bugunoq, hozirning o'zida bu xatoni tuzatamiz, kutubxonangizga "Yoshlik devoni"dan besh nusxasini beraman.

U shunday deb papkasidan bir dasta kitob olib uzatdi.

- Mana, beshta kitob. Manavi oltinchisiga dastxat yozib beraman.

Opa sumkasidan yana ko'zoynagini olib taqdi. Qo'lidagi kitobga mehr bilan karadi. Erkin to dastxat yozguncha qimirlamay qarab turdi.

- Endi ikki zabardast ijodkor qoldi. Ularni yaxshi bilasizlar. Kanday qilib Erkin Vohidov undoq shoir, Erkin Vohidov bundoq shoir, deb sizlarga tanishtirishim mumkin? Axir u Oltiariq bolasi, uni biz emas, siz bizga tanishtirishingiz kerak. Mana, yonimda O'lmas Umarbekov o'tiripti. Uni yaxshi taniysizlar. Yozgan hamma asarlarini o'qigansizlar. Bu yozuvchi to'g'risida aytmoqchi bo'lgan gaplaringiz shundoqqina tilingizning uchida turipti. Erkin Vohidov bilan O'lmas Umarbekov to'g'risida gapirishni ham oltiariqliklarga havola qilamiz. Uchrashuvni viloyat yozuvchilari bo'limining rahbari Adham Hamdam olib boradi. Adham Hamdam juda quvnoq, gapga usta odam. Yozgan hikoyalardan ko'ra og'zaki hikoyalari mashhur. Uchrashuvni juda qiziq, fayzli olib boradi deb ishonaman. Qani, Adham aka, endi o'z amalimni sizga topshiraman.

- Bo'пти, - dedi u. - Avval bir masalani hal qilib olaylik. Oramizda Anvar uchta bo'lib qoldi. Anvar Eshonov, Anvar Muqimov va

Anvar Obidjon. Ularni adashtirib yubormaslik uchun raqamlab qo'yishimiz kerak. Anvar Eshonovni "Anvar raqam B.,- 1", Anvar Muqimni "Anvar raqam B.,- 2, deb ataylik. O'zimizning Oltiariqli Anvar Obidjon degan bola yozuvchi sifatida to'la tug'ilib bo'lgani yo'q. Hozir o'g'il bolaning sumagidekkina bo'lib burni tug'ilgan xolos. Shuning uchun uni "Anvar raqam B.,- 0,5", ya'ni "Yarimta Anvar" deb qo'yaqolsak. Nima deysizlar.

Erkin Vohidov to'g'risida oltiariqliklar gapirsiz degan takliflar bo'ldi. Har bir yurt fuqarosi o'zidan chiqqan iste'dod egalari bilan faxrlanadi. Uni ko'z-ko'z qilgisi keladi. Erkin yurtdoshlari faxrlansa arziydigan shoir bo'ldi. O'zbekistonimizda uning she'rlari kirmagan bironta xonadon qolmagan. Ayniqsa hamyurt xonanda Qobiljon Yusupov uning she'rlariga o'zi kuy bastalab, o'zi ijro etib, she'r ma'nisini yurak-yuraklarga singitib yuborgan. "Yoshlik devoni" kitobi bosilib chiqqandan keyin "hamyurt"lari ko'payib ketdi. Birov "Erkin Vohidov bizning Buxorodan chiqqan" desa yana boshqa birovi, "Erkin namanganlik" deydi. Toshkent esa uni allaqachon o'ziniki qilib olgan.

Erkin Vohidov "O'zbekim" degan g'oyat go'zal, g'oyat fikrga boy dostonini e'lon qilib 6u "seniki, meniki"larga nuqta qo'ydi.

* * *

Ertaga Toshkentga qaytmoqchimiz. Rais Fayzimatov Oltiariqda bir piyola choy ichmasdan ketsanglar yaxshi bo'lmas, shunchaki hazil-huzil qilib gaplashib o'tiramiz, deb qoldi. Erkinjon biron yig'inda ko'nglini ochib gapirmadi. Hammamiz u to'g'rida nimaiki bilsak gapirib bo'ldik. Bugun norasmiy o'tirish bo'lsa ham, baribir gapirmaganiga qo'ymaymiz.

No'monjon akanikiga joy qildirishgan ekan. Butun hovliga osmonni ko'rsatmay qo'yadigan baland tok so'ri tagida o'tiribmiz. Bu hovliga ko'p kelganman. Bargidan hosili ko'p sap-sariq pilladek "ingichka bellar"ga qaragan odamning ko'zi qamashadi. Yeb tugatib bo'lmaydigan, sotib ado qilib bo'lmaydigan 6u uzumlar No'monjonga juda katta daromad keltirardi. Biron oylarga qolmay Termiz taraflardan qora chillaki Toshkent bozorlariga keladi. No'monjonning o'tkan yilgi uzumi bilan bu yilning uzumi Toshkentda yuz ko'rishadi.

Bu yilning husaynilari chiqqanda ham baribir No'monjonning o'tkan yilgi "Ingichka beli" bozorning oldi bo'lib qolaveradi.

Dasturxonga katta savatda "Ingichka bel" uyib qo'yilgan. Men boshlamasam boshqalar qo'l urishga botinmay turishipti.

- Bu o'tirishga Erkinjon ham mezbon, ham jo'raboshi. Qani, yarmi toshkentli, yarmi oltiariqli Erkin Vohidov, boshlang.

- Mayli. Avvalo bir narsani aytib qo'yay. Toshkentdan kelgan olti kishining hammasi Oltiariqqa bog'lanib qolgan odamlar. Gapni Oqsoqolimizdan boshlay. Bu odam o'n besh yildan beri Oltiariq atrofida kapalakdek aylanadi. Men tug'ilgan yurtni o'rab turgan Yozyovon cho'llari to'g'risida bir emas uchta roman yozgan. Shu cho'l odamlari to'g'risida yettita kitob bostirgan. Oqsoqolimizni ham oltiariqlik deyishga haqqimiz bor. Hozirgi ma'dan suvi chiqqan joydagi sanatoriydan o'n minutgina piyoda yursangiz markaziy Farg'ona chegarasi boshlanadigan joyga "Oyoqlaringizni artib, tozalab kiring, qoidani buzganlarga bir qop bodring, bir qop turup jarima solinadi, va burunlariga uch marta zarb bilan chertiladi", deb yozib qo'yishgani hali ham yodimda.

- Burni ham o'zimizning Oltiariq qolipidan chiq-qan, - deya qitmirlik qilib gap tashladi Qodirjon.

- Endi O'lmas aka to'g'risida gapirmoqchiman. Lekin gaplarim behazil, jiddiy bo'ladi. Mening yurtga tani-lishimda O'lmas akaning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Bu odam men hech kim tanimaydigan yosh shoirmi radioga chaqirib she'rlarimni bastakorlarga berib qo'shiq yozdirgan. Zo'r, zo'r xofizlarga aytdirib lentaga tushirgan. Men buni aslo unutmayman. O'sha qo'shiqlar to hanz radioda tinimsiz eshittiriladi. "Buyuk hayot tongi" dostonimni o'z ovozimda yozib olib, birinchi marta radioda eshittirgan. "Yoz yomg'iri" qissasini o'qigansizlar. Asar qahramoni Rahim Saidov Fayzimat rais bilan ko'p uchrashadi. Shu kolxozda ilmiy tekshirish institutining bazasida juda ko'p tajribalar o'tkazadi. VilCHTga qarshi noyob preparat yaratadi. Agar Ulmasjon Oltiariqqa kelmasa bu gaplarni qayoqdan bilardi. Demak Ulmas aka ham Oltiariqqa bog'lanib qolgan odam.

Xizmat qilib yurganlardan bittasi konvert qo'yib ketdi.

Ichini ochib qaradim. Xat. "O'lmas aka, meni kechiring, avval yozib bergan "Dastxat"ingizni qizlar olib qo'yishdi. Iltimos, boshqa yozib bersangiz. Singlim, deb yozmang, sal boshqacharoq qilib, sal anaqaroq qilib yozib bering. Sizga xamisha sodiq RO'NO". Xatni Raisimiz Erkinga berdim. Erkin O'lmasning oldiga qo'ydi. O'qib, Ulmas dod deb yuboray dedi. Bir pasda xat qo'lma-qo'l bo'lib ketdi.

Erkin gapini davom etdirdi:

- "Anvar raqam B.,- 1" deb nomlangan Eshonov Fayzimatovning asrandi o'g'lidek gap. Bir keladiyu qornini to'yg'izib yana yo'q bo'lib ketadi. Shunday paytlarda "Otasi" qo'yaveringlar, qorni ochkanda qaytib keladi, deb kulibgina qo'ya qoladi.

Xudoyberdini ta'riflab o'tirmayman. Bu tarafning bolalari uni yaxshi bilishadi. Hoshimjonning sehrli qalpoqchasini orzu qilgan bolalar xuddi jevachka, paxta qand, loy xushtak, har xil sharlar berib shisha oladigan lo'lining aravasiga ergashgandek chuvillashib Xudoyberdining orqasidan yugurishadi.

Manavi "Anvar raqam B.,- 2" sizga tanish. Tushuntirib o'tirishning hojati yo'q. Bitta aybi: nafasni ham dadasidan so'rab ichiga tortadi.

Qodirjonni bir bola men O'tkir Hoshimman deb laqillatmoqchi bo'пти. Bir ko'ring, rostdan o'sha bo'lsa shunga qarab muomala qilaylik, laqillatayotgan bo'lsa detdomga topshirvoraylik, deb qoldi. Hujjatini tekshirmadimglarmi, desam, hali rasta bo'lmagan bolada hujjat nima qiladi dedi. Uni ko'rib, rostdan shu O'tkir Hoshim, deganimda yomonam mulzam bo'ldi, Qodirjon bechora. U albatta O'tkirning ko'nglini oladi. Shu bahona O'tkir ham bir nimali bo'lib qoladi.

Endi manavu "Anvar raqam B.,- 0,5", ya'ni yarimta Anvarni nima qilamiz? Uni bu ahvolda Toshkentga oborib bo'lmaydi.

Kelinglar, onasidan "Boshqatdan durustroq qilib tug'ib bering" deb iltimos qilaylik.

- E, 6u gapni aytkanmiz, - dedi Krdirjon. - Kuch-quvvatdan qoldim. Bundan ortiq qilib tug'olmayman, dedi.

- Bo'пти. Endi buyog'ini o'zimga qo'yib beringlar. Qo'qonda burun ta'mirlaydigan ustaxona ochilgan. Boshlig'i Toshkentlik qadrdonlarimdan. Kecha unga telefon qilib shundoq, deb aytganimda lanjlik qilgan edi. Quvalik hoji aka burunlarini ta'mirlashga opkelganlar, bor charmlarni ishlatib qo'ydik. Kelasi kvartal limitidan to'rt metr qarz oldik. Agar besh metrecha charm topib kelsanglar, bajonidil yaxshilab ta'mirlab beramiz, dedi.

- Besh metr ko'plik qilmaydimi? - dedim.

- Tepasiga ham, ichiga ham charm qoplaymiz-da, hozir charm topish qiyin. Yaxshisi sun'iy charm qolab beraqolaylik. U ham yomon bo'lmaydi.

- E, qo'ying, sun'iy charm yozda - oftobda oqarib, qishda namdan shalvirab qoladi.

Kelajagi porloq bittagina burunni ta'mirlashga nahotki Oltiariqda to'rt metr charm topilmasa?

Oltiariqliklar chuvillashib maslahatga tushishdi. Charm topadigan bo'lishdi.

- Endi navbat Umarali akaga keldi. Shu kishini yaxshilab ta'riflamoqchiman. O'zlari qanilar?

Qodirjon javob qildi:

- Biznikida oftobda o'tiriptilar. Boya ariqdan qo'l yuvaman deb turganlarida shogirdlaridan birining dadasiga uchrab qoptilar. U havlisidan hali qurimagan shilta go'nglarni qopda tomorqaga tashiyotgan ekan. O'zingiz bilasiz, ho'l go'ng nihoyatda og'ir bo'ladi. Bechora terga pishib ketgan. Umaralijonni ko'riptiyu, e domla, sizni biz tomonlarga qaysi shomol uchirdi, deb kela solib bag'riga bosibdi. Domlaning kostyum-shimlariga ho'l go'ng yopishib rasvo qipti. Tabiati tirriq bo'lgan domlamiz biznikiga cho'milgani keldilar. Jiyanlarim kostyum-shimni latta ho'llab artib oftobga yoyib qo'yishdi. O'zlari dushga tushib to'nimga o'ralib oftobda o'tiriptilar. U kishini endi quritib, kiyintirib olib kelaman deb turganimda keliningiz domla bir kepqoptilar, bolamni ko'tarib, dingiriga tuflab bersinlar deb bir yashar o'g'limni qo'llariga berib qo'ydi. Bolasi tushmagur ko'p suv ichib qo'ygan ekan shekilli domlaning kiyimlariga choptirib qo'ydi. Kostyum yana tozalanib of-tobga yoyildi. To'nimga o'ralib yana oftobda o'tiriptilar. Vodiyning qayeridadir kal bolalar shifoxonasi bor ekan. Anvar Eshonov shumlik qilib bosh shifokorini boshlab kepti. Umarali domlani uchrashuvga olib ketarmish. Bolalar o'z qo'llari bilan tikkan do'ppilarni kiydirisharmish! Hozir domlaning toblari qochkan, tuzalganlarida Anvarjon albatta oboradi, dedik. Hech bo'lmasa kal bolalarimiz tayyorlab yuborgan do'ppini kiydirib, ular o'z qo'llari bilan pishirgan taomlardan yedirib ketay, deb turib oldi. Borganda kiydirarsiz, deb zo'rg'a uni jo'natib yubordik.

- Endi domlani o'zim qo'riqlab, oldiga odam yo'latmay olib kelaman, - dedi Qodirjon. - Hu, eshik oldida domla kelsalar ko'rishamiz, deb burnini kavlab turgan mishiqli bolalarni ham quvib yuboramiz.

Osh suzish oldidan ikki soqchi qurshovida Umarali Normatovni sog'-salomat olib kelishdi.

O'yin-kulgi avjgachikdi. Kobiljon qo'shiqlarni ezib-ezib aytib turibdi. Yo'ldoshali motori o'chib yerga qo'nolmay "qiynalayotgan" samolyotdek lapanglab raqsga tushdi.

Erkin Vohidovning jo'raboshiligi ana shunaqa voqealarga boy, quvnoq, sira esdan chiqmaydigan hangomalar, nutqlar bilan o'tdi. Ammo-lekin maza qildik. Hech qayerda bunaqa shodon o'tirish bo'lmagandi.

Ikkinchi bo'lim

O'lmas yaxshi-yaxshi hikoyalari, ixcham, o'qishli qissalari bilan tanilib kolgan edi. Abdulla aka ko'pincha, shu bolani soyuz a'zoliciga rasmiylashtirib qo'yish kerak, deb yurardi.

Ertaga soyuzda sekretariat bo'ladi. Bir nechta yosh yozuvchilar a'zolicikka olinadi, deb bizga xabar qilgan edilar.

O'lmasni 1962 yilning avgust oyi o'rtalarida "Moskvich" mashinada Abdulla Qahorning bog'iga olib bordim.

- Domla, O'lmasni ertaga bo'ladigan sekretariatda soyuzga qabul qilinadiganlar ro'yxatiga kiritib qo'ysangiz, deb kelgandik, - dedim.

- Shunaqa dardlaring bor ekan ikki kungina oldin kelmaysizlarmi. Soyuzga qabul qilinadiganlarning hujjati tayyor qilinib, raisga topshirilgan.

Har xil qalang'i-qasang'ilar a'zolicikka qabul qilinaverganidan qattiqqo'l, talabchan, hech bir tomonga og'maydigan Abdulla Qahorni shu komissiyaga rais qilgan edilar. Abdulla aka a'zolicikka qabul qilinadiganlar bilan erinmay gaplashar, bilimini, dunyoqarashini, nimalar o'qiyotganini o'bdon surishtirardi. Xullas, ularni "mayda taroq"dan o'tqazardi.

- Bo'lmaydi, - dedi Abdulla aka. - Ertaga soyuz a'zolicigiga mutlaqo talantsiz, adabiyotda bir oy ham umr ko'rolmaydigan o'tkinchi odamlar qabul qilinadi. Bittasini aytib qo'yaqolay. Najibulla Xabibullayev degan bir lo'ttiboz! Bilmadim uni kim oyog'idan o'likdek

sudrab olib keldi ekan? Agar O'lmas shunaqa odamlar bilan a'zolicikka o'tishdan or qilmasa, mayli, qabul qilamiz. Menimcha, O'lmasning oriyati bunga yo'l bermas. Bir oydan keyin yana sekretariat bo'ladi. O'shanda uni chiroylik qilib a'zolicikka o'tkazamiz, - dedi.

Tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushib qaytib kelyapmiz. Yo'lda unga, xafa bo'ldingmi, dedim rahmim kelib.

O'lmas mulohazali, fikri toza, sabr-qanoatli yigit edi. Sira xafa bo'lmaganini aytdi.

Ertasiga navbatdagi sekretariat bo'ldi.

Hay'at a'zolari joy-joylarida o'tirishibdi. Eshik oldida Moskvalik "yozuvchilar" Boris Privalov, Yuriy Karasevlar ichkariga chaqirishlarini kutib turishipti.

Raisimiz Yashin aka bugun a'zolicikka qabul qilinadiganlarning nomlarini o'qidi. Abdulla aka tajang bir alpozda edi:

- Shularni soyuzga olishimiz shartmi? - dedi u xuddi nimadandir irganayotgan kayfiyatda. Bular adabiyotga ish bermaydigan to'rt kunlik "mehmonlar-ku".

Yashin aka Abdulla Qahorning qulog'iga juda past ovozda ro'yxat yuqorida tasdiqlanganini aytdi.

- Bo'lmasam bunday qilaylik, - dedi Abdulla aka baland, xamma eshitadigan qilib. - Siz o'sha yuqori idoraga besh-o'nta soyuz a'zosi degan hujjatdan berib qo'ying. Bizni ovora qilmay o'zlari a'zo qilib olaverishsin.

Markazqo'm kotibi Abdulla akaga nimadir demoqchi bo'ldi. Aftidan achchiqroq gap aytmoqchiligi bilinib turardi. Ammo Abdulla Qahor bilan olishib bo'lmasligini bilib yumshadi.

"Yosh yozuvchi"lardan ikkitasini, shular orasida Najibulla Xabibullayevni ham bore, nima bo'lsa bo'ldi, deb a'zolicikka qabul qildilar. Ularning "ijodi" to'g'risida Nazir Safarov, Rahmat Fayziylar og'iz ko'pirtirib rosa gapirdilar.

Kotiba eshik orqasida navbat kutib turgan Yuriy Karasevni chaqirdi.

Uning "ijodi" to'g'risida Sheverdin bilan Vladimirovlar gapirishdi. Bu ajoyib, talantli tarjimon o'zbek romanlarini mahorat bilan tarjima qilayotganini, rus kitobxonlari uning tarjimasida o'zbek romanlarini o'qiyotganlarini gapirishdi. Endi o'z navbatini kutayotgan Boris Privalovni chaqirishdi.

Uning "ijodi" to'g'risida Aleksandr Udalov bilan Dmitriy Kovalev degan bugungi nomzodlarning oyog'ini "yalab" yuradigan soyuz dastyori gapirdi.

Abdulla Qahor bilib turib, kayerda yashaysizlar, deb so'radi. Ular Yashin akadan madad kutgandek iltijo bilan qarashdi.

- Nima uchun Moskvada soyuzga o'tmay bizdan o'tmoqchisizlar? Moskvada sizlarni yozuvchi sifatida tanimaydilar.

"Kontrabanda" usuli bilan bizdan soyuzga o'tmoqchisizlar, - dedi achitib. So'ng Abdulla aka yana faollashdi: - Soyuzimiz nizomida o'zi yashab turgan hududda a'zolicikka qabul qilinadi deb aniq yozib qo'yilgan. Ularni biz soyuzga o'tqizolmaymiz...

Markazqo'm vakili, xo'p devoring, oqsoqol, yuqorining roziligini olganmiz, dedi yumshoqqina qilib.

- Mumkin emas. Nizomni buzishga haqkimiz yo'q. Agar boshqa masalalar bo'lmasa majlisni yopib ko'yaqolaylik, - dedi Abdulla

aka o'rnidan turib.

Shunday deb o'zi chikib ketdi.

Soyuz a'zoliciga nomzod ikki "Yozuvchi" serryagancha qoldi. Ularning homiylari Abdulla aka orkasidan o'qraygancha qarab qoldilar.

Kelgusi sekretariatga Abdulla aka qatnasholmaydigan bo'ldi. Zudlik bilan chet el safariga jo'nab ketdi.

O'lmas Umarbekov yigirma birinchi sentabr kuni Abdulla aka aytgandek bir chiroyli bo'lib soyuz a'zoliciga bironta qarshi ovozsiz qabul qilindi.

Markazqo'm vakili uni tabriklar ekan sekingina, shu joy sizniki bo'ladi, deb ko'ydi.

* * *

"Abdulla aka ko'rgani kelganlar bilan xayrlashib, mening qolishimni so'radilar. Yonlariga stul qo'yib o'tirdim.

- Sizga ikkita maslahatim bor, - dedilar har doimgidek jiddiy ohangda, kandaydir shu paytgacha men sezmagani ilqlik, yumshoqlik bilan.

- Eshitaman, - dedim u kishining yuzlariga tikilib.

- Sizni soyuzga ishga chaqirishlari mumkin. Soyuzdagi yig'ilishlarga qatnashib yuravering. Ammo ishlamang. Ikkinchi gapim.

Xotiningiz sizga juda mehribon. Shuni qadrlang.

Abdulla aka shunday deb yengil jilmaydilar. Markazqo'm vakili meni Sh. R. Rashidov xuzuriga olib borayotib:

- ..."O'zbekfilCHm"ni taklif qilsalar, rozi bo'lma. Seni yozuvchilar soyuziga yuboramiz - dedi.

Sh. R. Rashidov huzurida chindan xam shu xaqda gap bo'ldi. Abdulla akaning maslahati dilimda bo'lgani sababli Sharof aka kinostudiya haqida gap ochganida darhol rozilik berdim. To'g'ri qildim. "O'zbekfil'm" studiyasida men katta bir tegirmonga tushib chiqqandek bo'ldim. Sakkiz yil direktorlik qildim. Studiya tarixida bunchalik uzoq ishlagan direktor bo'lmagan".

"Qizimga maktublar"dan.

...O'lmas shu yerda kino sirlarini, ssenariy ustida ishlash, rejissyorlar bilan hamkorlik kilish sirlarini bildi. Qanchadan qancha badiiy filCHmlar yaratdi. Hatto chet el rejissyorlari bilan hamkorlik qildi. "O'zbekfilCHm" unga katta ijod maktabi bo'ldi.

Qattiq uxlagan ekanman, telefon jiringlab uyg'otib yubordi. Qarasam soat oltidan besh minut o'tipti. Hali tong yorishmagan.

Shoshib trubkani ko'tardim. Yashin akaning qabulxonadagi kotibasi Lyubaning ovozi:

- Soat sakkizda sekretariat bo'ladi. Tezda yetib kelinglar.

Nima balo bo'ldiykan? Oqsoqol yozuvchilardan birontasi... Yo'g'e hammalari sog'-salomat edilar-ku! Yana kim biladi deysiz.

Saidaxon bilan yetib bordik. Soyuzning plenumlar o'tadigan katta zalida odam ko'p. Raisning kabinetida ham hamma sekretariat a'zolari jamuljam bo'lib o'tirishipti.

Yashin aka sekretariat majlisini ochdi.

- Masala bitta. Yozuvchi G'ani Jahongirovni yozuvchilar soyuzi a'zoliciga qabul qilish, oldilaringizdagi konvertida byulleten tayyorlab qo'yilgan. Qani, Abdullajon, siz qabul komissiyasining raisi sifatida o'z vazifangizni ado eting.

Abdulla Qahhor:

- Men bugun lavozimimdan voz kechaman. Umuman, bu odamni soyuz a'zoliciga noloyiq kimsa deb bilaman. Ana endi bu yog'ini o'zingiz davom etdiraverasiz, - dedi.

Yashin aka qiziq ahvolga tushib qoldi. Nima deyishini bilmay oxiri juda past ovozda, biron eshitib, biron eshitmaydigan qilib, ham qo'rquv, ham tashvish bilan dedi.

- Bu yuqorining topshirig'i.

Gapining ohangidan aytсам tilim, aytmasam dilim kuyadi, degan ma'no sezilib turardi.

- Bo'lmasam, men Abdullajonning roziligi bilan a'zoliciga nomzod Jahongirovning ijodiy biografiyasi bilan tanishtiraman. Qani, o'zini chaqiringlar.

Tashqarida jonini xovuchlab kutib turgan nomzod ko'zlari alang-jalang kirib keldi.

Yashin aka uni tanishtirishni davom etdirdi.

- Jahongirov G'ani, asosan folCHbklor hamda bolalar adabiyoti bilan shug'ullanadi. Uning yosh terimchi to'g'risidagi ertak qissasi hozir yosh kitobxonlarimizning sevimli asari bo'lib qolgan.

Abdulla aka zaxarxanda qilib savol tashladi:

- Muni karangga, durust-ku. O'zi yozganmi?

- Sherigi ham bor. Sherigini o'chirib tashlasa ham bo'laveradi. Juda yuvosh odam.

Qoraqalpoq yozuvchilari telegrammani olib soyuzda favqulodda xodisa yuz berganga o'xshaydi, samolyotni kutsak ulgurib borolmaymiz deb avtobusda tuni bilan yo'l yurib, kelgan edilar. Jo'lmirza Aymurzayevdan boshqa yana uch kishi bemalol uxlab o'tirardilar. Xalq shoiri Jumamurotov bir-ikki marta xurrak otib yubordi. Uni turtib uyg'otib yubordilar. Bu xurrakdan ko'zlari ochilib ketgan Ibroym Yusupov bilan Qaipbergenovlar shosha-pisha biz bunaqa odamni tanimaymiz, deb byulletendan nomzodni o'chirib tashladilar.

Jo'lmirzaning o'g'li bezorilik kilib kamalgan edi. Katta rahbarimiz Nukusga borganda uning o'g'lini bo'shatib yuborishni va'da qilgan edi. Shuning uchun ham bugungi tadbir kattaning roziligi bilan bo'layotganini bilgan Jo'lmirza u kishiga yoqish uchun nomzodga birin-chi bo'lib ovoz bergan edi.

Abdulla Qahhor bu qaysar, o'z so'zli qoraqalpoq yozuvchilaridan mamnun bo'lib o'tirardi.

Yashin aka Abdulla akani qo'ltiqlab boshqa kabinetga olib kirdi.

- Abdullajon, do'stim, qaysarlik qilmang. Bu ish bilan shaxsan kattamizning o'zlari shug'ullanganlar. U kishining topshiriqlarini bajaryapmiz xolos...

Abdulla Qahhorning qaysarligi tutdi.

- Bu gapni nega sekretariat a'zolari oldida aytmay, panada aytyapsiz? Yuring, odamlar oldida gapiring.

Yashin aka juda nokulay ahvolda qoldi. Aytсам tilim, aytmasam dilim kuyadi, degan maqol shu topda juda joyini topgan edi.

Yashin aka qaytib kelib, bo'shashib joyiga o'tirdi. Abdulla aka gapira ketdi:

- Har biri to'rt yuz, besh yuz sahifalik bir necha qissa va romanlar yozib qo'ygan yozuvchilar, besh-oltitadan doston yozib el og'ziga tushgan shoirlar, asarlari sahnalarda ijro qilinayotgan talantli dramaturglar qolib, bu chala mulla odamni yozuvchi deb soyuz a'zoliciga olsak, odamlar nima deydi? Yoshi oltmish-etmishlardan oshgan oqsoqollarni tong saharlab uyg'otib shu g'o'r,

19 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uzsmart.UZ
Kitoblar olami

ertaga o'zi nima bo'lishini bilmaydigan xomgo'shtdek odam uchun bezovta qilish shartmidi? Zo'rniki tegirmon yurgizadi, deb nima deyishsa xo'p deyaverasizlarmi? Uyushmamiz adabiy utilsiryoning omboriga aylanib ketdi-ku!

Abdulla Qahhor zarda bilan tashqariga chiqib ketar ekan, Fatxullin ushlab turgan konvertni yulib olib cho'ntagiga solib qo'ydi.

Eshik tutqichiga qo'l uzatar ekan, orqasiga o'girilib:

- Bugungi sekretariatdan mutlaqo noroziman. Bu masalani plenumga qo'yaman, - dedi.

Fatxullin sekretariat a'zosi emas. Lekin hammadan oldin kelib olib, odamlarga akd o'rgatib o'tirardi. Xatto yozuvchilarning s'ezdlarida, plenumlarida hech kim saylamasa ham prezidiumga chiqib o'tirib olardi.

Abdulla Qahhorning chiqib ketishidan foydalanib Jahongirovni xuddi dumidan ko'targandek qilib soyuz a'zoliciga qabul qilishdi.

Soat to'qqizlarda markazqo'm vakili plenumni shunday so'zlar bilan ochdi:

- Talantli yozuvchi, mohir so'z ustasi, bolalarimizning sevimli adibi Jahongirov G'anini plenum a'zoliciga tavsiya qilamiz.

Nomzodimizning ijodi va faoliyati to'g'risida so'z aytish uchun Rahmat Fayziyini minbarga taklif qilamiz.

Katta zal odamga to'lib ketgan, plenum a'zolari ham, boshqa yozuvchilar ham bir yangilik bo'ladi shekilli deb o'ylab, plenum boshlanishini sabrsizlik bilan kutib o'tirardilar.

Xuddi zilzila bo'layotgandek orqa tomondagilar o'rnilaridan turib ketishdi.

- Biz Jahongirov degan yozuvchi borligini bilmaymiz.

Ellikdan ortiq odam o'rnidan turib olgan, shovqinni bosib bo'lmasdi.

Ibrohim Rahim plenum a'zolariga byulleten tarqatib chiqdi.

Xolid Rasul zalning qoq o'rtasida yerga o'tirib olib byulletenni polga qo'ydi, nomzodning nomini mutlaqo o'qib bo'lmaydigan qilib o'chirib tashladi. Uning tepasiga kelgan markazqo'm vakili, uyat bo'ladi, uyat bo'ladi, dedi.

Xolid Rasul unga javob bermay zalning oxiriga qarab ketdi.

Hisob komissiyasining raisi - ko'p jihatlari Jahongirov qolipiga mos keladigan, talanti Jahongirovdan xam ancha past, ammo berilgan ovozlarni sanab chiqishda ustasi farang bo'lib ketgan Nasrullo Oxundiy saylov natijasini dazmoldan chiqqandek sip-silliq qilib qo'yardi. Bu gal uning nayranglari ish bermadi. Byulleten olganlarning yarmidan ko'pi byulletendan nomzodning nomini o'chirib tashlagan edilar.

Baribir Oxundiy byulletenlarni boshqatdan sanagan bo'lib, yana hisobni uchma-uch chiqazdi.

Jahongirov G'ani "ko'pchilik" ovoz bilan plenum a'zoliciga "saylandi".

Yuqorining vakili yigirma minutlik tanaffus e'lon qilarkan, tarqab ketmay sabr qilishlarini o'tinib so'radi.

Sekretariat o'z ishini davom etdirdi.

Har bir sekretariat a'zosining oldiga konvertda byulleten qo'yilgan edi. Abdulla Qaxhor Fatxullin oldidagi konvertni olib, cho'ntagiga solib qo'ydi.

- Ko'riladigan masala bitta. Jahongirov G'anini yozuvchilar soyuzining sekretariat a'zosi hamda tashkiliy ishlar bo'yicha sekretari qilib saylash. Kimda qanday taklif bor? Marhamat, Ibrohim Rahim, so'z sizga.

Ibrohim Rahim rahbarlarga xos bo'ynini ichiga tortib gap boshladi.

- Hozir plenumda o'z ko'zlaringiz bilan ko'rdingiz. Jahongirov qanchalik obro'ga, hurmatga loyiq ekanini namoyish qildi. Barcha hujumlarga bardosh bera oldi. O'zining bosiqiligi bilan, bardoshi bilan raqiblarini yenga oldi. Men uyushmamizda ana shunday bir kishining sekretar bo'lishini orzu qilardim. Bugun shu orzum ro'yobga chiqqanidan xursandman. E'tiborlaringiz uchun rahmat. Boshqa gapiradigan odam bo'lmadi. Abdulla Kdxxor shu chiqib ketganicha qaytib kelmadi. Yashin aka Jahongirov G'ani bir og'izdan uyushmamizning sekretariat a'zo-si hamda sekretari qilib saylangani bilan hammamizni tabrikladi. Sekretariat o'n besh minutlardan keyin yana o'z ishini davom ettirishini aytdi. Hammamizni plenumga taklif qildi.

Zalga chiqdik. Hech kim yo'q. Berilgan byulletenlarni oyoq ostiga tashlab ketib qolishi. Zalda to'rtta bola o'tiripti. Ular Oxundiyning yugurdaklari. Qo'l ko'targan, qo'l ko'tarmaganlarni sanaydigan Oxundiy aytgandek qilib hisobni uchma-uch qiladigan bolalar.

Sekretariat yana o'z ishini tikladi. Hisob komissiyasining raisi Oxundiy axborot bera-boshladi.

- Sizlar sekretariat o'tqazayotganinglarda men plenumni yakunlab bo'lgan edim...

Hech kim unga plenum o'tqazishga sening nima haqqing bor, deb so'ramadi.

- Men hech qachon bunaqa demokratik, ochiq-oshkora fikrlar aytilgan plenumni ko'rmaganman. Hamma byulletenlarni tashlab ochikdan-ochiq ovoz beramiz deb Jahongirov G'ani nomzodini dil-dildan quvvatlab o'z fikrlarini bayon qildilar. Menimcha bu plenum uyushmamiz tarixida yorqin sahifa bo'lib qoladi.

Sekretariat ham xuddi yagana qilingan g'o'zadek siyraklashib qolgan edi. Har majlisda birovga so'z bermaydigan Uyg'un uyquni afzal bilib plenumga kelmadi. Asqad Muxtor gapga aralashmay "Ogonyok"ni varaqlab o'tirdi. Laziz Qayumov Qo'krn pedinstitutida imtihon komissiyasiga rais ekan, kelolmadi. Ramz boshqa ishga tayinlangan ekan, bir ko'rindiyu ketib qoldi. Vohid Zohidov kasalxonada. Odil Yoqubov plenumga atayin kelmadi.

Majlis desa yeb turgan ovqatini tuflab tashlab yugurib keladigan Nazir Safarov majlisning guli bo'lib o'tiripti. U Jahongirovni bag'riga bosganicha bir kun kerak bo'lib qolar, deb bir necha daqiqqa kuchanib, o'pkasi bo'g'ziga tiqilib qolguncha ko'tarib turdi. Zo'riqqanidan bir qizarib, bir bo'zarardi.

To tushlikkacha uch plenum, to'rt sekretariat o'tqazgan soyuz rahbariyati bugungi qizg'in o'tgan ish kunini yakunlab, yangi sekretar nomidan pastdagi oshxonada tayyorlangan ziyofatga yo'l oldi.

Ushbu satrlar G'ani Jahongirovdek bir beozor odamni muvozanatdan chiqarib, nokulay ahvolga solganlarga, hayotda o'z joyini topolmaydigan qilib qo'rganlarga o'pkayu gina tariqasida yozildi.

Aslini olganda Jahongirov chindan beozor, qo'y og'zidan cho'p olmagan, birovni malomat qilmagan toza odam edi. Turli lavozimlarda ishlagan kezlari xizmat yuzasidan kelganlarning xojatini chiqarib, boz ustiga qo'li ko'ksida, ularga rahmat aytib, metro bekatigacha kuzatib qo'yardi.

Bu gaplarni G'ani Jahongirov bahonasida o'z mavqeini ko'tarib olish niyatida yelib-yugurganlarga, halol, beozor odamlarni noqulay ahvolga solgan davr o'yinchilariga qarata otilgan ta'na toshlari deb biling.

* * *

Kecha O'lmasni uyiga tashlab o'tganimda bir zarur gapni aytish esimdan chiqqan ekan. Quvadagi bedana ovida bir o'limdan qolganingni Zuhroga aytmay qo'yaqol demog'chi edim. Uyiga qo'ng'iroq qildim. Trubkani Zuxro ko'tarib, "Labbay, eshitaman"

dedi.

Trubkani shoshib joyiga qo'ydim.

O'lmasning bu dunyodan ketganiga besh yil bo'lay deyapti-ku!

Yosh yozuvchi ukalarim bilan vodiya qilgan safarimizni so'zma-so'z, qadam-baqadam, soatma-soat xotirlab chiqqanman. Uni uyiga tashlab o'tganim ham xotira edi.

Bu voqea xotiraga aylanmasdan oldin uyiga olib kelganimda Zuhro buni nima qildinglar, sochlaridan, kiyimlaridan burqsib isiriq hidi kelyapti. Ko'ylaklari tutundan sarg'ayib ketibdi, degan edi.

Shunda hazil qilib, eringizni qayerga borsak isiriq tutatib, yomon ko'zdan asradik, degandim.

Ko'z tegish, ko'zikish degan gaplarga ishonmasdim. Unga tez-tez "ko'z tegib" turardi. U Toshkentda avariya uchrab, bir o'limdan qoldi. Minib ketayotgan mashinasi tramvay yo'lga chiqib ketib, simyog'ochga urilib to'ntarilib qoldi. Yaxshiyam tramvay sal uzoqroqda kelayotgan ekan. Xaydovchi to'xtatib qoldi.

Sirdaryoda ham xuddi shunaqa falokat yuz bergan. Dovondan o'tib Qo'qon tomon ketayotganda xayoli qochib mashinani boshqorolmay qolgan, mashina bir necha marta dumalab ketgan. Uni boshqa mashinaga sudratib, ustaxonaga olib borishgan. Mashina minishning gashti boshqacha bo'ladi. Tabiat qo'yniga singib ketayotganga o'xshaysan. Xayolingga ko'p chiroyli gaplar keladi.

O'lmas ana shunday paytlarda yozayotgan yoki yozmoqchi bo'lgan qissa yo romanini o'ylab ketadi. Yo'lda uchrashi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni unutadi.

Falokat oyog'ing ostida, deb bejiz aytilmagan. Ana shu oyoq ostidagi falokat to'rt marta unga pand berdi.

Kuvadagi bedana ovi paytida sodir bo'lgan falokat O'lmasning ovga qiziqib ketib, o'zini unutgani tufayli yuz bergan edi.

O'lmas ko'zga yaqin yigit edi. Uni ko'rganlar orqasidan suqlanib qarab qolardilar.

Ana shunday paytlarda biz isiriqqa zo'r berardik. Ko'yinglar, kerakmas, deyishiga qaramay orqasidan quvib, isiriq tutatardik. Uni nihoyatda ehtiyot qilardik. Ko'ngliga qarardik. Safarga birga chiqqan yozuvchi ukalarimiz uni "Qog'ozga o'ralgan qantdek" avaylardilar.

O'sha safarimiz xotiramga shu qadar o'rnashib qolgan ediki, bir nimani unutsam, hozir O'lmasning o'zidan so'rayman, deb yuboradigan bo'lib qolgan edim.

Ayagan ko'zga cho'p tushar, degan gap bor. O'lmas bizning ayagan ko'zimiz edi.

U og'ir dardga chalindi. Hali Hindiston, hali Moskva kasalxonalarida qilmagan muolajalari qolmadi. Kundan-kunga o'lim xavfi bostirib kelaverdi.

Qodir xudo ellik oltinchi yilda uni Zuhro deb atalgan "farishta"ga ro'baro' qilgan edi. "Men uni chinakam baxt, chinakam vafo, umringning oxirigacha ajralmas hamroh qilib yaratdim", dedi Alloh.

Zuhroni O'lmas bilan ajal o'rtasidagi o'q o'tmas qalqon qilib yaratgan ekan Xudoyim.

O'lmas holdan ketib, umr chirog'i so'na boshlagan damlarda Zuxrodan quvvat olardi. Shunda umr chirog'i yana parpirab ketardi.

Zuhro O'lmas uchun maxsus quvvat manbai edi.

Bu satrlarni o'qiyotgan kishilar Zuxroxon O'lmas bilan birga yashab, biron kun rohat ko'rmagan ekan-da, deb o'ylashlari mumkin.

Yo'q, unday emas. Er-xotin ikkovi yonma-yon turishining o'zi Zuhro uchun tunganmas rohat, quvonch edi. U O'lmasning dardiga em bo'layotganidan cheksiz baxtiyor edi. Ularning juftligi Tangri nazari tushgan juftlik edi.

O'lmas yozishi kerak. Ko'p narsalarni yozishi kerak. To'xtamay yozishi kerak.

Qani edi shifoxonada bunga imkon bo'lsa?

Zuhro shu to'g'rida o'ylardi. Kichkinagina tiqilinch palatada stol-stulga joy yo'q. Faqat tizzaga biron nima qo'yib yozish mumkin.

Magazindan patnis olib kelsinmi, yo'q, bo'lmaydi. Patnis muzdek, sovuq, unga to'g'ri kel-maydi.

Shifoxona podvalida sinib, yaroqsiz bo'lib qolgan stol-stullar qalashib yotardi. Zuhro zora biron nimaga yaraydigan narsa topilib qolsa deb shu keraksiz bo'lib qolgan buyumlar orasidan yozuv stolining eshigini topdi. Chiroqqa solib buni nima qilsa bo'ladi, deb orqa-o'ngiga yaxshilab qaradi. Og'ir emas, yengilgina, tizzaga qo'yib xat yozsa bo'ladi.

Zuhro eshikni yuqoriga olib chiqqidi, artib tozaladi. Har xil dori hidi o'rnashib qolmaganmi, deb hidlab ham ko'rdi.

Zuhro shu haloskor eshikni O'lmasga ko'rsatganda uning ko'z'lari yashnab ketdi. Darrov tizzasiga qo'yib, xuddi xat yozayotgandek qilib, barmoqlarini yurgizdi.

O'lmasga yozish imkoni paydo bo'lganidan Zuhro yayrab ketdi. O'lmas esa bu noyob tuhfa uchun minnatdor jilmayardi.

O'lmasning jilmayishi Zuhroga, Zuxroning mehr bilan boqib turishi O'lmasga mukofot edi.

Ular bir-birlarini samimiy tabassum bilan mukofotlagan edilar.

Bugun bizga yetib kelgan "Qizimga maktublar" shu eshikchaga qog'oz qo'yib yozilganini ko'pchilik bilmasa kerak. Sarlavha tagidagi yozuvga ko'zingiz tushgandir. Unga "Mangu dunyo bo'sag'asida" deb yozib qo'yipti. Bu uning foniy dunyodan boqiy dunyoga ko'chayapman, degani...

U shunday berilib yozardiki, ertaga jarroh bo'g'ziga nashtar urishini ham unutib qo'ygan edi.

O'lmasning yozishga berilib ketganidan Zuhro xursand edi. U o'limni unutib, endi nimalar yozishini, qanaqa kitoblar chiqarishini Zuxroga to'lib-toshib gapirib berardi.

"Uchta kitobni tayyorlab qo'yganman. Ikkitasi kelishib ham qo'yilgan. Tanlangan qissalarim G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda chiqishi kerak. Yangi romanim "Fotima va Zuhra" "Sharq Yulduzi"da bosiladi. Uni "Yozuvchi" nashriyoti ham chop etishi kerak.

Uyda o'n beshta yangi hikoyam turibdi. Yaxshi bitta to'plam bo'lishi mumkin.

Zuhro diqqat bilan quloq solib jilmaydi.

- Xudo xohlarsa shu ishlarining hammasini o'zingiz uyga qaytib borib bajarasiz. Men yordam beraman.

Men ham jilmaydim. Qo'lini olib ko'zlarimga surtdim... Yozishga tayyor turgan rejalarim bor... Hikoyalar, p'esalar, yana bitta roman yoki p'esa, yomon bo'lmaydi, shular qog'oz yuzini ko'rsa. "Oqsoqol" degan p'esam mashinkada. Hamza teatriga berish kerak..."

O'lmas bosh vazirning madaniy ishlar bo'yicha o'rinbosari edi. Namanganda o'tadigan hosil bayramiga uning raxbarligida bir necha fan va madaniyat arboblari max-sus "Toyoto" mikroavtobusida hangomalashib yo'lga chiqdik. Safimizda mashxur raqqosa Malika Ahmedova, akademik Tursun Rashidov, shoir Hamid G'ulom, adabiyotshunos olim Umarali Normatov, rassom Baxtiyor Boboyev va bir necha san'atkorlar bor edi. Toshkentdan yo'lga chiqqanimizda oftob charaqlab turgan edi. Hammamiz yengil kiyinganmiz. To yetib borgunimizcha Namanganda xavo aynib, achchiq shamol esayotgan ekan. Sovuq shu darajada ediki, biron

pana joyga yashirinmasa chidab bo'lmas edi. Besh-oltita brizent palatka ichiga gulxan yoqib mehmonlarga joy qilingan edi.

Kirdigu gulxanga qo'l-oyoqlarimizni tutib, isina boshladik.

O'lmasning bunaqa sovuqda o'ranmay tashqarida turishi qiyin edi. Dadajonova boshidan jun ro'molini yechib O'lmasni og'iz-burun aralash tomog'iga o'rab qo'ydi.

Keng sahnning xar yer, har yerida issiq kiyinib olgan kishilar gulxan yonida mazza qilib qiyqirishib o'tirishardi.

Yuk mashinasining kuzoviga "Minbar" qilingan. O'lmas respublika xukumatining "Hosil bayrami" qatnashchilariga yo'llagan tabrik xatini o'qib berishi kerak. U minbarga ro'molga o'ranib chiqolmasdi, albatta, mikrofonni qo'lga olib o'qiy boshladi. Sovuq xavo birdan bo'g'ziga urilib etkirtirdi, tabrik oxiriga yetguncha ovozi xirillab qoldi. Bora-bora nimalar deyatganini bilib bo'lmaydigan holga keldi.

Minbardan tushishi bilan pechkasi avvalroq yoqib qo'yilgan yengil mashinaga o'tqazib hukumat dachasiga olib ketishdi.

Issiq, hamma qulayliklari bor dachaga maxsus malakali vrach chaqirilgan.

O'yin-kulgi davom etardi. Kamoliddin Rahimov sho'x bir qo'shiqni boshlab, Malikani raqsga tortdi. Bu nozik raqqosa sovuqda shamollab qolmasin deb issiq to'n kiydirib, beliga qiyiq bog'lab qo'yishgan. Boshidagi telpak unga nihoyatda yarashgan edi.

Kamoliddin ashulani ashulaga ulab, uni davradan chiqib ketishiga imkon bermasdi.

Bu bayram tomoshalarini boshqarish shoir Habib Sa'dulloqa topshirilgan. Habib bunaqa ishlarni o'rniga qo'yardi. Toshkentda o'tadigan to'ylarimizda, yubiley ziyofatlarimizda Habib davrani juda chiroyli olib borardi.

Bundan o'ttiz-qirq yillar oldin Andijonda yaxshi obro' bilan ishlayotgan, tagi chustlik Dadajon Sohibiy shoir Hamid G'ulomni mehmonga chaqiradi. O'sha kuni u qiz ko'rgan, bu ziyofat shu xursandchilik sababli bo'layotgan ekan. Sohibiy Hamid G'ulomdan chaqaloqqa chiroyli bir ism qo'yib berishni so'raydi. Shoir ko'p o'ylab o'tirmay, oti Dilshoda bo'lsin, deydi. Shunday qilib Hamid G'ulom Dilshodaning vakil otasi, ya'ni ma'naviy otasi bo'lib qoladi.

Habib: "Hozir so'z oblast ijroqo'mi raisining o'rinbosari Dilshoda Sohibovna Dadajonovanning vakil otasi, mashhur shoir Hamid G'ulomga" deb e'lon qildi.

Ertalabdan beri gulxan atrofida kayfchog'lik qilayotganlar birdan jimib qolishdi.

Hamid G'ulom yetmishdan oshib ketgan bo'lishiga qaramay qaddi tik, gapga chechan, tinglovchilarni gap bilan "sehrlab" qo'yadigan, usta notiq. U minbarga chiqib odamlarga ta'zim qildi.

- Men dunyoning saksandan ortiq mamlakatini kezib kelgan Mashrabdek darbadar shoiringizman. Osiyo hamda Afrika mamlakatlarida, Ovro'poda men bormagan joy qolmagan. Yozuvchilar, davlat arboblari, mashhur rassomlar, bastakorlar bilan do'stlashdim. Men bu yurtlarda jonajon Uzbekistonimiz manfaatini ko'zlab, ular bilan talashib-tortishib qanchadan-qancha shartnomalarga, do'stona bordi-keldilarni rivojlantirishga aloqador kelishuvlarga imzo chekdim. Amirlar, prezidentlar huzurida bo'lib, konferensiyamizga keladigan arboblarning moddiy ta'minotini o'z zimmlariga olishlarini iltimos qildim. Ko'p qiyinchiliklardan keyin ularni mablag' ajratishga ko'ndirdim. U tomonlarda xalqning nochor ahvolini ko'rib, O'zbekiston deb atalgan jannat yurtda tug'ilganim va shu yurtda voyaga yetkanimga ming-ming shukronalar aytdim. Namangandek go'zal shahar husniga husni vobasta Dilshodaxon qizimning mehri meni bu galgi uzoq safardan olib qoldi. Biz Dadajon Sohibiy bilan qizimizga go'zal xulq, odob berdik. Va nihoyat uni internatsionalizm ruhida tarbiya qildik. Aziz va muhtaram namanganlik jigarlarim, men shu kichkinagina nutqimni she'r bilan yakunlamoqchiman.

Kimki O'zbekiston desa tilda bol,
Ko'ksini tog qadar ko'tarar iqbol.
Ming fazilat bergan Alloh insonga
Xam oddiy fuharo va ham sultonga...

Kuyganyordagi bog'imda shiyponga chiqib Qoradaryoning ayqirib oqishini tomosha qilaman.

Keyingi kunlarda daryo qirg'og'ini chumchuq bosib ketdi-Kanal miroblari suvi chekinib, ochilib qolgan orolchalarga sholi ekishgan. Hozir ular o'rib olgan bog'-bog' sholilarni shundoqqina shiypon tagidan orqalab olib o'tadilar.

Chumchuqlar to'kilgan sholi donlarini talashib-tortishib cho'qib yuradilar.

Ularga loqdek qop-qora bir chumchuq aralashib qolgan. Boshqa chumchuqlar uni yotsirab cho'qib haydaydilar. Oxiri uni tashlab boshqa yoqqa uchib ketadilar. Qora chumchuq esa ulardan qolmaydi. Qanchalik cho'qib haydamaslar bari bir o'zini ular to'dasiga uraveradi. Ajab! Bu qandoq sir-sinoat bo'ldi?

Urush arafasi edi. Bozordan karnaygul ko'chatlarini olib kelib hovlimga ekkandim. Shu gulning hidini nihoyatda yaxshi ko'raman. Ko'pchilik uni nazarga ilmay qo'ygan. Har xil atirgullar o'shanda juda obro' topgan paytlar edi. Mahallada ham, rayonda ham hech kim karnaygul ekmasdi. Oq, qizil, zangori, sariq, targ'il gullar orasida bittasi amirkon kovushdek qop-qora bo'lib ochildi. Hidi ham boshqacha. Ayniqsa oftob tushganda ajib bir hid hovlini tutib ketadi. Qo'shnilarim bu hid qaydin kelyapti, deb hovlimizga bosh suqadilar.

Urug'ini chumchuq cho'qib ketmasin deb kechgacha qo'riqlab o'tiraman.

Demak bundan ko'p yillar oldin qayerdadir shunaqa gul bo'lgan. O'ziga mos iqlimni kutib yotgan. Shunday bir sharoit bo'lganu uyg'onib ketgan.

Qirqinchi yillar bo'lsa kerak, "Ogonyok" jurnalida negr bola tuqqan oq tanli bir yosh ayolning qopqora bola ko'tarib turgan suvrati bosilgan edi.

Vashingtonda mashhur "nasli toza" millioner oilasida bunaqa bola tug'ilishi ko'p shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Yosh ayolni buzuqlikda ayblaydilar. Avlod shajarasining so'nggi bo'g'iniga dog' tushirgan, deb undan yuz o'giradilar.

El oldida bosh ko'tarolmay qolgan millioner ota shajara kitobini varaqlaydi.

Bundan uch yuz o'ttiz bir yil avval bobolarining qora tanli bo'lgani to'g'risidagi yozuvga ko'zi tushadi...

Qarang, qora chumchuk, kora karnaygul, qora tanli chaqaloq. Tasodifmi, nima?

"Qazisan, qartasan, asli naslingga tortasan" deb bsjiz aytmagan ekanlar-da, dsb o'ylab qolaman.

Ertalab Dadajonova Hamid aka bilan ikkovimizni O'lmasni ko'rgani dachaga olib ketdi.

Dachaning xonalari xam, keng-uzun yo'laklari xam birdek issik. Allaqachon soqolini olib galstuk taqib olgan O'lmas nimanidir o'ylab aylanib yuripti. Vrach yoniga kelib tomog'ini ushlab ko'radi, ko'ylagi ustidan ko'kragi-ga quloq tutib xirillash tomog'ining

qayeridan chiqayotganini bilmog'chi bo'ladi.

Nazarimda tomog'ining xirillashi bir qadar kamaygandek edi.

- Toshkentga ketmasam bo'lmaydi. Zuhro xavotir olayotgan bo'lsa kerak.

- Vodiya samolyot uchmayapti. Maxsus samolyotimizga xam ruxsat yo'q. Jo'rabekov O'shga uchib kelgan. Andijonga kelolmay o'tiripti.

Agar O'lmas bir amallab O'shga borib olsa Toshkentga uchib ketishi mumkin edi. Lekin buning aslo iloji yo'q. Har qanday usta, tajribali, tavakkalchi shofer ham O'shga borishga jur'at kilolmasdi. O'lmasni bir narsa tashvishga solardi. O'shga yo'l ochiq ekan deb Zuhro samolyotda yo'lga chiqib qolsa nima bo'ladi? U telefon qilmasdan oldin o'zim qo'ng'iroq qilib tinchitib qo'yishim kerak. Bilaman, u xozir dachaga qo'ng'iroq qiladi, deb ishonardi.

Shifokor unga qaynoq sut ichirdi. Turshakdek saryog' solingan qaynoq sutni darrov yutmasdan tomog'ida uzoqroq ushlab turishini tayinladi. Shu payt telefon zarb bilan jarangladi. Navbatchi qiz trubkani oldi, kim bilandir gaplashib, trubka mikrofonini kafti bilan bosib, O'lmasga dedi:

- Kelin ayam sizni so'rayaptilar.

O'lmas trubkani olar ekan, vrach unga qo'l harakatlari bilan xayajonlanmang, o'zingizni bosib gaplashing, ishorasini qilardi.

- Zuhro, sizmisiz? Men O'lmasman, tinchmisizlar? Umida nima qilyapti...

Saryog'li qaynoq sutning ta'sirimi, O'lmasning ovozi nihoyatda tiniq chiqardi. Zuxro nimalardir deyapti. O'lmas boshini qimirlatib quloq solyapti.

- O'zim telefon qilmoqchi edim. O'shga ucha ko'rmang. Andijon - O'sh yo'lini quyuq tuman bosgan. Ahvolim yomon emas.

Yonimda shifokor, xamshira bor. Tashqariga deyarli chikmayman. Dilshoda opa iuxovoy ro'mollarini berganlar. Hozir yonimdalar. Sizga salom aytyaptilar. Mana, o'zlariga beraman.

O'lmas trubkani Dadajonovaga berdi. Ikki xotin biri Toshkentda, biri Namanganda rosa o'rischa-o'zbekcha aralastirib gaplashishardi.

- Ne nado, ne nado blogodaritCH. Qo'ysang-chi, eto prosto chelovecheskiye otnosheniya i vsyo! O'zing qalaysan? Kak Umida?

Pereday yey privet ot menya, deyapman. Naverno tm soshkuchilasCH po muju. Yaxshi, juda yaxshi ahvoli. Zdorov kak bmk. Mana gaplash. Hozir trubkani o'ziga beraman. Telefon qilib tur, xo'pmi?

Zuhro O'lmasni ko'p gapga tutmadi. Tomog'i xirillab qiynalmasin, deb ayadi.

- Bo'пти, Zuhro, o'zingizni ehtiyot qiling.

Ana shu gapdan keyin Toshkentda Zuhroning, Namanganda O'lmasning ko'ngli taskin topgandek bo'ldi.

Derazani ochib tashqariga qarayman. Bino shaharning eng baland joyiga qurilganidan tuman uning sathigacha chiqqanu buyog'iga qurbi yetmay holdan toygan edi.

Dacha xuddi tuman dengizi ustida qalqib turgan kemaga o'xshardi.

Habib Sa'dulloning nihoyatda vafodor do'stlari ko'p edi. Mehmon keladigan bo'lsa, albatta, ularning hammasini chaqirardi.

Havoning bunaqa keskin aynigani, mehmonlarning kelish-kelmasliklari aniq bo'lmagani, kelsa ham uzoq o'tirmasliklari sababli ularni chaqirmagandi.

Davolayotgan vrach O'lmasning shu sovuq tumanda borishiga ruxsat bermadi.

Boshqa mehmonlar yayrab o'tirishibdi.

Akademik Tursunboy Rashidov suhbat shirin, ayniq-sa jindek "otib" olgandan keyin o'zini qo'yib yuboradi.

- Andijonning "Bog'ishamoli"ni o'rmonga aylantirish zarur. Unga ildizi baquvvat daraxtlarni ko'p ekish kerak. Odamlar adir yonbag'irlariga imoratlar qurib olishgan, pastlikda mahallalar paydo bo'lgan. Mabodo yer surilsa - ko'chki bossa uylar ham, odamlar ham tuproq tagida qoladi. Kuchli nasoslar yuqoriga tinmay suv tortyapti. Odamlar tez hosilga kiradi deb shoftoli bilan bodom ekib tashlaganlar. Bu daraxtlarning ildizi yuza, yonboshidan oyog'ing bilan bossang ildizi yuqoriga chiqib qoladi. Chinorni ko'p ekish kerak. Ildizi ilonga o'xshab yer tagiga o'rmalab kirib ketadi. Buralib-buralib yerni mahkam quchoqlab oladi. Ko'chki bo'lishiga yo'l bermaydi. Men o'zim seysmolog olimman, bilaman. Andi-jon aktiv seysmik zona. Kattalarimizga aytib u joyga bitta kichkina seysmik stansiyacha qurishga ruxsat olib bersangiz. Falokat yuz bergandan keyingi "attang"dan foyda yo'q.

Hamid G'ulom bunaqa joylarda nihoyatda ulfatning guli bo'ladi. Olimning intihosiz gaplari uning og'iz ochishiga imkon bermasdi.

- Tursunboy aka, bir maslahat. Akademiyaning ilmiy kengashini 6u ichkilik bor joyda emas, Toshkentda, olimlar davrasida o'tqazsak durust bo'larmidi deyman-da...

Rashidov ezmalik qilib, odamlarni zeriktirib qo'yganini sezdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr so'radi.

Baribir Hamid G'ulomga so'z navbati kelmadi. Dasturxonga osh tortildi. O'lmas kelmagani uchun tomog'imdan ovqat o'tmadi.

Baxtiyor Boboyev juda talantli rassom. O'zbek urf-odatlarini bilib-bilib, tasvirga tushiradi. U she'riyat nonini yeb o'sgan bola.

Otasi do'stimiz Mamarasul Boboyev o'zbek she'riyati rivojiga katta hissa qo'shgan shoir edi.

Ko'pchilik rassomlar kabi Baxtiyor ham ichkilikka ruju qo'ygan. Bu hol rassomlar olamida u qadar nuqson sanalmaydi.

Hozir u to o'rtaga osh kelguncha bitta shishani bo'shatib, oshga fotiha o'qilguncha ikkinchi shishani yarimlatib bo'lgandi.

U ichsa ham gapidan adashmasdi. Hatto ichgani sezilmasdi ham. G'ayratiy domla aytganlaridek, yuvoshgina, shiringina beozor mast bo'lardi.

Dachaga kelganimizda O'lmas:

- Meni deb siz ham osh yemabsiz. Zuhroga telefon qilib olay, keyin yengilroq bir ovqat tashkil qilamiz - dedi.

Tuman shu qadar quyuqlashgan ediki, dachani oppoq paxtaga o'rab qo'yganga o'xshardi.

* * *

Shahar ichki ishlar bo'limining boshlig'i polkovnik Abduqahhor G'apporiy ko'p dilbar, ko'ngli ochiq yigit. U respublikada taniqli qo'shiqchi shoirlarning biri. Toshkentda ishlagan paytlarida O'lmas bilan bordi-keldi qilib turgan.

Shaharni tuman bosgandan beri G'apporiyning tinchi buzilgan. Mashina to'qnashuvlari ko'p. Bolalar bog'chalariga maxsus militsiya xodimi qo'yilgan. Sho'x bolalar chiqib ketib, tumanda adashib ko'p tashvish orttirgan paytlari ham bo'lgan.

Jamiki yo'l harakati xavfsizligi xodimlari oyoqqa turgan. G'apporiy shu ishlardan ortinib, ikki-uch marta Ulmasning holidan xabar olib ketdi.

- Qanaqa yumush bo'lsa, tortinmay buyuraveringlar, вЂ” deb qayta-qayta tayinlagan.

Maslahat bilan O'lmasni poyezdda jo'natadigan bo'ldik. Shahar oppoq tumanga burkangan, dachadan ikki qadamgina naridagi

vokzalga yetib borish bir muammo bo'lib turardi.

Dadajonova G'apporiyga telefon qildi. Xayriyat, ishxonasida ekan.

- Xizmatigiz kerak bo'lib qoldi, shoir. Shefni Toshkentga jo'natishim kerak. Tumanda vokzalga qanday boramiz, deb boshimiz qotib turipti.

- Bu ishni menga qo'yib beringlar. Hozir dachaga yetib boraman.

U o'n besh minutlarga qolmay yetib keldi. Qancha odam ketadi, kimlar bilan ketadi, surishtirib, keyin vokzal boshlig'iga qo'ng'iroq qildi:

- Oqsoqol, ikkita kupeni yaxshilab tozalating. Dizenfeksiya qildiring. Yangi, hali pechati buzilmagan ko'rpa-to'shaklarni tayyorlab, ikkita elektr pechi topib qo'ying. "Yoz yomg'iri"ni o'qigansiz. Ha, balli. Siz bilan men to'g'rimizda yozilgan. "Sevgim - sevgilim"nichi? Attang, o'qimabsiz-da. Deputatlar xonasidagi qizlar yig'lab-yig'lab o'qishyapti, deysizmi? Siz ham o'qing. Mana shu kitoblarni yozgan akaxonimizni kuzatamiz. U kishining toblari yo'q.

Bilasiz, militsiya o'qi o'zgan xalq. Bu ham kamlik kilgandek, u militsiya polkovnigi bo'lsa. Boz ustiga shahar yo'l harakati xavfsizligining boshlig'i bo'lsa, temir yo'l stansiyasining tinchligi unga bog'liq bo'lsa va yana kattakon shoir bo'lsa. Uning o'qi o'zmay, kimning o'qi o'zsin?!

- To Toshkentga yetguncha kupedan qaynoq choy uzilmasin. Yaxshi, pokiza, xushmuomala provodniklardan qo'ying. Bemorni Toshkentda katta professorlar kutishyapti. O'lmas haddi sig'ib, yana bir iltimos qildi:

- Ortiqcha erkalik qilayotganim uchun uzr so'rayman. Bizni Andijonda kutishyapti. Sheriklarimizning Andijonga yetib olishlariga xam yordam qilsangiz.

G'apporiy papag'ini bir tomonga surib, chakkasini qashidi:

- Bir urinib ko'ramiz. "Baliqchi"dan o'tish og'ir. U yerdan ikkita daryo o'tadi. Biri Qoradaryo, biri Norin. Vodiya tuman eng quyuq bo'ladigan joy. "Chinobod"ga o'tib olgandan keyin to "Oltinko'l" gacha tuman siyraklashadi. O'n besh-yigirma qadam yo'l bemalol ko'rinib

turadi. U yog'iga tuman yana quyuqlashadi. "Mingbuloq" gaz fontanini to'xtatgan, uni muttasil kuzatib turadigan mutaxassisning yuragi xuruj qilib qoldi. Juda opitniy shoferlarimiz uni shu tumanda zudlik bilan Andijon klinikasiga oborib qo'yishdi. Bu ishni xam shularga topshiramiz.

O'lmas menga qaradi. Uning aytmoqchi bo'lgan gapidan xijolat bo'layotgani bilinib turardi.

- Sizdek yoshi ulug' odamga ish buyurayotganimdan xijolatman. Uyg'a telefon qilsam trubkani xech kim olmadi. Zuhro Namanganga yo'lga chiqmadimikin, deb xavotirdaman. Iltimos, xafa bo'lmang, siz shu yerda qoling. Zuhro telefon qilsa, Namangan b 8" Toshkent poyezdida ketdi, deng. Ertalab deputatlar xonasida kutsin. Agar u telefon qilolmasa, o'zingiz qo'ng'iroq qilib, shu gaplarni aytib qo'ying.

Yo'lga chiqqanimizdan beri uyimga biron marta qo'ng'iroq qilmagan edim, endi telefon qilyapman. Nodira trubkani oldi.

- Nega telefon qilmaysiz? Yengil kiyinib ketgan edingiz. U tomonlarda sovuq qattiq, deb eshitdim. Andijon poyezdining boshlig'i Soliyev degan o'rtog'ingiz telefon qilib, issiq kiyimlarini opchiqinglar, olib ketaman, dedi. Nashida opam xam shu poyezdda ketadigan bo'ldi. Akrom tog'am o'rtoqlari bilan chiqib, kutib oladi. Issiq kiyimlaringizni opamga tugib berdim. Toshkentdami? Har kuni charaqlab o'tob chiqyapti.

- Hozir biz Namangandamiz. Ertaga Andijonga o'tamiz. Hammayoq tuman, hech narsa ko'rinmaydi. Havo sovuq. Sheriklarimiz kuyovlarga o'xshab to'n kiyib yurishipti. Aytganicha, Dilshoda opa seni, Kamolani ko'p so'radi. Andijonga borganimizdan keyin albatta yana telefon qilaman. Hammani so'rab qo'y. Ayniqsa Kamolani. Xayr.

Telefon jaxl qilgandek, zarb bilan jiringladi.

Trubkani olib, - labbay, eshitaman, - dedim.

- Iltimos, Umarbekovni chaqirib bersangiz.

Bu Zuxroning ovozi edi. Men telefonni sal ko'proq band qildim shekilli, o'shanda bir-ikki marta chaqirgan bulsa kerak.

Ovozimdan tanib qoldi. "Meni kechiring. O'lmas akamning ahvoli qalay? O'zlari bilan bir gaplashay", - dedi.

- Zuhroxon, tashvishlanmang, ahvoli yaxshi. Uni xozir Namangan b 8" Toshkent poyezdiga opchiqib ketishdi. Ko'pchilik bo'lib Toshkentgacha kuzatib borigaadi. Dokgor, xamshira, yana to'rt odam alohida ikkita issiq, pokiza kupeda ehtiyotlab kuzatib borishadi. Ertalab Zuxro deputatlar xonasida meni kutsin, deb menga tayinlab ketdi. O'lmas bir kun professorlarga ko'rinib, ertasigayoq Andijonga kelmoqchi. Iltimos, yubormang. Hosil bayramini o'zimiz o'tkazaveramiz. Kelsa, sovukda kasali avj olib ketishi aniq. Sog' odamni ham kasal qiladigan xavo bo'lyapti. Tushundingizmi? O'tinib so'rayman, yubormang. Xayr.

Dachada olti kishi qoldik. Bemor odamning ko'ngli nozik bo'ladi, deb hammamiz O'lmasni ehtiyot qilish bilan ovora edik. U shu topda poyezdga chiqyapti. Hozir Toshkentga jo'nab ketadi. O'zi bilan tashvishlarimizni ham olib ketyapti.

Endi hech qanday tagavishim qolmadi. Fikr-o'ylarimdan va yana nimalardandir ajralib qolganiga o'xshayman. Ko'nglim bo'm-bo'sh.

Shunda xayolimga g'alati bir fikr keldi.

"Agar hamma ishing bitib tashvishing qolmagan bo'lsa, endi o'zingga boshqa bir tashvish o'ylab top. Yoxud kimningdir tashvishiga sherik bo'l. Inson tashvishsiz yashayolmaydi. Uni oyoqqa turg'izadigan ham, harakatga soladigan ham shu tashvishdir".

Sheriklarim jimgina o'tirishipti. Ular ham menga o'xshab tashvishini yo'qotgan. Bu dunyoga g'animat, uch-to'rt kunlik "mehmon" O'lmasning ko'nglini olish bilan yashadilar. Endi U Toshkentga hammamizning tashvishlarimizni olib ketyapti.

Qarang! Bu dunyoda tashvishsiz yashamoq naqadar zerikarli!

Hamid G'ulom ikki tizzasiga shapillatib urib, o'rnidan turdi.

- Endi nima qilamiz? Bu yerga birov kelolmasa, o'zimiz biron joyga borolmasak, zerikib o'lamiz-ku, Bitta yo'l bor. Bu Baxtiyorning yo'li.

- E, yashavoring-e, - dedi Baxtiyor. - Qandoq yashashni rassomlardan o'rganish kerak.

Har galgidek Umarali 6u maslahatga xam ko'nmadi.

- Qo'yinglar, shu paytda ko'nglingizga ichkilik sig'adimi? Yaxshisi shaxmatmi, dominomi o'ynanglar.

Umaralining gapi o'tmadi. Baxtiyor shishaning qopqog'ini tishi bilan allaqachon ochib bo'lgan edi.

U yoqqa ag'anadim, bu yoqqa ag'anadim, oxiri uxlab qolibman.

Tushimga Stalin kiripti. Yeli chiqib ketgan velosipedni yetaklab kelayotgan emish. Mendan, kamera yamaydigan ustaxona qayerda bor, deb so'radi.

Shu payt qaydandir Anvar Eshonov paydo bo'ldi. Hozir yamatib kelaman, deb velosipedni g'ildiratib ketdi.

- Men o'lganimdan keyin Nikita oilangga xizmat qilib tursin, deb bitta mashina berib qo'ygan edi. Shuni ham Brejnev olib qo'yipti. Qizimning velosipedini vaqtincha minib turibman. Bugun Toshkent televizorida Yormatov degan bittasi og'ziga nima kelsa qaytarmay, rosa javradi. Go'yo Gitler bir o'zbek shoirini "Qizil maydon"da dorga osmoqchi bo'lganlar ro'yxatiga kiritgan emish. Bu ro'yxatdan xabarim bor. Razvedka bir nusxasini topib kelgan edi. Unda bir nechta davlat arboblari, sarkardalar, ixtirochilar qatorida IICHya Erenburg bilan Ittifoq radiosining mashhur diktori Levitan ham bor. Agar tirik bo'lganimda o'sha Yormatov deganni shaharning ovloqroq joyiga oborib, bironta qarag'ayga tilidan osib kelardim. Afsuski o'lib ketganman-da, ilojim yo'q. Anvar kamerani yamatib keldi. Stalin "Velosiped minish sog'liqqa foyda", deb qizining damskiy velosipediga minib jo'nab ketdi. Umarali men bilan domino o'ynamoqchi bo'lib kirgan ekan, qutichasi qo'lidan tushib ketib uyg'otib yubordi. Ko'rgan tushimdan garangsib turardim. Shunda Pushkinning "Nelar kelmas mudroq xayolga" degan so'zlarini esladim.

Ertalab O'lmas Toshkent vokzalining deputatlar xonasidan telefon qildi.

- Domla, kecha bir ishni xom qilibmiz-da! Poyezd

Andijonda yarim soatdan ortiq to'xtab o'tishini aytish hech kimning esiga kemapti. Sizlar ham men bilan poyezdga chiqaversanglar bo'lar ekan. G'apporiy qaysi poyezd, kaysi stansiyada qancha turishini yaxshi bilardi. Ming xil tashvish bilan bo'lib, shu gapni aytish esidan chiqib qolgan bo'lsa kerak.

Lekin mening esimda bor edi. Umarbekov xotinim tumanda yo'lga chiqib, sarson bo'lib qolmasin, siz shu yerda qolib unga poyezdda ketayotganimni albatta xabar qilib qo'ying, deb qayta-qayta iltimos qilganidan, demak, birga ketmas ekanmiz-da, deb tushunib bu gapni aytmagan edim.

- Bugungi poyezdda Andijonga kelib olinglar. Telefon qilib aytaman. Kutib olishadi, - dedi.

Unga bugun poyezdda borishning iloji yo'qligini, Chust orqali keladigan poyezd Namanganga kirmay Chortokdan Uchqo'rg'onga burilib, keyin Andijonga yetmay turib "Xarko'p" qishlog'idagi "Ikkinchi Andijon" stansiyasiga kelishini, qarshisidan keladigan har bir "qalang'i-qasang'i" sostavga qo'l qovushtirib, yo'l beradigan, juda noshud, juda epsiz poyezd ekanini tushuntirdim.

- Bir kun ming kun bo'lmas. Ertaga sen ketgan poyezdga chiqamiz, - dedim.

Saksoninchi yillarning boshlarida bo'lsa kerak, yozuvchilarning ijod uyida berilib ishlayotgan paytlarim. Ko'p qora kunlardan keyin endi tinchgina yashayman, deganimda Saidaxon olamdan o'tib, bittagina qizim bilan ikkavimiz mung'ayib qoldik.

Ish bilan, yozuv-chizuv bilan ovunaman. Tirikchilikdan nolimayman. Mehnatimga yarasha qalam haqi olib turibman.

Qizimni uzatganman. Nevara ham ko'rganman. Ijod bog'ida tinchgina u-bularni yozib, betashvish yurgan paytlarim edi.

Uyushmamizning raisi Yashin aka men bilan gaplashish uchun atayin kepti. U gapni uzoq aylantirib, oxiri Abdulla Qahhorning bog'ini siz sotib oling, deb qoldi.

- Uni akademiyaning prezidenti Salohiddinov sotib olgan edi. Ikki-uch kundan beri ko'rinmay qoldi.

- Yuqoridagi eng katta aka, bu bog'da faqat yozuvchi yashashi kerak, Salohiddinovga yotig'i bilan aytinglar, ko'chib ketsin, dedilar.

- Nima uchun men bu bog'ni olishim kerak. Mendan boshqa yozuvchi yo'qmi? - dedim xayron bo'lib.

- Ularning puli yo'q. Har qalay sizning belingiz baquvvat.

- Cho'ntagimdagi pullarni sanab yurgan ekansizlar-da.

Yashin aka nima deyishini bilmay o'ng'aysiz bir holga tushdi.

- Bekorga ovora bo'libsiz, oqsoqol. Kibriyo opa boqqa allaqachon xaridor topib qo'ygan. O'rta osiyo va Qozog'iston musulmonlarining diniy nazorati raisi muftiy Ziyovuddinxon Boboxonov odamlari bilan kelib qayerga azon aytadigan minora, qayerga yozlik minbar qiligani mo'ljallab ketishdi.

Yashin akaning bu gapdan xabari yo'q ekan bo'shshib qoldi. Ijod uyi direktorining kabinetiga kirib qayergadir telefon qilmoqchi bo'ldi, bo'shshib qaytib chikdi.

- Kattamiz band ekanlar, gaplasholmadim. Bugun albatta gaplashib bu savdo-sotiqni to'xtattiraman...

Gapimiz chala qolib, Yashin aka shaharga jo'nab ketdi. Ertasiga u yana keldi.

- Katta rahbarimizga bog'ni siz olayotganingizni aytdim. Ma'qul, dedilar.

- Men sizga bog'ni olaman, deb aytganim yo'q edi-ku.

Yashin akaning jahli chiqqandek bo'ldi.

- Xo'p deysizmi, yo'q, deysizmi, endi foydasi yo'q. G'isht qolipdan ko'chgan.

- Olmayman. Menga kichkinagina bog'cha bo'lsa yetadi. Bu katta bog'ni eplolmayman. Olma sotib, shoftoli sotib tirikchilik qilish qo'limdan kelmaydi. Men yozuvchiman, bog'bon emasman. Bola-chaqam ko'p bo'lsa boshqa gap edi... Uyg'un aka anchadan beri boqqa ko'z tikib yuripti. Ushanga sotinglar.

- Abdullajon Uyg'unni xush ko'rmasligini bilasiz-ku. Kibriyoxonim o'laqolsa unga bog'ni sotmaydi. Siz gapdan qaytmang, Katta aka bir gapini ikki qiladiganlarni yoqtirmaydi.

Ana shundan beri tinchim buzilgan. Kibriyoxonim tezroq oldi-sottini rasmiylashtirib qo'yaylik, deb tiqilinch qila boshladi.

Hujjat qo'limga tekkandan yigirma kun o'tar-o'tmas bog' ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Shundoqqina ayvon to'g'risiga ijod uyi uchun yangi ko'p qavatli bino qurish ishlarini boshlab yuborishdi. Mendan o'n metrcha narida tog'-tog' tuproq uyumlari paydo bo'ldi.

Yangi binoning podvali uchun yiqilib tushgan odam sog' chiqishi gumon xandaqlar qazildi. Ishni kanalizatsiyadan boshlash kerak ekan. Bog'imning qoq belidan ikki tegirmon suv yuradigan transheyalar qazib, quvurlar yotqizishdi. Qancha mevali daraxtlar qo'porib tashlandi. Daraxtlarning ildizlari ochilib koldi. Transheya qazigan traktor betoi devorni parchalab chiqib ketganicha qaytib kelmadi. Quruvchilar tushlikni bog'imga opkirib, gullar orasida yonboshlab ovqat qiladilar. Ular o'zlari bilan olma olib ketish uchun xalta, uzum olib ketish uchun paqir ko'tarib kelishgan.

Traktor kavlab, ko'mmay tashlab ketgan transheyalar suvga to'ldi.

Yashin akani qidirib uyushmaga bordim.

- Boshimga bu kulfatlarni siz soldingiz. Bog' vayronaga aylandi, - dedim.

- Tashvish qilmang. Hammasini to'g'rilaymiz. Qurilish ministriga aytaman. Hamma ish orasta bo'ladi.

Quruvchilar bog'ni "o'ziniki" qilib olganlar. Anorlarni xom-xatala uzib olyaptilar. Shig'il meva qilgan to'rt tup behining shoxlari yalang'och bo'lib qoldi.

Sarvar Azimov ijod uyiga xech kimning mashinasi kiritilmasin, bog'ni mashina turadigan avtostoyanka qilamiz, degan topshiriq beripti.

Yashin aka va'da qilgan qurilish ministri odamlari kech kuzda yomg'ir avjga chiqqan, hammayoq pilch-pilch loy bo'lib ketgan paytda keldi. Transheyani ko'mishga kelgan traktorning o'zi loyga tiqilib qoldi. Uni boshqa traktor shatakka olib opchiqib ketdi. Bu bog' boshimga bitgan balo bo'ldi. Matyoqub Qo'shjonov bog'ning hech joyi o'zgarmasin, uni muzey qilamiz, deb gapirmagan majlis, yozmagan gazeta qolmadi.

Quruvchilar bog'ni vayron kilib, daraxtlarni qo'porib tashlayotganlarida, olmayu anorlarni shoxi bilan sindirib qop-qop qilib olib ketayotganlarini ko'rib turib, nega indamadi? Bog' o'rtasidan kanalizatsiya o'tqazib hammayoqni qazib tashlaganda, devorlarni buzib, suv bostirib tashlaganda, nega bunday qilyapsizlar demadi?

Yangi korpusni qurayotgan ishchilar, ustalar gullarni payhon qilib uzumlarni yashiklarga solib, anorlarni, behilarni qop-qop qilib olib ketayotganlarini ko'rib turgan "Abdulla akaning himoyachisi" Matyoqub nega churq etib og'iz ochmadi? Agar shunchalik joning achishayotgan ekan, bog'ni talonchilardan himoya qilmaysanmi!

Yo'q, unday qilolmaydi. U faqat qayerda majlis bo'lsa atayin borib, bog'ni Said Ahmad vayron qilyapti, deb dod solishni biladi. Bu xali holva ekan. Eng tashvishli, eng qiyin savdo qor yoqqanda boshlandi. Ertalabgacha ayvonni tizza bo'yi qor bosadi. Darrov kurab tashlamasang, ustiga yana qor yog'ib belinggacha chiqadi. Taxta polga muzlab yopishib qolgan qorni kurab bo'lmaydi. Garajning tomi ham shu ahvolda. Garajga mashina qo'yib bo'lmaydi. Taxta orasidan oqib tushadigan qor suvi loyqalanib mashinani tanib bo'lmaydigan qilib yuboradi.

Ayvon panjaralarini olib tashlab, bir stol bo'yi g'isht devor qildik. Tepasiga to shiftgacha rom o'rnatib oyna soldirdik. Bo'yab bir chiroyli qilib qo'yganimiz Kibriyo opaga yoqmadi.

- Abdulla akangizni eslatadigan hech narsa qolmapti. Hatto shiftdagi fanerni ham boshqatdan bo'yatibsiz.

Jahlim chiqqanini ko'rib, Kibriyoxonim sal-pal tushungandek, besh-o'n kun indamay, ishlarimdan xato topmay yurgandek bo'ldi. To'qson uchinchi yili Abdulla akani xotirlab jonliq so'yib, u kishini qadrlaydigan yetmishdan ortiq odamni chaqirib, dasturxon yozdim.

Kibriyo opa dasturxonimiz quruk bo'lmasin, deb gaz plitada elliktacha patir-qatlama yopib berdi. Qarindosh-urug'larimdan ayollar xilma-xil pishiriqlar ko'tarib kelishdi. Dasturxonda piyola qo'yishga xam joy qolmadi. Shu bugun so'yilgan qo'yning ichagidan hasip solingan.

Kibriyo opa o'tirganlar oldiga borar, patir qandoq bo'пти, qatlama qandoq bo'пти, yoqdimi, deb birma-bir so'rardi.

Ulmas kulibgina opaning harakatlarini kuzatib o'tiripti.

Kibriyo opa ijod uyining eski binosida dam olishga kelgan. Boloxonaga chiqib yo bo'lmasa lipa tagida boqqa qarab nimalarnidir o'ylab o'tiradi.

Bilaman, bu bog'da, uyda, ayvonda uning yoshligi, eng baxtli, osuda, beozor kunlari o'tgan. Shu daraxtlarni, shu gullarni o'z qo'li bilan ekan. Ularni ko'rganda Abdulla aka bilan birga kechgan mas'ud kunlar jonlangandek bo'ladi. Shuning uchun bu joyda hamma narsa o'sha paytdagidek bo'lishini istaydi.

Opa daraxtlar ham odamga o'xshab qarishini, qurib o'tinga aylanishini tasavvur qilolmaydi. Ko'p daraxtlar qarib, umrini tugatgan. Quruvchilar qanchadan-qanchasini qo'porib tashlaganlar. Uch tup qarag'aydan boshqa u ekan daraxt qolmagan.

Faqat garaj biqinidagi Abdulla aka yaxshi ko'radigan, negadir chumchuq cho'qimaydigan, hozir qarib hosildan qola boshlagan gilosdan kurtak olib, olchaga payvand qilganman. Uni mehmonlar o'tiradigan joy yoniga ekib, bemalol qo'l cho'zib uzib olsa bo'ladigan, shoxlari dasturxon ustiga egilib turadigan qilib o'stirganman.

Uyg'un olamdan o'tgandan keyin u yashagan dachani O'lmasga berishgan edi. U bilan har kuni ko'rishib turamiz. Bugun O'lmas, bir osh qilmaymizmi, deb qoldi.

- Yangi so'yilgan qo'y go'shti solamiz.

- Bo'пти. Qibrayga chiqib, qo'chqor go'shti topib kelamiz, - dedim. - Sovliqning yog'i oshni buzadi.

Ikkovimiz Qibrayga bozor qilgani chiqib ketdik. Qibraydan to Qizil ko'prikkacha beshta go'sht do'konida faqat sovliq go'shti bor ekan. Qizil ko'prik samovarchisi juda shinavanda odam. Uyida doim qo'chqor so'yib choyxonaga olib chiqadi. U bizni ko'riboq, bitta choyni ermak qilib turinglar, hozir bolalar olib chiqishadi, deb oldimizga choy bilan patnisda u-bu keltirib qo'ydi.

Kattakon dasturxonda ikki kishi hali suyagiga bolta tegmagan yalang'och qo'chqorni ko'tarib kelishdi.

- Yog'idan besh kilo, go'shtidan ikki kilo, to'shining hammasini shilib berasiz, agar tozalangan po'stdumba topilsa, undan ham biron ikki kilo...

U chakkasini qashlab bir oz turib qoldi.

- Tozalangan po'stdumba 6or-u, ammo bironing buyurtmasi edi-da. Mayli, sizlarga buyurgan ekan. Bozordan to'g'ralgan sabzi olmanglar. Ichi po'k bo'lib qolgan sabzilarni to'g'rashadi. Abdujabbor og'ayningizni oldiga kiring. Tog'dan zo'r sabzilar oldirib kelgan. Suvning narigi beti - sabzavot bazasi. Boshlig'i Abdujabbor og'ayningiz-ku. So'rasangiz yo'q demaydi.

Bazaga kirdik. Abdujabbor Abdulla akani xotirlash kuni O'lmas bilan tanishib qolgan edi. Bizni ko'rib sevinib ketdi. Unga maqsadimizni aytdik.

- Bizda kilolab mol sotilmaydi, necha qop sabzi kerak? - dedi kulib. - Rizqi ulug' odamsizlar-da, qor tagiga bostirilgan sabzilardan o'tgan kuni besh-olti qop oldirib kelgan edim. Bir qop yetadimi? E, unaqa maydakash bo'lmang-da, xech bo'lmasa yarim qop olib ketinglar. O'ratepaliklar qorga aralashtirib ko'mib qo'yan sabzilarni bojxonadan o'tkazolmay, o'tgan kuzdan to shu kungacha saqlab o'tirishipti.

Abdujabbor mashina yukxonasini o'zi ochib, yarim qop sabzini qo'ydi. Karton qutida yana nimalarnidir joyladi.

- O'lmasjon selitrli narsa yemasin. Alohida buyurtma qilib ektirgan bodring, pomidorlardan qo'ydim. Sijjak ariqlarining bo'yida hali ham yalpizlar ko'karib turipti. Aytinglar, nima ovqat qilishsin?.. Qozog'istondan vagon kutyapman-da, bo'lmasam o'zim borib osh qilib berardim.

Bir bola ikki boylam jambil olib keldi.

Abdujabborga rahmatlar aytib, orqaga qaytdik.

Ishimiz o'ng kelganidan suyunib, qaytib keldik. Lipa tagida ijod uyining direktori Sergey bizni kutib o'tirgan ekan.

- Kibriyo opa boqqa kirib ketganiga bir soatdan oshdi. Haligacha chiqmadi. Xavotir olyapman. Orqasidan kirgani xijolat bo'lib o'tiribman.

Kibriyo opa archa tagida o'tirardi. Ikki ko'zi jiqqa yosh. Bizni ko'rib, ko'zlarini artib o'rnidan turdi.

- Shu archalarning urug'ini Qrimdan opkelib ekkandim. Oltita urug'dan to'rttasi unib chiqdi. Qarang, qandoq katta daraxt bo'lib ketgan.

Kibriyo opa sabzi to'g'rab berdi. U bunaqa sersuv sab-zini qaydan topganimizga hayron. Unga bir ishqiboz oshpazning palovga bergan ta'rifini aytib berdim. "Devziraning guruchi, qora qo'chqorning go'sht-yog'i, qurbaqa minmagan sabzi, chumchuq siymagan o'tin topsang, osh oshdek bo'ladi". Bugun shu odam aytgan osh bo'ladi-yov!

O'lmas bilan ikkovimiz tunuka o'choqqa qozon qo'yib, oshga urinib ketdik. Bundan biron oy oldin yog'li qo'chqor go'shtini ziralab, muzlatgichda saqlab yurardim. O'shandan to'rt bo'lagini olib chiqdim. Dog'langan yog'da qizartirib olib qo'ydim. Vaqirlab qaynayotgan zirvaqda to sho'ri chiqib ketguncha qaynatib, yana olib qo'ydik.

- Oshni o'zim damlay, maylimi, - dedi O'lmas. «Б»Anchadan beri kapgir ushlagandim.

Damlashga yetilgan guruch ustiga sur go'shtlarni qo'yib, noyob qashqar zirasidan bir chimdim sepdi. Hammayoqni xushbo'y zira hidi tutib ketdi.

Ana shundan keyin dam tovoqni osh ustiga bostirdi.

O'lmas ko'k qalampirni yaxshi ko'rardi. Lekin uning qalampir yeyishi mutlaqo mumkin emasdi. Zuhro hech bo'lmasa mazasi o'xshaydi-ku, deb bitta ko'k bulg'or qalampirini avval bir tishlab ko'rib, keyin mayda qilib to'g'rab shakarobga soldi.

Endi yarim soatlardan keyin oshni suzimiz...

Telefon jiringladi. Trubkani oldim. Tilidan kavkazlik ekani bilinib turgan bir kishi, iltimos, Zuhro Umarbekovani chaqirib bersangiz, dedi.

Zuhro x) u bilan uzoq gaplashmadi. Trubkani qo'ydi.

- Ulmas aka, ertaga Moskvada sizni davolayotgan mutaxassislarning oxirgi maslahat yig'ini bo'lar ekan. Levon Rubenovich Pogosov bilan yetib borishimiz kerak emish. Soat to'qqiz yarimdagi samolyotga joy olishibdi.

O'lmas o'rnidan turdi.

- Qani, ketdik, Zuhro, - dedi.

- E, shoshma, oshni yeb keyin ketasan. Atigi yarim soat kutgin.

- O'lmas, bir cho'qim osh yeb keting, - deb yalindi Zuhro. - Shoshilmang, hamma ishlarigizni o'zim taxt qilaman.

- Dachaga kirib kitoblarimni, qo'lyozmalarimni olishim kerak. Uyga qarab turadigan odam topishimiz zarur. Ish ko'p.

Ulgurmaymiz.

- Bog'da ukangiz Akmaljon kolyapti-ku. Uyda singlingiz Mavjudaxon qoladi.

Baribir O'lmasni gapimizga ko'ndirolmadik.

Dam tovoqni ochib, xil-hil bo'lib ketgan sur go'shtlarni ikkita non orasiga qo'yib, qog'oz paketga soldim. Abdujabbor berib yuborgan narsalarni qaytadan korobkaga joylab qo'ydim. Zuhro "Vinogradnmy sok" shishachasini opchikib, siqqancha shakarob solib oldi.

O'lmasga osh yeyish nasib qilmadi.

"Nasib qilsa kelar Shomu Irokdin, nasib qilmas ketar qoshu qoboqdin" degan hikmatni esladim.

O'larni Kibriyo opa bilan lipa tagigacha kuzatib chiqdik.

- Rizqinglar uylaringdan uzilmasin, - deb orqalaridan qarab qoldik.

* * *

O'lmasni Yozuvchilar bog'idagi lipa tagida Kibriyo opa bilan ikkovimiz kuzatib qolgan o'sha kun to'qson uchinchi yilning ikkinchi sentabri edi.

Ana shundan keyin uni bir marta ko'rdim xolos. Uning juda ham oz qolgan umri hali Moskva, hali Toshkent kasalxonalarida chidab bo'lmas uqubatlarda o'tayotgan edi.

O'sha kuni O'lmas mening yordamimsiz o'zi osh damlayotgandi. Uning eng qadrdon do'stlaridan biri Turg'un Azizov "Jiguli"sini cho'g'i tortib yerga tushirilgan o'choq oldigacha haydab keldi. U o'rindiqdan kattaligi patnisdek qo'shqavat fanera olib Ulmasga uzatdi. O'lmas kapgiri menga berib fanerani oldi. Bu O'lmasning tizzaga qo'yib xat yozishi uchun, qayoqqa borsa chemodanda olib yursa bo'ladigan qilib tayyorlangan maxsus "yozuv stoli" edi.

O'lmas Moskva kasalxonasida qolgan, unga qanchadan qancha quvonch bergan, qo'lingizdagi "Qizimga maktublarni" hadya qilgan yozuv stolining eshigini xizmatchilar endi axlatga qo'shib qaygadir oborib tashlagan bo'lsalar kerak degan gumonda edi. Turg'unning 6u sovg'asi O'lmasga najot "eshigi" bo'lib tuyulgan edi.

Zuhro shamolni ravo ko'rmay, sovg'otganda nafasi bilan isitib Umidani yalab-yulqab o'n sakkiz yoshga yetqizib keldi.

Umida orzu-armonlardan bino bo'lgan bir sabiy. O'lmasning ruhi uni hamon g'oyibdan turib parvarish qiladi.

Bugun u tengdoshlari qatori buyuk dargoh - Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ostonasiga qadam bosadi. Bu O'lmasning orzusi edi. Ota orzusi, ota niyati, ota tilagi albatta ijobat bo'ladi.

Hozir uni dadasining ruhi kuzatib kelyapti.

Umida endi katta qiz bo'lib qolgani uchun Zuhro uning universitetga qandoq kiyinib borishini o'ziga qo'yib berdi.

Zuhro unga qarab ishqilib bolamga ko'z tegmasin-da, deb birdan ulg'ayib qolgan qiziga mehr bilan qarab turardi.

Universitet hovlisi uzoq-yaqindan kelgan yigit-qizlar bilan gavjum. Zuhroni ham, Umidani ham hech kim tanimaydi. Lekin negadir hammaning ko'zi ularda edi.

Shivir-shivir boshlandi.

- O'lmas Umarbekovning qizi.

- Xuddi dadasining o'zi-ya!

- Dadasiga judayam o'xshar ekan.

Umidaga, dadasiga o'xshar ekan, degan so'z yoqardi. Shu gapni aytgan qizga qarab jilmayib qo'ydi.

Bir qiz ular oldiga keldi. Bu bizga tanish G'upra. Hozir esa "Sevgim-sevgilim" to'g'risida diplom ishi yozayotgan G'apura Sanaqulova edi.

Endi uni tanib bo'lmasdi. Shahar hayoti boshqacha qilib yuborgan. Qirda bug'doy o'rib yurganda qorayib, sopolga o'xshab qalinlashib ketgan yuzi, piyozdek qavat-qavat lablari asli holiga qaytgan. Bo'g'ilib chiqadigan ovozi ham mayinlashgan. Bunaqa bachkanalik namunali studentga yarashmaydi deb tilla tishini oldirib qo'ygan. Og'ir mehnat hamda shafqatsiz munosabatlar qoldirgan izlarni poytaxt hayoti yuvib tashlagan edi.

Qarang-a, u juda chiroyli qiz ekan. O'tdek chaqnab turgan ko'zlari, qoramag'iz yuzlari yigitlarning esini og'dirardi.

Onasi xotinalarning chirmanda chalib "Yor-yor, yorona"lar aytib, yigitlar karnay-surnaylar, qiyiqirqlar ostida Sanaqul polvonga

27 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

uzatilgan edi. Ular qovushgan kunning ertasi "yuz ochdi" da qaynotasi "baxtli bo'ling, uvali-juvali bo'ling" deb sovg'a qilgan tilla to'g'nog'ichni onasi eng noyob esdalik deb saqlardi. Har gal qo'liga olib qaraganda o'sha unutilmas tong xuddi ko'zni qamash-tiradigan nur orasida ko'ringandek bo'lardi.

G'upra onasi o'lganda Yozyovonga yeldek uchib bordi. Barcha marosimlarni tog'asi bilan kam-ko'stsiz o'tqazdi. Akasi Aliqul portnoy sarf-xarajatlarga aralashmay "bez" bo'lib turaverdi.

Onasi yer-ko'kka ishonmaydigan o'sha to'g'nog'ichni janoza kuni kelin ayasining yoqasida ko'rib G'upra ich-ichidan yig'lagan edi. Akasi Aliqul portnoy, onasining xay-xaylashiga qaramay uning qiynalib ishlab, qiynalib o'qigan paytlarining yodgori "Oltin medalini" sandiqdan opchiqib ketib xotiniga qoplama tish qo'ydirib berganda G'upra vujud-vujudini muz qoplab, telbaga o'xshab qolgandi.

Endi uni Yozyovonga bog'lab turgan hamma iplar uzilib bo'lgan edi.

U Yozyovonga kim uchun boradi? Xasis akasini, onasidan qolgan yagona yodgor to'g'nog'ichni aza kuni taqib yurgan yuzsiz Yalpiza yangasini sog'inib boradimi?

Akasining "O'zimning yalpizdekkinam", deb erkalashlarini qo'msab boradimi?

Tog'asi Toshkentga kelganda "opaginamdan yodgorim" deb, o'zi o'stirgan nihoyatda hidi o'tkir xandalaklar, "shakarpalak" qovunlar, qog'oz qutida "ingichka bel" uzumlar, yog'li patirlar olib keladi.

Musofir yurtida pulsiz yurma jiyan, deb sumkasiga siqqancha pul tiqishtiradi.

G'apura Sanaqulova qo'li ochiq qiz edi. U tog'asi kelib ketgan kuni diplom yozayotgan qizlarga, o'g'il bolalarga dasturxon tuzab "bazmi jamshid" qilib berardi. Uning dugonalari, o'rtoqlari xam "Tog'amiz qachon kelarkinlar" deb yo'l poylaydigan bo'lib qolgandilar.

Diplomant G'apura Sanaqulova universitet gazetasida o'qishga xalaqit bermaydigan kechki paytlarda muharrir yordamchisi bo'lib ishlardi. Stipendiya hamda gazetadan oladigan tuzukkina maoshi ichmaydigan, chekmaydigan 6u qizga bemaolot yetib ortardi. Ko'pincha u dugonalarini kafega opkirib yayratardi.

Tog'a Surxon daryoning qaysidir qishlog'ida tomorqasiga bozorgir xandalaklar, chilgi qovun-tarvuzlar ekib yaxshigina daromad oladi. "Dalnoboyshik" shoferlarga, samolyoti ko'pincha yuksiz qaytadigan uchuvchilarga ko'tarasiga sotadi.

U yantoqqa tarvuz payvand qilish sirini mukammal egallagan mirishkor dehqon. Hech qanday sarf-xarajatsiz, o'zidan-o'zi xosil tug'adigan bu beminnat yantoq-tarvuzdan mo'maygina daromad oladi. Sibir tomonlarda ichi anor donasidek qip-qizil, pirojniyning kremiga o'xshash ajab g'alati ta'mli 6u tarvuzlarga "Rayskiy arbuz" deb nom qo'yib olganlar.

* * *

Ichkaridan bilagiga "navbatchi" deb yozilgan bog'ich taqqan kishi chiqib, soat o'n ikkida universitetga kiruvchi abituriyentlarni test sinoviga chaqiramiz. Birinchi, ikkinchi hamda uchinchi gruppalar ichkariga bir vaqtda kiritiladi. Qo'llaringizda bitta gunafsharang ruchkadan boshqa hech narsa bo'lmasligi kerak, - deb ogohlantirib kirib ketdi.

Ko'pchilik yigit-qizlar shoshib kafe tomon ketdilar. Ovqatni o'zlari bilan olib kelganlar skameykalarga o'tirib, ba'zilar tik turganча ovqatlana boshladilar.

Zuhro sumkasida olib kelgan kotletlarni qizi oldi-ga qo'ydi. Umida semirib ketishdan qo'rqib ovqatni kam yerdi, onasi zo'rlab uchta kotletni zo'rg'a yedirtdi.

- Bilaman, test imtihoni juda uzoq davom etishi mumkin. Yaxshilab qorningni to'yg'izib ol.

Zuxro jimjilog'i bilan yeng uchini ko'tarib soatiga qaradi. Uch minuti kam o'n ikki.

- Endi siz ketavering, opa, - dedi G'apura, b'v' sinov tugashi bilan Umidani o'zim uyga oborib qo'yaman...

- Ichkariga kirsin, keyin ketaman, - dedi Zuhro.

Umida kirib ketayotganda Zuhro uni bag'riga bosib:

Dadangni arvohi qo'llasin, bolam, deb ko'zida yosh bilan orqasidan qarab qoldi.

G'apura Zuhroni taksiga o'tqazib jo'natib yuborgandan keyin yotoqqa qaytib keldi.

Yotoqni handalak hidi tutib ketgan edi. U yotoqdagi qizlar handalak hidiga chidab turolmay sb qo'yishlari mumkin, deb xavotir olardi. Hatto qizlarga, agar handalakni yeb qo'ysanglar hammanglarni yoppasiga munkillagan cholga erga berib yuboraman, deb xazil qilgan edi.

U qog'oz qopga ikkita qovun, ikkita "Rayskiy arbuz" hamda shu oxirgi bir dona qolgan handalakni joylab qop og'zini yaxshilab boylab qo'ydi.

Bu narsalarni G'apura Zuhro opamning ham og'zi tegsin deb asrab qo'ygan edi.

Test imtihoni boshlanganiga ham ikki soatdan oshay deyapti. Ikkita qiz yig'lab chiqib ketdi. Shpargalka bilan ushlanib qolgan bo'lsa kerak. Bir abituriyent bola ham qovoq-dimog'i osilib chiqarkan, orqasiga qarab, shu universitetda o'qimasam kunim o'tmaydimi, boshqa institutga hujjat topshirganim bo'lsin-e, deb to'ng'illab trolleybus bekatini tomon ketdi.

Boyatdan beri jevachka chaynab o'tirgan g'irvonlik bola meni Soyib Xo'jayev yubordi, deb kepti. Tayinlab qo'yganman. Borsang o'zlari imtihondan o'tqazib studentlik biletini qo'lingga berishadi, ikki oylik stipendiyani olish esingdan chiqmasin, deb qayta-qayta tayinlab yuboripti. Navbatchi bu soddagina, laqmagina bolaga o'ziga yarasha muomala qiladi.

- Toshbolta oshiq erta-mettan kelib, studentlik biletangiz bilan stipendiyangizni olib ketganlar, deb uni qaytarib yuboradi.

Test imtihonlari soat to'rtgacha davom etdi. Abituriyentlar toliqib, suvsab, tinkalari qurib qaytib chiqishdi. Umida ham hech qachon bu darajada charchamagan, qiynalmagan edi. U test savollariga shoshilmay, puxta o'ylab, fikrini bir yerga jamlab, blankalariga bilib-bilib belgi qo'ydi. Taxminan ikki joyda xato qilgan bo'lishim mumkin, degan gumondan ko'ngli g'ashlandi. Buxoro respublikasining moliyaviy hayoti Sadridin Ayniyning "Sudxo'ning o'limi" asarida qanday aks etgan, uni qaysi olim batafsil tahlil qilgan, degan savolga Umida ikkilanibroq dilida javob tayyorladi. Akademik Otaboy Eshonov, professor Hikmat Sobirov...

Otaboy Eshonov respublikaning ijtimoiy hayoti, davlat tuzumi to'g'risida ilmiy ish yozgan. Uning doktorlik dissertatsiyasi xam shu hakda. Demak u moliya ishlarini yoritmagan. Professor Hikmat Sobirov hatto "Sudxo'ning o'limi" to'g'risida qator-qator taqrizlar e'lon qilgan. Umida savolga "Hikmat Sobirov" degan belgi qo'ygan edi.

O'zi qoniqmagani ikkinchi javobi Eleonora Voinichning "So'na" romani to'g'risida.

Artur ismli nikohsiz tug'ilgan, otasining kimligini bilsa ham oshkor qilmagan yigit "So'na" taxallusi bilan faol revolyutsion yashirin kurash olib boradi. Uning otasi kim edi? Ismi qanaqa edi, degan savolga "Kardinal Montanella" degan belgi qo'yishi

kerak. Ammo shu paytgacha aniq bilgan Montanella nomi shu topda sira tiliga kelmasdi. O'yladi, o'yladi, tili uchida turgan 6u nom qaysarlik bilan men, deb aytmedi. Umida noiloj "Otasi Kardinal edi", deb belgi qo'ydi. Shunday yozdiyu ko'zidan yosh oqib ketdi. G'apura avtomatdan Zuhroga qo'ng'iroq qildi.

- Ketyapmiz. Hozir chiqdi, - dedi.

U tomondan, tez kelinglar, oshga gurunch solaveraman, degan ovoz keldi.

Kog'oz qopdagi qovun-tarvuzlarni ko'tarib, taksi to'xtaydigan joyga kelishdi.

Taksi shoferi har narsaga qiziqadigan yigit ekan. Mashina salonini tutib ketgan handalak hidini iskab.

- Nimani hidi kelyapti, juda yoqimli hid... - deb so'radi.

- Meni hidim, - dedi G'apura kulib.

Shofer, hidingiz o'zingizga, o'zingiz hidingizga o'xshar ekansizlar, dedi.

Shu paytgacha chehrasi ochilmay kelayotgan Umida haxolab kulib yubordi.

* * *

Bugun Muqimiy nomidagi teatrda "Fotima va Zuhrolar" tomoshasining takdimot marosimi bo'ladi. Unga barcha teatrshunoslar, yozuvchilar, deyarli hamma teatrlarning rejissyorlari, atoqli artistlar hamda O'lmasning qarindosh-urug'lari, yor-birodarlari taklif qilingan.

"Sharq Yulduzi" jurnalida yaqinida e'lon qilingan O'lmas Umarbekovning "Qizimga maktublar"i rejissyor Rustam Ma'diyevga yoqib qoldi. Bu "Xat" uning yuragiga o't tashladi. Uni sahna asari yaratishga undadi va nihoyat p'esani yozib teatr jamoasiga o'qib berdi. Jamoa ishtiyoq bilan repetitsiyaga kirishib ketdi.

Taqdimotga kelgan O'lmasning rafiqasi Zuhro, singillari Mavjuda bilan Hamida, ukasi Akmaljon hamda qizi Umidaxonlar "Fotima va Zuhrolar"ni nihoyatda qiziqib tomosha qildilar.

Umida sahnada yuz berayotgan voqealarga qiziqib ketib, qimirlamay o'tirardi.

U dadam o'zi yozgan asarini o'zi ko'rmadi, deb o'kinib o'tirardi. Dadajonimni xursand qilolmay qoldim, degan bir armon yuragini timdaldari.

Yonida jimgina tomosha ko'rayotgan onasiga burilib sekingina dedi:

- Dadam tirik bo'lganlarida chet el mashinasi olib berardim...

Bu Umidaning dadasiga yurak-yurakdan chiqqan siz mening jonimdan aziz dadamsiz, sizga perosi tilladan ruchkalar, zo'r galstuklar, yaxshi sigaretalar olib beraman, sizni hech kimga bermayman, degan ma'nodagi e'tirofi edi.

Hayajondan Zuhroning mijjalariga yosh to'plandi. Bir kiprik qoqsa yuzlarini yuvib ketadi. Zuhro esa bu yoshlarni kiprikda kuch bilan ushlab turipti.

Sahnada kechayotgan og'ir, yuraklarni larzaga soladigan voqealardan hayajonlanib yig'lab yubormasin, deb Mavjuda ammasi uni bag'riga bosib o'tirardi. Umida o'zini tutdi. U esi kirib qolgan, o'zini bosib olgan, balog'at yoshidagi qiz edi.

SpektaklCHb tugagandan keyin muhokama boshlandi. Hammaning, yozuvchilarning ham, teatrshunoslaru rejissyorlar hamda artistlarning, hatto oddiy tomoshabinlarning ham fikri deyarli bir xil. Biri-birini to'ldiradigan samimiy, halol gaplar bo'ldi.

Modomiki takdimotga keldingmi, "bilag'onliging"ni ko'rsatib qol, deb gapni cho'zadiganlar xam bo'ldi.

Mashinada uyga qaytishar ekan, Umida O'lmasning ukasi Akmaljonning qullaridan maxkam ushlab oldi. Qo'llarining tomir urishidanmi, nimasidandir dadasining qo'lga o'xshatdi. Bu qo'l, bu tomir urishlar unga dunyo-dunyo quvonch bag'ishlagan beozor kunlarni qaytarib kelgandek edi.

Uning nafasi, sigaret tutunining isi, xatto O'lmas ba'zi-ba'zida suvga tomizib ichadigan allaqanday dori hidi dimog'iga urilayotganga o'xshardi.

Umida opasining bo'ynidan mahkam quchoqladi.

- Opajon, endi sizni hech xafa qilmayman. Judayam yaxshi narsalar olib beraman. Mundanam chiroyli bo'lib ketasiz.

Bu gaplarga Zuhro chidab turolmadi, yig'lab yubordi.

- Yig'lamang, siz mening bittayi-bitta opajonimsiz, oyijonimsiz. Dadamning o'rniga qolgan dadajonimsiz. Ko'rasiz, sizni ko'g'irchokdek kiyintirib qo'yaman. Ayting, Akmal amakim ketmasinlar. Biznikida qolsinlar...

Ertalab nonushta oldidan bir vaqtlar Zuxro tug'ilgan kunda O'lmas sovg'a qilgan brilliant ko'zli zirakni Umidaning qulog'iga taqib qo'ydi.

Umida ikki qulog'ini ushlagancha tryumo oynasiga o'zini solib ko'ra boshladi. Nahorlik shirguruchdan bir qoshiq og'ziga solib yana yugurib borib o'zini oynaga soladi. Hamidaning oldiga kelib, ammajon, yarashibdimi, deb so'raydi. Hamida judayam, deb uning yelkalarini si-lab qo'yadi.

- Hammanglarni yaxshi ko'raman, - dedi Umida.

U shirguruchni yeb bo'lgach, qulog'idan ziraklarni chiqazib Zuxroning qo'lga berdi.

- Opajon, meni kechiring. Men bunaqa narsalarni unchalik yaxshi ko'rmayman. Hozir siz xursand bo'ling, deb taqib ko'rdim.

Kinostudiyaning fotografi kichkinagina qilib ishlab bergan dadamning surati bor. Shuni medalCHbonga o'rnatib bo'ynimga osib yurmoqchiman. Xafa bo'lmayapsizmi, opajon.

Umida London universiteti qoshidagi litseyning eng qobiliyatli talabalaridan biri. Axloqi, o'zini tutishi, darslarni o'zlashtirishi universitet rahbariyatiga ma'qul edi. Butun diqqat-e'tiborini o'qishga bag'ishlagan Umida to'rt yillik o'qishni uch yilda tugatib bakalavr unvoni olish xukuqini qo'lga kiritdi.

Zuxro qizini muborakbod qilgani Londonga bordi. Bakalavr libosini kiygan Umidani ham dadasi, ham o'z nomidan tabriklab bag'riga bosdi.

Universitet hamda litsey professorlari, o'qituvchilari shunday qobiliyatli, odobli qiz o'stirgani uchun unga rahmatlar aytishdi.

Buyuk Britaniyaning bu sershovqin, gavjum poytaxtida Zuhro ilgari ham bir bo'lgan. O'lmas bilan beozor, betashvish, baxtiyor kunlarida buyuk zotlar qadamining izi tushgan joylarni birma-bir ziyorat qilgan edilar.

Umida Respublika "Umid" jamg'armasi orqali o'qishga kelgandi.

Bir kuni oyga teng uch yil ham o'tib ketdi. Umida bo'yi cho'zilib kattalardek o'zini tutadigan mulohazali, andeshali, balog'at yoshidan hatlab o'tgan katta qiz bo'lib qolgandi. Zuxro endi u bilan tengdosh dugonasidek gaplashardi.

Ona-bola bu tinim bilmas ko'chalarni kezar ekanlar, Umida unga:

- Esingizda bormi, opa, "Fotima-Zuhro"lar taqdimotida agar dadam tirik bo'lganlarida chet el mashinasi olib berardim, deb aytgan

edim. Endi siz dadam o'rniga dadamsiz. Ammo siz matiina minolmaysiz. Dadamning ruhini shod qilish uchun sizni ko'p mamlakatlarga olib boraman. Shunday qilsam dadamning arvohi shod bo'ladi, - dedi. - Ertaga sizni Manchesterga olib boraman. Angliyada katta imtiyozga ega bo'lgan, asilzodalar, baland darajali martaba egalarining ayollarini, qizlarini ledi deb ataydilar. Umidaning dadasi avval vazir, undan keyin O'zbekiston mamlakati bosh vazirning o'rinbosari, vitse premer lavozimini egallagan, ko'p mamlakatlarda kitoblari bosilgan mashhur yozuvchi. Shuning uchun ham uni ledi Umida deb atardilar.

Ular sayohatni Manchesterdan boshlashdi. Angliyaga kelib Manchesterni ko'rmas ketgan odam, umuman Angliyaga kelmagan deb xisoblanadi. Bu yurt dunyoga ko'p buyuk zotlarni bergan, o'zida Angliyaning hamma urf-odatlarini, faqat Angliyaliklarga xos chukur bilimli ekanliklari bilan ajralib turardilar. Jahonga mashhur shoirlari Robert Sauti, U. Vordsvort, S. Kolridi kabi o'n sakkizinchi asr bilan o'n to'qqizinchi asr oralig'ida ijod qilgan romantik shoirlari bilan mashhur. Tarixda "Ko'l bo'yi shoirlari" deb nom olgan adabiy guruh xaqida Pushkin bu tengdoshlariga to'lqinlanib she'r bag'ishlagan edi. Manchester butun bir Angliyani bag'riga jo qilgan yurt edi.

Endi yo'l Italiyaga, Portugaliyaga, safar oxiri Ispaniyaning Grenada viloyatiga borib yakun topadi.

Jahon ahli faqat fotosuvratlarda yoxud videolentalardagina bilgan mo'jizalar yurtini o'z ko'zi bilan ko'rish, ming yillar bag'ridan yulib olingan shaharlarda kezish har kimga ham nasib qilmasdi.

Rim ming-ming yillar naryog'ida qolgan o'tmishini tush ko'rib hali hanuz o'z o'tmishi havosidan nafas olib yotgan, o'tmishini yana ming-ming yillarga olib o'tadigan mo'jizalar shahri.

Zuxro ham Umida ham Pompeyni faqat rassom Karl Bryullovnning "Pompeyning so'nggi kuni" deb atalgan mashhur asaridagina bilardilar. Bugun ular necha ming yillar avval kul ostida qolgan, yana ming yillar zargardek mehnat qilib uni bosgan lava kullarini misqollab, grammlab, xuddi choy qoshig'ida million tonnalab (balki milliard tonnadir) kullarni avaylab, har kaftini nazardan o'tkazib, boshqa shaharga oborib tashlash mashaqqati tufayligina Pompey haqiqiy yuzini ochgandi.

Shaharni lava yashin tezligida, balki undanda tezlik bilan bosgan edi. Yurib turgan odamlar, bir-biriga roz aytayotgan oshiq-moshiqlar, kelin-kuyovlar qovushgan paytlarida qandoq holatda bo'lsalar o'sha holatda qotib qolganlar. Hatto qoshikdagi ovqatini og'ziga endi oborganda qotib, qoshiqdagi ovqat ham o'shandoqligicha qolgan.

Bir-ikki soat kezish bilan Pompeyni ko'rganman, deb bo'lmaydi, uni ko'rish, bo'lib o'tgan fojeani, lava kulidan tozalashdagi mashaqqatli mehnatni tasavvur qilish, his etish uchun kunlar emas oylar ham kifoya qilmasdi.

Ona-bola nasib qilsa yana kelib biron hafta shoshilmay, hamma hammasini ko'rishni niyat qilib Pompeyni tark qildilar.

Bu yurtning qayeriga bormangiz aqlingizni shoshiradigan, hayratdan yoqa ushlatadigan bir mo'jizaga yuzma-yuz kelasiz.

Rimdan Venesiyagacha avtobusda bir kunlik yo'l. Suv ustiga qurilgan bu mashhur shaharni bir ko'rsam, deb orzu qilgan odamlar xar qancha sarf-xarajatlarga chidab ko'rgani kelardilar.

Odamlar uylarining ostonasigacha mashinada keladilar. Avtobus xam shundoqqina eshiklari oldida to'xtab o'tadi.

Venesiyaliklar uchun gandola deb atalgan qayiq ham taksi, ham avtobus vazifasini o'taydi.

Venesiyaliklar shu uylarda tug'ilib, yashab, to'ylar qilib, kelin-kuyov bo'lib, farzand ko'rib, qarib olamdan o'tadilar. Necha yuz yillardan buyon, balki ming yillardan buyon necha-necha avlod shunday yashab kelgan.

Zuxro bilan Umida Adriatika dengizi yoqasidagi bu mashhur shaharni yayrab tomosha qilish, odamlar yashayotgan xonalarga kirib, shundoq zahkash joyda shikast yetmay, qurilganda qandoq bo'lsa o'shandoq, biron shuvog'i ko'chmagan, devorlarini suv ivitmagan shaharni ko'rish orzusida edilar. Afsus, 6u bir xayol, orzu ekan.

Venesiya imoratlari birin-ketin nurayboshlagan, odamlar endi yashab bo'lmaydigan holga kelgan uylarni tashlab, ko'chib ketganlarini, hatto tomlarigacha teshilib osmon ko'rinib qolgan uylarni ko'rib hayron bo'lib qoldilar.

Venesiya suvga cho'kish xavfi ostida qolgandi.

Italiya xukumati moliyaviy qiyinchilikka uchragan paytlar bo'lsa kerak, xatto milliard-milliard dollar daromad oladigan turizm ham Venesiyani saqlab qolishga ojizlik qilardi. Bu suv shaxri juda keng quruqlikka ulanib ketgan. Unda minglab xonadonlar, mahallalar xuvillab qolgan. Boshqa shaharga ketib tirikchilik qilishga qurbi yetmagan qari-qartanglar, nochor odamlariga ketolmay qolganlar.

Buyuk Venesiya asta-sekin umrini tugatayotganga o'xshardi.

Endi safar Rimdan sal naridagi Piza shaxriga. Zuhro bilan Umida avtobusda ketarkanlar Umidaning bolaligi tutdi. Erkanib Zuxroning tizzasiga bosh qo'yib, qo'llarini silay boshladi. Avtobusdagi yo'lovchi xotinlar ingliz tilida: Kichkina Ledi erka ekan deb kulishdi. Bu gap Zuxroga malol kelgandek bo'ldi.

- Uch yilda endi ko'rishdik. Ledi Londonda o'qiydi. Men Toshkentda yashayman, bir-birimizni haddan tashqari sog'inganmiz, - deb javob qildi Zuhro.

Xonimlardan biri "Veri vel, senkyu" deb Umidaning yelkasini silab qo'ydi.

Bir tomonga og'ib qolgan jahonga mashhur "Pizanskaya bashnya" deb atalgan, "Piza minorasi" oldida uzoq turib qoldilar. Ketu uzilmay kelib turgan mashinalardan tushgan sayyoxlar og'ib qolgan minora atrofida kino, fotokameralarida uni tasvirga tushirardilar.

TTTu og'ib qolgan minorani hozirgi zamon texnikasi bilan qaddini rostlab qo'yish mumkin emasmikin degan savol ko'ngildan o'tdi.

Mumkin albatta. Oyga odam chiqarib uni apparat yordamida yana yerga qaytarib olib tushgan hozirgi zamon ilmiga, texnikasiga bitta qiyshiq minoraning qaddini rostlab qo'yish nima degan gap?

Ammo Piza minorasi shu bir tomonga og'ib qolgani bilan mashhurdir. Agar uni tik qilib qo'ysalar u hech kimning nazariga tushmaydigan oddiy bir minora bo'lib qolmaydimi? Uni ko'rgani odamlar kelmay qo'yadilar. Italiya turizmi naqd "luqmayi halol" daromadini yo'qo-tadi.

Mopassanning "Mayiblar onasi" degan hikoyasi bor. Bir xotin pul topish niyatida homilaligida qorning bir necha joyidan ro'mol bilan, tasmalar bilan sirib bog'lab tashlaydi. Oy-kuni kelganda u qing'ir-qiyshiq bola tug'adi. Bundan xabar topgan shov-shuv ishqibozlari bolani katta pulga sotib olib, jonli g'aroyibotlar ochiq ko'rgazmasiga oborib namoyish qiladilar. Xotin shunaqa qing'ir-qiyshiq bolalarni ketma-ket tug'averadi. Bu "ish"ni biznesga aylantiradi. Shu orqali boyib ketadi.

Bu gaplarning Piza minorasiga qanchalik aloqasi bor, bilmayman. Qaddi tik minoradan ko'ra nochor minoraning ko'p daromad keltirayotgani shunday o'ylashimga. sabab bo'lgandir.

Endi navbat xarobaga aylana boshlagan, lekin qolgan qismi ko'z qorachig'idek asrab-avaylab saqlanayotkan mashhur Rim

kolizeyni ko'rish, tomosha qilishga. Shu niyatda buyuk hurmat va e'tiqod bilan kolizey ostonasiga qadam bosdik. Kirg'okdan topgan chig'anoqqa quloq tutsangiz dengiz to'lqinlarining, dovullarining guvillashini eshitasiz. Agar ko'pni ko'rgan kolizey g'ishtlaridan bir bo'lagini olib quloqqa tutsangiz, bu yerda bo'lib o'tgan tantanalar, gladiatorlarning buqa bilan olishuv paytidagi shovqin-suronlarni, odamlarning hayqiriqlarini eshitarmikansiz? Bu yerda bo'lib o'tgan hodisalar tasavvurga, hatto xayolga ham sig'masdi. Zilzila yoxud momaqaddiroq qudratiga teng bir turtki mudragan kolizeyni ming yillar uykusidan uyg'otishi kerak. Shunda siz ham uyg'oq kolizeyning galereyalaridan joy olasiz. Ana, Mark Antoniyni gilamga o'tqazib o'nta qul ko'tarib kelyapti. Dur, gavharlar bilan bezangan beqiyos go'zal malika Kleopatra uning istiqboliga chikdi. Kolizey qozondek qaynayapti. Rimliklarning olqish ovozlari kolizeydan toshib shahar ustida aylanib yuripti. Yana bir g'isht bo'lagini olib quloqqa tutasiz. U gung, u soqov. Lekin sizning tasavvuringiz unga til-zabon ato qiladi. Asta gapira boshlaydi. Zuxro bilan Umida Kolizeydan xuddi ming yilliklar ichidan bugungi kunga chiqib kelayotganga o'xshardilar. Dunyoning boshlanishidan to shu kungacha bo'lib o'tgan voqealarning "shohidi" bo'lib, endi butunlay yangi bir olamga yetib kelgandek edilar. Endi safar Ispaniya poytaxti Madrid shahriga. Unda bir kun bo'lib Gibraltar bo'g'oziga o'tadilar. Grenada viloyatida arablar qurgan benihoya salobatli masjidlarining ko'kka bo'y cho'zgan naqshinkor minoralariga qarab bu yerlarda bo'lib o'tgan jangu jadallarda shikastlanmaganiga hayron qoladilar. Dunyo keng, odog'iga yetib bo'lmas ekan. Shaharlardagi mo"jizalarni yurgan ko'radi. O'tirgan nimani ko'rardi? Umida mushtdek boshi bilan dunyoning deyarli yarmini ko'rib qo'ydi. U Gibraltar bo'g'ozining sohilida turib mashhur "Grenada" qo'shig'ini kuylay boshladi:

P“CᄒPμPSP°PrP°, P“CᄒPμPSP°PrP° P“CᄒPμPSP°PrP° PjPsCᄒI...

* * *

Telefon jiringladi. Trubkani olib, labbay, dedim. Zuhroning tanish ovozi eshitdim. - Statsionarga kelsangiz. O'lmas akam sizni so'rayaptilar. Aytadigan gaplari bor ekan. Biron oylardan beri Zuhroning ovozi endi eshityapman. O'lmas bilan ikkovi tayyor oshni tashlab ketganlaridan buyon qayerdaliklarini bilolmay diqqat bo'lib yurgan edim. Shoshib kiyindimu mashina bilan yo'lga chiqdim. Kasalxona oldida Zuhro meni kutib turardi. U ancha ozib krlgan, horg'in. Sochlarida bir-ikkita oq tola ko'rinish qopti. O'lmasni Moskvadan og'ir ahvolda olib kelgan bo'lsalar kerak deb o'yladim. Zuhro meni ko'p qavatli korpus orqasidagi zinadan palatalar tomon boshladi. Tomog'i boylangan O'lmas Turg'un Azizov olib kelgan fanerini tizzasiga qo'yib, nimalarnidir yozyapti. Ma'lum bo'lishicha Moskvada o'tgan so'nggi maslahat yig'ilishi O'lmasning tomog'idagi ovoz o'tkazadigan joyini boshqa organlariga o'tib ketmasligi uchun qatron qilib olib tashlashga qaror qilganlar. Bunga O'lmasning roziligini olganlar. Operatsiyadan o'n besh kunlar o'tib Toshkent meditsina institutining jarrohlik klinikasiga olib kelganlar, bir hafta kuzatuvdan keyin statsionarga kelgan. Bu orada onkologiya institutida ko'rikdan o'tib turgan. Mana, bir haftadirki statsionarda og'ir ahvolda yotibdi. U hamon tizzasiga fanera qo'yib, hamma narsani, bugun-erta bostirib kelayotgan o'lim sharpasini ham unutib yozyapti. U derazadan tashqariga qaradi. Ertalabdan beri osmonda bulut aylanib qolgandi. Endi sharros quyyapti. O'lmas orqa-o'ngiga xat bitilgan krg'ozni menga uzatar ekan jilmaydi. Yo qudratingdan o'rgilay xudo, bu bolaga dunyoni tark etar chog'i jilmayishiga qaydan kuch ato etding! To kelgunimcha u menga xat yozib qo'ygan ekan. O'qiyapman: "Domla, Sizdek bir kekxa, otamdek mehribon odamni o'z dardim, boshimga tushgan azobli kunlarim bilan tashvishga solishni istamagandim. Bo'lgan murakkab operatsiyalarni bildirgim kelmagandi. Endi tong otishi bilan hammasini, azoblarni, chidab bo'lmas og'riqlarni tashlab hech kim to'ymagan bu dunyodan ko'z yumib ketaman. Men tortgan azoblar boshqa hech kimning boshiga tushmasin. Sizga yana bir, oxirgi iltimosim bor. Sobir Mirvaliyev o'z tashabbusi bilan tomliklarimni chiqazyapti. Men to'g'rimda ilmiy ish ham boshlaganga o'xshaydi. Nashriyotlarda sizni hurmat qilishadi. Sobirjonga dalda bo'lib tursangiz yaxshi bo'lardi. O'zi yo'qning ko'zi yo'q, deb ba'zi narsalarimni muharrirlar chiqazib tashlashlari mumkin. Iltimos, Umarbekov endi hech narsa yozolmaydigan joyga ketgan, kasalxonalarining tiqilinch pa-latasida qiynalib yozgan narsalari qolib ketmasin, deb ularni insofqa chaqiring. Sobirjonni o'zingizdan uzoqlashtirmang. U yaxshi yigit ekan. Afsus, bunaqa sodiq do'stni umrimning oxirida topgan ekanman. Unga bironta yaxshilik qilolmay ketyapman. Ilgarigidek uyimga kelib turing, ko'zi to'la yosh bilan qolgan Zuhro hamda jovdirab kolgan jondan aziz, dunyoda topgan yagona baxtim Umidaga madad bo'ling. Xayr. Diydor ko'rishmoq endi qiyomatga qoldi". O'lmas o'sha, ichidagi dardi-alamini sezdirmaydigan jilmayish bilan orqamdan qarab qoldi. Hovliga chiqayotganimda Zuhro shu xat menda tursin, keyin qaytib beraman, deb olib qoldi. Yomg'ir ko'z ochirgani qo'ymaydi. Zuhroning yomg'irda darvoza oldigacha kuzatib chiqishiga ko'nmadim. O'zim to mashinaga yetib borgunimcha shalabbo bo'lib ketdim. Boqqa kelib yotib yotolmadim, o'tirib o'tirolmadim. Ko'zimga umrining eng so'nggi damlarini kechirayotgan O'lmas ko'rnaverdi. Nahotki u yo'qlikka ketadi? U eski "qadrtoni"ni kutayotgandek o'z o'limiga nahotki seskanmasdan peshvoz chiqadi? Bu kichkinagina, nozikkina vujudga nahotki shunchalar jasorat, shunchalar qudrat bo'lsa! Tomog'iga tig' qadalib turgan, umri soatma-soat qisqarib borayotganini sezgan bu odamda bunchalar iroda, bunchalar bardosh qaydan paydo bo'ldi deb o'zimdan o'zim so'rayman. "Qizimga maktublar"ni asta varaqlayman.

Undagi "Mangu dunyo bo'sag'asida" degan yozuvni o'qib ssskanib ketdim. Bu gapni men o'qib shunchalik iztirobga tushyapman, bilmadim bu gapni aytishga qanday tili bordi? Nahotki shularni yozayotgan qo'li titramadi, nahotki faryod urib yig'lab yubormadi...

O'lmas shu tobda o'sha aytgan "Mangu dunyo bo'sag'asi"da turipti. Bir necha daqiqadan keyin bu foniyl dunyodan boqiy dunyoga rixlat qiladi.

Ko'zim ilingan ekan, telefon jiringlashidan uyg'onib ketdim. Go'shakni olib, labbay dedim. Bunday bemahalda hech kim xushxabar yetkazmaydi. Soatimga qaradim. Ikkidan yigirma minut o'tibdi. Akmalning. tanish ovozi eshitildi. U "akam olamdan o'tdi", dedi-yu yig'lab yubordi.

Shoshib kiyindimu mashina bilap yo'lga chiqdim.

Yomg'ir xuddi tepangdan pakirlab quyayotgandek. Mashinaning old oynasini yomg'ir suvlaridan tozalayotgan dvornik-cho'tka ham o'zlik qilib qoldi. Do'rmon chinorlarining qurigan shohchalari, barglari yopishib qolgan oynadan hech narsa ko'rinmaydi. Uni tozalash uchun tashqariga chiqish kerak. Chiqishning esa iloji yo'q. Noiloj chiqib barglarni, shoxchalarni sidirib tashladim. Ivib shalabbo bo'lib ketdim. Mendan ikki qator orqadagi akatsiya asfaltga ag'darilib, yo'lga to'sib ko'ydi.

Qalpoqli brizent plashch kiygan gaichilar mashina haydovchilarni sekin yurishga da'vat qilardilar. Qishloq yo'llarida o'zi xohlagancha tezlikni oshiradigan uchar shofyorlar shaharga tushganda yuvosh tortib qoladilar.

Har qalay shaharda intizom qattiq edi. Shuning uchun ham yo'lning buyog'ida qiynalмай O'lmasning uyiga omon-esson yetib keldim.

Janozaga kelganlar ko'p edi. Birovning qo'lida soyabon, birov boshiga plyonka yopib olgan, birovlar esa yomg'irda do'ppi bilan turardilar.

O'lmasning hovlisida deyarli pana joy yo'q. Odamlar mashina opchiqib qo'yilgan garaj ichida, shu garaj oldidagi ayvonchada yomg'irdan qochib turishardi.

Tobutni opchiqib shu ayvonga qo'yishdi. Yomg'irdan qochib kirganlar yana yomg'irga chiqib qolishdi. Vazirlar mahkamasining diniy ishlarni tartibga solish bo'limining raisi yig'ilganlarga murojaat qildi.

- Jamoat, biz marhumni olib boradigan "Minor" qabristonida yomg'irdan pana bo'ladigan joy yo'q. Hamma rasm-rusumlarni shu yerda ado etib, keyin olib boramiz, janoza o'qish oldidan marhumning eng yaqin kishisi yonimga kelishini so'rayman.

O'lmasning ukasi Akmal muftiy hazratlari oldiga kelib bosh egib turdi.

- Marhum hayotligida kimdandir qarzdor bo'lib, vaqtida to'layolmagan bo'lsa, o'sha odam da'vo qilib kelsa shu qarzni to'lashni gardaningizga olasizmi, - deb so'radi.

- Gardanimga olaman, - dedi Akmal.

- Qabristonda hech qanday miting, hech qanday nutq bo'lmaydi. Kim gap aytmoqchi bo'lsa iltimos, shu yerda aytsin. Men marhum Umarbekovning ustozini, muhtaram akamizga so'z beraman.

Menga so'z berib qolishlarini taxminan bilardim. Shuning uchun aytadigan gaplarimni uncha-muncha o'ylab qo'ygandim.

Yomg'irda turib qolganlarni qiynamaslik uchun mumkin qadar qisqa gapirishga harakat qildim.

- Aziz birodarlar, biz bugun mukammal bir insonni eng oxirgi yo'lga, Alloh huzuriga kuzatayapmiz. Marhum bu dunyoga faqat mehnat qilish uchun, odamlarga yaxshilik qilish uchun kelgan, odam bolasini yo'ldan uradigan har qanday nopok, noshar'iy ishlardan hazar qilgan, o'zini tiya olgan, birovning luqmai haloliga yomon nazar solmagan, yuzidan Nuri Muhammad Huvaydo bir pokiza inson edi. Marhum bilan ota-boladek edik. Ko'p yillardan beri bir-birimizni avaylab, bir-birimizga dilni og'ritadigan biron so'z aytmay, bir-birimizni sog'inib, bir-birimizni ehtiyot qilib yashadik. Marhum hech kimning dilini og'ritmagan, hech kimga malomat qilmagan, bu dunyoga pok kelib, pok ketgan nurdek toza, chehrasidan jannat nuri yog'ilib turgan farishtadek inson edi. Uni butun O'zbekiston ahli yaxshi ko'rardi. Bolam shunga o'xshasin deb, ukam shunga o'xshasin deb, kuyovim shunga o'xshasin deb bolalariga O'lmasbek deb nom qo'yardilar. Mana bugun bag'rim huvillab qoldi. Hazrat, siz amri ma'rufalarda ibratli umr kechirgan, o'zidan yaxshi nom qoldirgan insonlar to'g'risida hayajon bilan, buyuk muhabbat bilan gapirib berasiz. Shu ajoyib insonlar qatoriga O'lmasbekning nomini ham qo'shib aytishingizni istardim...

Mashinani o'sha yerda qoldirib "Minor"ga ko'pchilik bilan avtobusda ketdim.

Yomg'ir hali ham savalab turipti.

Qabr boshiga borish qiyin edi. Yomg'ir mag'z-mag'ziga singib ketgan yerdan to'piqqacha loy kechib qabr oldiga borishyapti. Men ham shimimning pochasin tizzamgacha himarib qabr boshiga bordim.

Go'rkov bunaqa favqulodda voqealarni ko'p ko'rgan odam. Go'r tepasiga taxta terib ustidan plyonka bostirib qo'yipti.

Yigitlar go'r ustida katta bir chodirni tutib turardilar.

Akmal bilan go'rkov ikkovlari O'lmasning jasadini lahadga qo'yidilar. Hammamiz qabrga bir-ikki ketmondan loy aralash tuproq tashladik.

Qori odamlarni yomg'irda qiynamaslik uchun qisqaroq surani tilovot qilardi. To'piq bo'yi loy ilashib og'irlashgan oyog'imizni arang ko'tarib asfalCHt yo'lkaiga chiqib oldik.

"Minor"dan qaytishda yana avtobusga chikdim. Haydovchi, odamlar isinib olsin, deb avtobus pechkasini yoqib qo'ygan ekan.

Salonni to'ldirib bir-biriga qapishib o'tirgan odamlarning og'zidan chiqayotgan, kiyimlaridan ko'tarilayotgan hovurdan avtobus oynalari terlab, salon tuman ichida qolgandek bo'ldi.

Juda xumor tutdi. Cho'ntagimdan sigaret olib chekmoqchi bo'ldim. Ust kiyimimdan o'tgan yomg'ir qo'yin cho'ntagimdagi sigaretlarni ham ivitib yuborgan ekan.

Yomg'irda ivib, to'pig'igacha loyga botganlar, ertaga fотиha o'qigani boramiz, deb yo'l-yo'lakay tushib qolishdi.

Garaj ayvonida yoshgina qori keldi-ketdiga Qur'on tilovat qilib o'tirardi.

Boya janoza paytida boshiga plyonka yopib, rezina etikda yurgan G'apuraga ko'zim tushgandi. U menga yaqin kelib tuflimni yechib berishimni so'radi. Garajda qolgan mashinamga kirib tuflimni yechib berdim. Uni sharillab yomg'ir suvi tushayotgan tarnovga tutib yuvib, tozalab olib keldi-da, Zuhro opamning oldiga kirar emishsiz, dedi.

Devordagi soatga qaradim. Zuhro uni 2 dan 20 minut o'tganda to'xtatib qo'ygan. Bu 1994-yilning 10-noyabri edi.

Bir uy bo'lib o'tirgan ayollarning xammasi yosh, aytib yig'lashni bilmas edilar. Zuhro hamma qiyinchiliklarni O'lmas bilan birga tortib bardoshli, chidamli bo'lib qolgandi. Ammo Umida o'zini qo'yarga joy topolmay goh Akmalning, goh ammalarining bo'yniga osilib dod solardi.

- Bir pas isinib qaynoq choy ichib oling, deb cha-qirdim. Kiyimlaringiz ham ivib ketibdi, shamollab qolmang, - dedi Zuhro.

This is not registered version of TotalDocConverter

- Zuhroton, erimga jafu berdinglar, yig'ga qo'l ko'pinib olay. Ertaga azonda yetib kelaman, - dedim.

Tik turganimcha ikki piyola qaynoq choy ichib, ular bilan xayrlashdim.

O'lmas Umarbekovga Boqiy Dunyo Safari Oldidan Duo

Osmon yuzini to'sgan bulutlar oro qo'l cho'zib, tortib olgan uz ulushing - kichkinagina billuriy tong narchasini ko'tarib, qaytmas bo'lib zimiston tomonlarga ketyapsan.

Iloyo, sahar payti uzib olingan shu bir parcha nur to oxiratgacha yo'lingni yoritib borsin! Omin!

Shu qisqagina yashab o'tkazgan umringda sen ko'rmagan jabru jafolar qolmadi. Bariga chidab berding. Bo'g'zingni pora-pora qilib, jonginangni og'ritib kesayotgan tig'ga qandoq turib berganing birgina yaratgan Egamga ayon.

Ey, Tangrim! Shu umri azoblarda o'tgan, bariga "Sening menga atagan buyuk ne'mating" deb chidagan bandangni o'z himoyangga ol.

Behisht darvozasini unga ochib ko'y. Endi dargohingda abad orom topsin!

Ey Allohim, unga o'zing panohgoh bo'l.

Omin!

... Yomg'ir shovullaydi. Yomg'ir guvillaydi. Yomg'ir sen uchun ko'zyoshlarini seloba qilib faryod uradi. Yomg'ir shovullaydi...

2003 yil, 24 aprel.